

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА

МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

ИНГЛИЗ ФИЛОЛОГИЯСИ КАФЕДРАСИ

ҚЎЛЁЗМА ҲУҚУҚИДА

НИЁЗОВА МОҲИЧЕҲРА

INGLIZ VA O'ZBEK YOZUVCHILARI IJODIDA ADABIY

TA'SIR MUAMMOSI ("QIROL LIR" VA "ULUG'BEK
XAZINASI" ASARLARI MISOLIDA)

5A120101-Адабиётшунослик (инглиз) мутахассислиги

бўйича магистр даражасини олиш учун

МАГИСТРЛИК ДИССЕРТАЦИЯСИ

Раҳбар: Н.С. Очилов

Бухоро 2012

MUNDARIJA

Mavzuning umumiy tavsifi	2
I BOB. Ingliz va o`zbek yozuvchilari ijodida adabiy ta'sir muammosi	
Villiyam Shekspir asarlaridagi qirollar fojialari hamda Odil Yoqubov asarlaridagi qahramonlar qismatining mushtarakligi	6
1.1. Ingliz va o`zbek yozuvchilari asarlaridagi ijobiy obrazlar qismatining mushtarakligi	23
1.3. Ingliz va o`zbek yozuvchilari asarlardagi salbiy obrazlar qismatining mushtarakligi	35
1.4. Ingliz va o`zbek yozuvchilari asarlaridagi nohaq tahqirlangan qahramonlarining taqdiri	43
1-bob bo'yicha xulosa	55
II BOB. 14-15- asrdagi Angliya va Mavorounahrda adabiy muhit	
2.1. Ulug`bek davri adabiy muhiti	56
2.2. V.Shekspir davri adabiy muhiti	63
2.3. Ingliz va o`zbek yozuvchilari ijodlarining mushtarakligi	70
2-bob bo'yicha xulosa	82
UMUMIY XULOSALAR	83
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	87

Mavzuning umumiy tavsifi

Mavzuning dolzarbligi. Prezidentimiz I.A.Karimov chet tillarni mukammal o`rganish va chet el yutuqlarini o`z xalq xo`jaligimizga tadbiq etish kerakligi haqida bir necha bor ta`kidlagan edilar: **“Hozirgi paytda xorijiy tillarni o`rganish va o`rgatishga yurtimizda katta e`tibor berilmoqda, bu ham, albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyatidan o`ziga munosib o`rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o`z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo`q”.**¹

Yozuvchilarning talanti, intellektining o`ziga xosligi, voqelikni ko`rish, kuzatish, his etish nuqtai nazari alohida bo`ladi. U tasvir predmeti, jamiyat talabi, zamon xarakteri, san`at holati, ilmiy-badiiy tafakkur darajasi bilan birga, muayyan yozuvchi shaxsi, hayotiy tajriba, estetik ideali, madaniy saviyasi, talant xarakterini o`zida yorqin aks ettiradi.

Jahonga mashhur, talantli shoir, drammaturglar ijodini o`rganish, ularning progressiv g`oyalarini ommaga tarqatish, targ`ibot qilish katta ahamiyat kasb etadi. Shunday talantli yozuvchilardan biri Vil`yam Shekspirdir. Uning asarlarini butun jahon o`qiydi, uni qancha ko`p tarjima qilib, o`z tilimizda o`qisak, uning ochilmagan qirralari yanada ko`zga tashlanib boradi. Yoshlarimiz tajribasi uchun, kelajak avlod uchun V.Shekspir g`oyalarini targ`ibot qilish foydadan xoli emas.

Shekspirning o`zbek yozuvchilari ijodiga ta`siri kuchli. Shekspir davlat hukmdorlari haqida, qisqasi iqtisodiy jihatdan ta`minlangan kishilar, oilalar tiplaridan o`z asarlarini yaratadi, u yerdagi sahnada qatnashadigan qirollar, shahzodalar, malikalar, davlat amaldorlari. U yerda oddiy ishchi, fermer, farrosh, qorovul qatnashmaydi. Shunday obrazlari tarkibiga mos o`zbek ijodkorlari, talantli yozuvchi dramaturg, shoir, oliy maktab o`qituchisi – domla Maqsud Shayxzoda bilan talantli yozuvchi Odil Yoqubovlardir.

¹ Каримов И.А.. Баркамол авлод – Узбекистон тараққиётининг пойдевори. Т., 1998, 8-9 бетлар.

Ular “Ulug`bek xazinası” asarlarini bunyod qildilar. Har qanday yozuvchi, ijodkor ham Shekspir dahosiga urinavermaydi. Uning ijodini, uslubini, Shekspir yashagan davr ijtimoiy-siyosiy holatini yaxshi o`zlashtirgandan keyingina qo`lga qalam olib, yangi bir asar yaratishga kirishadi. Ana shunday mas`uliyatli, shu bilan birga sharaflı ishni bajarishga M.Shayxzoda va Odil Yoqubovlar kirishdilar.

Biz xorijiy tillarni o`rganar ekanmiz, uning asosiy manbai, fundamenti qayerdaligini esga olishimiz lozim. Ular badiiy asarlar tilidir. Badiiy asarlar xalq tili va adabiy tilda yaratiladi, buni hammamiz yaxshi bilamiz. Shuning uchun biz – o`zbeklar Oybekni, G`afur G`ulomni, Abdulla Qahhor, Uyg`un kabi shoh yozuvchilar asarlarini o`qib tilimiz chiqqan, adabiy tilda gapiradigan, yozadigan bo`ldik. Tilimizda eski o`zbek tili elementlari ham ko`p. Biz ularni Alisher Navoiyni, Mashrabni, Zokirjon Furqatni, Anbar Otin va Muqimiylarni o`qib o`zlashtirdik. Ingliz tilida ham eski ingliz tili elementlari ko`p, biz ularni ilmiy izlanishlar qilib, Shekspir, Xristofer Marlo kabilarning asarlarini o`zlashtirish orqali bilib olmoqdamiz. Shuning uchun biz Shekspir asarlarini ilmiy ish qilish orqali va ularning ijodiy uslublaridagi mushtarakliklarni o`zbek adabiyoti bilan qiyos qilib o`rganmoqdamiz. Bu esa ingliz tilini, uning tarixini yanada puxta bilishimizga ko`maklashadi.

O`zbek yozuvchilaridan faqatgina M.Shayxzoda va O.Yoqubovlarga podsholik, sultonlik, xonlik, umuman yuqori sinf vaqillari obrazlarini yaratdilar. Bulardan tashqari ko`p asarlarning yozilganligini esga olaylik. Masalan, M.Shayxzoda “Jaloliddin”, Hamid Olimjon “Muqanna”, Oybek “Navoiy”, Uyg`un, Izzat Sulton – “Alisher Navoiy”, “Mirzo Ulug`bek”, “Noma`lum kishi”, “Shoir qalbi”, “Nodira”, “Muqimiy”, “Abu Ali ibn Sino”, “Furqat” singari sahna asarlari yaratildi.

Shunday qilib, bu tipdagi asarlarning bir qanchasi ham Angliyada, ham O`zbekistonda yaratildi. Xristofer Marlo (1564-1593) 1587 yili Londonda mashhur “Buyuk Temur” sahna asarini yaratdi, Gyote Xofiz Sheroziyni ustozim deb atadi va “Garbiy Sharq devoni”ni yaratdi. Demak, G`arbda ham Sharqda ham o`zaro

adabiy aloqaga e'tibor berilib kelgan, hozir ham berilib kelinmoqda. Ularning asar qahramonlari G'arbu Shark asarlari qahramonlarining prototiplaridir.

Jahon adabiyoti har doim bir-biridan ta'sirlanib, ijodiy o'rganish, bir-birini to'ldirish, o'sha qolip asosida o'z adabiyotini yaratib kelgan.

Shekspir fojialaridan ta'sirlanib, Maqsud Shayxzoda va Odil Yoqubov o'z asarlarini yaratgan ekanlar, ularda mushtarak tasvirlar ko'p. Biz ularni har bir voqeani, har bir obrazni Shekspir – Ulug'bek asarlari masshtabida o'rganamiz. Bu esa ishimizning muhimligi va dolzarbligini anglatadi.

Tadqiqotning o'rganilish darajasi. Olimlar Shekspirni va Mirzo Ulug'bekni bizgacha o'rganganlar. Ular bunday mavzularda ishni o'rganish jarayonida original asarlar, ya'ni Shekspir asarlarning ingliz tilidagi asl nusxasidan misollar keltirib isbotlamaydi. Bizning ishimiz esa, haqiqatan, o'z oldimizga qo'ygan maqsadga muvofiq bajarilgan, shuning uchun bizning ishlarimiz ulardan farq qiladi.¹

Ishning maqsad va vazifalari. Ishning asosiy maqsadi Shekspir va Ulug'bek drammalardagi tasvirning mushtarakligini ko'rsatish, misollar, faktlar bilan isbotlashdan iborat.

Ishning maqsad va vazifasidan kelib chiqqan tadqiqot oldiga quyidagi vazifalarni qo'ydi:

- Shekspir fojialari va Ulug'bek haqidagi asarlarni o'zlashtirish;
- mavzu ob'ektlari bo'lgan badiiy asarlarni qunt bilan o'qish va o'zlashtirish;
- asarlardagi mushtarak obrazlarni klassifikatsiya qilish;

Ishning metodologik asosi va tadqiq usullari. Ilmiy ishimizning ilmiy nazariy metodologik asosini prezident I.A.Karimov asarlari, hukumatimizning shu fanga oid qaror va qonunlari, hamda Shekspir va Ulug'bek haqidagi ilmiy ishlar tashkil qiladi.

1.Сулаймонова.Ф. Шекспир Узбекистонда. Т., 1978

Саломов.Г. Таржима ташвишлари. Т., 1983

Гулямова,Д. Драматургия Шекспира в Узбекистане. Т., 1971

Ishning yangiligi. Bu Shekspir fojialari obrazlarini, Ulug`bek haqidagi asarlar obrazlarini ularning xarakteriga qarab guruhlashtirish va asl nusxa asarlaridan faktik misollar keltirib isbotlab ko`rsatishdir. Shekspir obrazlari va Ulug`bek haqidagi asarlar obrazlarini bunday holatda tahlil qilish birinchi marta bo`lmoqda. Bu esa ishning yangiligi hisoblanadi.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Shekspir fojialari va Ulug`bek haqidagi badiiy asarlar obrazlarning mushtarakliklarini ko`rsatib xulosalar chiqarish ishning nazariy ahamiyatini tashkil qiladi. Har bir nazariyani, xulosani misollar bilan isbotlash ishimizning ilmiy ahamiyatidir. U faktlar qiyosiy adabiyot, adabiy aloqalar amaliy darslarida foydali material sifatida foydalanilishi mumkin.

Ishning joriy qilinishi (aprobatasiyasi). Mavzuni tasdiqlashda jamoatga bildirilgan, dastlabki himoyalarda, qism-qism materiallar to`plab, himoya qilishda ilmiy jamoatchilikning xabari bor. Bundan tashqari ishimiz mazmunini bayon qiluvchi ikkita maqolamiz ham keng ilmiy jamoatchilikka havola qilingan.

1. **Niyozova M.** Shekspir davri ijtimoiy-siyosiy va adabiy muhiti. Adabiyotshunoslik va badiiy tarjima muammolari. Ilmiy maqolalar to`plami. 2011. Buxoro. 101-105 bb.

2. **Niyozova M.** Ingliz va O`zbek yozuvchilari adabiy ijodlarining mushtarakligi. Tilning leksic-semantik tizimi va qiyosiy-tipologik izlanishlar: Sinxroniya va diaxroniya. Toshkent "Muharrir". 2012. 190-192 bb.

Ishning tarkibiy qismi va hajmi. Ishimiz kirish, ikki bob, har bir bobning xulosasi, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Hajmi 89 sahifa.

I BOB

Ingliz va o'zbek yozuvchilari ijodida adabiy ta'sir muammosi

1.1. Viliam Shekspir asarlaridagi qahramonlar va Odil Yoqubov hamda Maqsud Shayxzoda asaridagi qahramonlar qismatining mushtarakligi

Yozuvchi, dramaturg, shoir, adabiyotshunos pedagog Maqsud Shayxzoda va yozuvchi Odil Yoqubovlarning “Mirzo Ulugʻbek” va “Ulugʻbek xazinasini” asarlari Shekspir asarlarini oʻzlari (M.Shayxzoda – “Gamlet” va “Romeo va Jul'etta”) tarjima qilgani uchungina paydo boʻlgan emas, bu ham yetarli emas edi. Bu keng ma'noda Shekspir ijodini sinchiklab oʻrganish, Shekspir anʼanalarini ijodiy oʻzlashtirish va ularni yangi davr adabiyoti tajribasi va talablari asosida adabiy estetik amaliyotga tadbiiq etish, bu anʼanalarni davom ettirish va yangi sharoitda, yangi material asosida rivojlantirishga urinishdan iboratki, bunday azamat vazifalarni oʻzbek ijodkorlari ajoyib asar sifatida yaratdilar.

Zotan buyuk Shekspir tajribasi oʻzbek adabiy muhitiga tadbiiq etishga imkon tugʻdiradigan gʻoyat maqbul materialga ega boʻldilar. Oʻzining dahshatli ijtimoiy ma'nosi, fojiaiviyliigi, keskin tarixiy toʻqnashuvlarga serobliigi, jahonshumul ilgʻor ilmiy qarash bilan diniy fanatizm, xurofot va bidʼatning toʻqnashuviga doir Movarounnahrda kechmish musibatli voqealar maʼlum ediki, mazkur voqeiy kechmishlar Shekspirona adabiy maktab tadbiiqi uchun fundamentni, tayyor “polufabrikat”ni tashkil etardi. Bu esa Maqsud Shayxzoda uchun Mirzo Ulugʻbek voqeasi boʻlsa, Odil Yoqubov uni nasr bilan yaratishga erishdi. Bunda “Yuliy Sezar”da tasvirlangan shoh bilan xalqning toʻqnashuvi va ommaning aldanishi hodisasi ham, “Gamlet”da tasvirlangan toʻqnashuvi ham, ilgʻor gumanistik gʻoyalar bilan xurofot, jaholat va xudbinlikning murosasiz toʻqnashuvi ham, qirol (sulton) Ulugʻbekning qatl etilishi ham, “Qirol Lir”dagi farzandlarning oʻz padari buzrukvorlariga qarshi borishi ham – boʻlarning barchasi toʻla-tekis muhayyo edi. Boshqacha qilib aytganda, XVI asr ingliz dramaturgi ijodida badiiy voqelik sifatida namoyon boʻlgan narsalarning deyarli barchasi XIV asr dramaturgi

Movaraunnahr zaminida real tarixiy qonli voqealar sifatida bo`lib o`tgani edi. Shuning natijasida o`zbek yozuvchi-ijodkorlari o`z asarlarini muvaffaqiyatli ravishda bunyod qildilar. Shekspir fojialari “Ulug`bek” asarida ham ko`p uchraydi. Masalan, qirol Lirning qismati haqida hamon ba`zi faktlarni keltirish mumkin.

O`zining kuch-quvvatiga, boyligiga ishongan qirol Lir, bor davlatini, erini, mol-mulkini uch qiziga taqsimlab berish bilan «davlat tashvishlaridan» qutilmoqchi bo`ladi. U qizlaridan o`ziga bo`lgan muhabbat va sadoqatlarini izhor qilishlarini so`raydi. Katta qizi Goneril`ya bilan o`rtancha qizi Regana uni dunyodagi barcha narsalardan ko`ra ortiqroq sevisishlarini aytadilar. Kenjatoyi KordeliYa esa opalaridan ortiq hech qanday so`z aytolmasligini, faqat bir farzand sifatida otasini hurmatlashini bildiradi.

Ko`r-ko`rona maqtovlarga moyil qirol kichik qizining bu javobidan g`azablanib, butun davlatini hiylagor va tilyog`lama ikki katta qiziga bo`lib beradi. Graf Kent «til jimligi, dil bo`shlig`i belgisi emas» deb unga nisbatan KorreliYa sadoqati zo`r ekanini aytganida mag`rur Lir uni quvib yuboradi, qizini esa butun merosidan mahrum etadi. Kordeliyaning aqli va go`zalligiga qoyil qolgan fransuz qiroli unga uylanadi¹.

Qirol Lir mamlakat rahbarligini gersoglardan biriga topshirsa kerak, deb o`ylab yuradi Al`boni gersogi va Kornuel` gersogi. Lekin hozirgacha bu masala ochiq qolgan edi. Lir barchani yig`ib, qirollikni topshirish niyatida ekanini aytadi.

O`z atrofi bilan go`yoki maslahat qiladi. Lir o`zini mamlakatning mutloq hokimi deb hisoblab, faqat o`z bilganini qiladi, hech kimni quloq solmaydi, graf Kent qirollikni topshirmaslikni maslahat qilsa ham, quloq solmaydi Lir.

Lear

Meantime we shall express our darker purpose.

Give the map there – Know that we have divided

In there our kingdom; and it's our last intent

Where merit death most challenge it – Goneril,

¹Каюмов. О.. Чет эл адабиёти тарихи. Т., «Ўқитувчи», 1973, 207-бет

Our eldest born, speak first.

(p.324)

Lir

Haligacha yashirin tutgan andishamizni

Ochmoqchimiz, qani menga kartani bering!

Bilib qo`ying: uch taqsimga baravar bo`ldik

Yuksak bo`lsa, biz berajak mukofotlar ham

Shu kishiga ulgurjiroq – ko`proq bo`ladi.

Goneril`ya, bosh qizimiz, sen oldin gapir.

(347-bet)

Gersog Kent toju-taxtni berma, esingni yig`ib ol, deb Lirga maslahat berganda ham Lir o`z fikridan qaytmaydi, aksincha Kentni yomon ko`radi.

Qirol Lir Kentdan bu so`zlarni eshitganda, uni dargohidan haydab yuboradi.

Lir qizlari Goneril`ya, Regana otasiga nisbatan hurmatlari baland, sodiqligi qat`iy bo`lgani va tilyog`lamalik qilib, otasi ko`nglini oladi. Kenja qizi Kordeliya opalaridan ustun, qattiqroq gapirolmaydi, otasiga bir farzand sifatida uni hurmat qilishini bildirganda, uni haydab yuboradi, qizim emassan, degan darajaga boradi.

Lir butun davlatini ikki qizi ixtiyoriga topshirgandan keyin ham, o`zini ilgarigidek hukmron deb biladi, drujinalarini saqlab qolishni istaydi. Bu hol qizlarga yoqmaydi. Bir qizidan arazlab, ikkinchisiga ko`chib yurgan o`jar Lir oxirida quvilib boshpanasiz qoladi va tez vaqt ichida achchiq haqiqatni anglab, atrofida adolatsizliklar, ochlik-yalang`ochlik hukm surayotganini ko`radi va xatolarini tushunib kuchli iztirob chekadi.

Lirning halokatli xatosi shunda ediki, u mol-mulkidan voz kechgani holda, hukmronlikdan voz kechmay, davlatni qo`lda saqlamasdan turib ham mamlakatni idora qilish mumkin, deb o`z kuchiga ortiqcha baho beradi. Bu xatosini u juda kech, ko`p mashaqqatlarni boshidan kechirganidan so`ng tushunadi. Davlatdan ajralgan Lirga munosabat tez o`zgaradi. Hammadan oldin butun boyliklarni qo`lga

kiritgan va otaga qaramlikdan qutilgan katta qizlari Lir talabalarini rad etib, o'z hukmlarini o'tkazadilar.

Boshpanasiz yurgan Lir betob bo'lib qoladi, Kordeliya qizi buni eshitib, Fransiyadan keladi, tabib olib kelib, otasi Lirni davolatmoqchi bo'ladi.

Ikki opasi Goneril'ya va Reganalar otasiga va Kordeliya qo'shinlariga qarshi kurash olib boradilar. Lir va Kordeliya dushmanlar qo'lga asir tushib qoladi. Shunda xotin-qizlarga xos tuyg'u, hissiyot bilan Kordeliya opamlar bilan maslahat qilaylikmi, deb Lirga murojaat qiladi, ammo Lir rozi bo'lmaydi, Goneril'ya va Reganadan yordam so'rashdan ko'ra, qamoqxonada birga bo'lamiz, degan mard kishi so'zida turadi.

Cordelia

*We are not the first
Who, with best meaning, have incurred the worst.*

Lear

*So we'll live,
And pray, and sing, and tell old tales, and laugh
At gilded butterflies, and hear poor rogues
Talk of court news; we'll talk with them too. (p.364)*

Kordeliya (Lirga)

*Yaxshi ishlar qilmoq bo'lib taqdir qo'lida,
Jazolarga uchrashimiz birinchi emas.*

Lir

*Birga-birga avoqtada yashab turamiz,
Yaltiragan parvonalar tutib kulamiz,
Ko'cha-kuyda daydib yurgan darbadarlardan
Saroydagi axvollarni so'rab bilamiz (489-490 - betlar)*

Qirol Lir ham, qizi Kordeliya ham turmada o'ladilar. Oldin Kordeliyani osadilar, uni Lir eshitib, osganlarga la'natlar o'qiydi, keyin esa o'zi ham jon uzadi.

Lir ko'p murakkab obraz bo'lib, uning kuchli va zaif tomonlari bor edi. Hukmron, qirol bo'lganda u zaif edi, chunki haqiqatni ajratolmas edi. Gadoy holiga tushgan Lir haq va nohaqlikni farq qiladigan ma'naviy kuch kasb etadi. O'zini erkin his qiladi. Taxt ham, baxt ham endi unga yot bo'lib ko'rinadi. Uning xarakterida yuz bergan bu o'zgarish katta qizlariga nafrat bilan qarashdagina emas, balki kichiq qizi Kordeliya oldidagi gunohidagi iqrar bo'lishida ham ko'rinadi. Lir

obrazi Shekspirga ziynat va aysh-ishrat ichida dabdabali hayot kechirayotgan bir to`da kishilar va ular qarshisida gadoylikda yashayotgan son-sanoqsiz xalq ommasining azob-uqubatlarini ko`rsatib, ulug` gumanistik g`oyalarni ifodalashga katta imkoniyat beradi.

Tug`ilib kelayotgan kapitalistik munosabatlar, boylikka - o`chlik, kishilar o`rtasidagi eng kuchli aloqalar – qardoshlik, oila va birodarlik aloqalarini ham yemirib tashlaydi. Shuning uchun insonparvarlik g`oyalarini tashuvchi ijobiy obrazlarni Shekspir dunyoparastlikdan xoli bo`lgan kishilar qilib ko`rsatadi. Bu jihatdan kamtar, dono, go`zal, sof ko`ngil jasoratli qiz Kordeliya obrazi ayniqsa jozibalidir. Garchi u tragediya oxirida halok bo`lsa ham, lekin Kordeliya himoya qilgan haq ish pirovardida tantana qiladi. Yovuz niyatli kishilar mag`lubiyatga uchraydilar. Bu asarning optimistik ruhidan dalolat beradi¹.

Tarjimashunos, adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor, O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan fan arbobi G`aybulla Salomov shunday yozadi:

«Keksa qirol Lir taxti va tojidan voz kechganidan so`ng, toshbag`ir, qattol qizlari Goneril`ya bilan Regananing quvg`ini ostida, o`z ayonlari bilan dashtu sahrolarda darbadar kezib yurarkan, uning shamol, jala, momoqalldiroqqa yuzlanib, ularni «Ko`rnamak odamlarning naslini quritish» ga da`vat etishi nihoyatda ta`sirchan. Zabtiga olayotgan barcha tabiiy ofatlar odamlar hayotida sodir bulayotgan fojeaga tabiiy bo`yoq berishga, yanada chuqurlashtirishga xizmat qilayotganday tuyuladi. Insonning fe`l atvori, qiyofasi, qiliq-harakatlarini tabiiy hodisalarga o`xshatish ma`lum. Lekin Shekspirda aks holat ko`zga tashlanadi: Tabiat hodisalariga insoniy ma`no beriladi».

O`zbek yozuvchilari ana shu xislat – tasvirda tabiiy hodisalarning insoniyligi va insoniy hodisalarning tabiiyligi mahoratidan juda ustalik bilan foydalanadi².

qirol Gamletning o`limi qismatini ko`z oldimizga keltiraylik. Qirolning xotini Gertruda qirol Gamlet ukasi Klavdiy bilan kelishib, suyuqasd uyushtiradilar.

¹ О.Қаюмов Ўша асар, 210-бет

²Саломов Ғ.. Таржима ташвишлари. Т., 1983. 161-бет

Bu fitna, suyuqasd ularga shuning uchun kerak ediki, Gertruda ayol kishi, boshida eri bor – qirol Gamlet. Gertrudada davlat bor, boylik bor, faqat unga endi yoshroq er – qirol kerak edi. U ham yosh er bo`lsin, ham davlat boshlig`i bo`lsin. Anna shu maqsadda Klavdiy bilan kelishadi. Klavdiyga bu suyuqasd nima keragi bor? Agar qirol Gamlet vafot etsa, marosxo`rlik qoidasiga asosan shaxzoda Gamlet (qirol Gamlet o`g`li – Gamlet) qirol bo`lishi mumkin edi, Klavdiy emas. Ana shu maqsadda ya`ni Gertruda va Klavdiyga ham baxt, ham taxt kerak edi, uni adolatsiz, hiylakorlik, fitnachilik kabilardan foydalanib amalga oshiradilar. Ular Qirol Gamletni o`ldirmadilar, go`yo u bog`da uxlab yotganida ilon chaqib o`ldirganmish. Bu esa – yolg`on, bo`hton, tuhmatdan iborat edi. Qirol Gamlet bog`da uxlab yotganida uning qulogiga kislota quyib o`ldiradilar. Buni Gertruda va Klavdiylar yashiradi, aytmaydi. Qirol Gamletning o`g`li shaxzoda Gamlet buni otasi arvohi so`zlaridan bilib oladi.

*Ghost. I am thy father's spirit;
But this eternal blazon must not be
To ears of flesh and blood: - List, list, o list! –
If thou didst ever thy dear father love, -*
Hamlet. O, heaven!

Ghost. Revenge his foul and most unnatural murder.¹

Bir kechasi Xorotsio, Marsell postda turgan paytida arvoh keladi, gapirmay ketadi. Bu voqeani ular shaxzoda Gamletga aytadilar. Ehtimol, arvoh shaxzodaga gapirmoqchidir, degan xayol bilan Gamletga aytadilar. Arvoh yana kelganda shaxzoda Gamlet ham pastda turadi, shaxzoda Gamletni orqasidan yur, degan imo-ishora bilan ergashtirib bir o`ziga aytadi. Mening qotilim aniq, uni senga aytaman, sen undan o`ch olasan deydi.

*Arvoh
Otangning arvohiman men.
Va lekin abadiyat shunday sadokim –
Dunyoiy quloqlargacha etmogi mahol.
Sen otangni biron vaqt chin sevgan bo`lsang*

¹ William Shakespeare. Tragedies. New Lanark, 2006. p.158.

Meni tingla, xub tingla, tingla!

Gamlet

Yo rabbiy!

Arvoh

Meni ablax o`ldirgan. Qasosimni ol.

(34-35-betlar)¹

Qirol arvohi shaxzoda Gamletga hali asosiy sababni, qotilni aniq aytmaydi, avvalambor shaxzoda diqqatini bir nuqtaga tortib oladi, ularni jamlaydi. Undan keyin esa, shaxzoda qirolning o`chini olishiga, otasi qasosini olishiga ishongandan keyin o`z qotili kimlar ekanini so`zlab beradi, o`g`li shaxzoda g`azablangani, ota uchun qayg`urgani qirol Gamlet arvohiga ayon bo`ladi, Shaxzoda Gamlet: Uchu chay, tezroq gapir deydi. Shunda arvoh ochig`ini aytadi.

Ghost

But, soft! Me thinks I scent the morning air;

Brief let me be: - sleeping within mine orchard,

And in a most instant tetter barke about,

Most lazer-like and loathsome crust,

All my smooth body.²

Arvoh

Azmingni ko`rib turibman.

So`zlarimdan qonlaring jo`shga kelmasa –

Endi bilgin, ey mening oliyzot o`g`lim,

Ilon – otang qotili, - bugun bemalol, -

Uning tojin kiyibdir.

Otasi arvohidan hamma gapni bilib olgandan keyin shaxzoda Gamlet sahnada “sichqon kopqoni” p`esasini qo`yadi, unda qirol Gamlet bog`da uxlayotgan paytda uning qulog`iga zahar quyib o`ldirgani tasvirlanadi. Bu tomoshaga yangi qirol (Klavdiy), malika (shaxzoda Gamlet onasi Gertruda)lar taklif qilinadi. Shaxzoda qirol va malikalarning voqeaga bo`lgan taasurotlarini kuzatishni tayinlaydi.

¹ Вильям Шекспир. Пьесалар. Т.1960, 34-35-бетлар. Кейинги узбекча мисоллар ушбу китобдан олинган.

² William Shakespeare. Tragedies. New Lanark, 2006. p.158. Кейинги инглиз тилидаги мисоллар ушбу китобдан олинган.

Hamlet. *Madam, how live you this play?*
 Queen. *The lady doth protest too much, me thinks.*
 Hamlet. *O, but she'll keep her work.*
 King. *Have you heard the argument?*
Is there no offence in 't?
 Hamlet. *No, no, they do but jest, poison in jest?*
No offence I' the world.
 King. *What do you call the play?*
 Hamlet. *The mousetrap. Marry, how? – tropically.*

This play is the image of a murder done in Vienna: Gonzago is the duke's name; his wife, Baptista; you shall see anon; 't is a knavish piece of work; but what of that? Your majesty, and we that have free souls, it touches us not; let the galled jade wince; our withers are unwrung. (p.176)

Gamlet: *Malika xonim, qalay, p`esa sizga yoqdimi?*
 Malika: *Menimcha, xonim va`daga haddan oshiq saxiy*
 Gamlet: *Ha! Lekin va`dasida turar.*
 Qirol: *Siz p`esaning mundarijasini bilasizmi?*
Unda hech qanday fisqu fujur yo`qmi?
 Gamlet: *Yo`q, yo`q. Bu hammasi hazilakam. Zaharlash ham hazil.*
Fisqu fujurmi? Yo`q, unaqasi yo`q.
 Qirol: *P`esaning nomi nima?*
 Gamlet: *“Sichqon qopqoni”, ma`nisimi? KinoYaviy bo`lsa kerak.*

Bu p`esa Venada sodir bo`lgan bir jinoYatni ko`rsatadi. Hozir o`zingiz tomosha qilasiz. Bu g`oYatda qabih bir nayrangni ko`rsatadi. Lekin siz bizga baribir! Zoti oliyingiz bilan bizga, vijdonlarimiz pok bo`lgandan keyin buning nima daxli bor. Harish ot bezovta bo`lsin, bizga nima? Biz pinagimizni hech buzmaymiz.

(92-93-betlar)

Bu o`rinda shaxzoda Gamlet onasi Gertruda bilan gaplashganda (sahnadagi malika) boshqa er qilmaslikka katta va`da bergandi. Shaxzoda o`sha so`zlarga urg`u berib “ha, lekin va`dasida turar” deb kinoya qilgan edi. Bu esa shaxsan malika Gertrudaga tegishli edi, u eri o`lganda endi boshqa er qilmasligi kerak edi, sahnadagi malika so`ziga rioya qilib. Ammo u va`dasini buzadi, er qiladi. Bu o`rinda qirol ham (Klavdiy) xavfsirab qoladi, fis`u fujur yo`qmi deb so`raydi.

Endi sahnada uxlayotgan qirol qulogiga zahar qo`yish qismini eslaylik.

Hamlet
This is one Lucianus, nephew to the King.

Lucianus

Thoughts black, hands apt, drugs fit, and time agreeing;
Confederate season, else no creature seeing!
Thou mixture rank, of midnight weeds collected.
With Hecate's ban thrice blasted, thrice infected,
Thy natural magic and dire property
On wholesome life usurp immediately.
(Pours the poison into the sleeper's ears)

Hamlet. He poisons him i' the garden, for his estate. His name's
Ganzago, the story is extant, and written in very choice Italian. You
shall see anon, how the murderer gets the love of Gonzago's wife.

Ophelia. The King rises.

Hamlet. What, frightened with fals fire!

Queen. How fares my lord?

Poloniy. Give o'er the play.

King. Give me some light away!

(p.176-177)

Gamlet

Mana bu – Lutsion degani bo'ladi. U qirolning jiYani.

Lutsion

Qo'l – zabardast, did – siyox, ko'p o'tkir og'u,

Hech kim ko'rmas, ko'p kulay bir fursatdur bu.

Oqib-oqib to'kilgin, bergin jazosin,

Gekata ma'budasi tez mamnun bo'lsin.

Giyohlarda bor bo'lgan zahar va ziyon

Bu vujudni quritib yo'q qilsin shu on

(Uxlayotgan kishining qulog'iga zaharni qo'yib yuboradi)

Gamlet

U, gersogning toji taxtini egallash qasdida uni bog'chada zaharlaydi.
Gersogning ismi – Gonzago. Bu voqea to'g'risida ital'yanacha ravon qissa ham
yozilgan. Endi, qotil qanday qilib Gonzago xotinining muhabbatiga muyassar
bo'lishini tomosha qilasiz.

Ofeliya

Uni qarang, qirol o'rnidan turdi.

Gamlet

Qarsildoqlardan cho'chidimi?

Malika

A'lohazratlariga nima bo'ldi?

Poloniy
To`xtating tomoshani!
Qirol
Chirog tuting, tashqariga chiqaring meni!
(93-94-betlar)

Qirol Gamletning arvohi aytgandiki, amaking Klavdiy shishada zahar ushlab, bog`chada uxlaganida uning qulogiga zahar quyganini. Qirol Gamlet qotillari Klavdiy, Gertrudalar ekanligi isbotlandi.

V. Shekspir "Gamlet" fojiaiy asarida bosh qahramonlar halok bo`ladi; qirol Gamlet ham va shu bilan birga xoinlik qilgan, fitna uyushtirgan Klavdiy va Gertrudani ham jazolamay qo`ymaydi. Ofeliya akasi Laert bilan shaxzoda Gamlet qilichlashganda charchaganidan suv so`raydi, deb Gertruda shaxzodaga zahar solingan kosada suv tayyorlab turgan edi, kurashda shaxzoda g`azabidan qo`rqib qolgan Gertruda suvni bilmasdan o`zi ichib o`ladi. Shaxzoda Gamlet va Laert ham zaharlangan qilichda yaralanib o`ladilar, lekin Gamlet o`lmasdan oldin hamma jinoyatlar sababchisi Klavdiy ekanini aytadi, Gamlet o`lishidan oldin Klavdiyni yarador qiladi, u ham o`ladi. Bo`lgan voqeani xalqqa so`zlab berishni Gamlet do`sti Goratsioga tayinlaydi.

Laert
Dalil qo`lingda!
Gamlet, sen o`ldirilding, senga da`vo yo`q.
Hayotingning muhiti Yarim soatga,
Dalillari qo`lingda. U tig zaharli.
Bu fe`limdan o`zim ham bo`larman halok,
Malika yo`q. Yo`q mador ko`p so`zlashimga,
Hammasiga aybdor qirolidir, qirol!

Gamlet
Ha... qilichga ham zahar surkalganmi, ha?!
Qani zaharli shamshir, joyingni topg`il!
(Qilich bilan qirolni Yaralaydi)
Hamma

Xiyonat!

Qirol
Hay, do`stlarim, qutqazing meni!
Faqat jarohat yedim. Hali najot bor!

Gamlet

*Bo`lmasa ol, soxtakor, odamxo`r jallod!
O`z injungni may bilan bir yutib ko`r-chi!
Bor onamning yoniga!
(qirol o`ladi)*

Gamlet

*Goratsio, hamma ish tamom,
Sen-ku tirik. Bu ishdan bexabarlarga
So`ylagin men to`g`rida bor haqiqatni*

.....
*O`ylashimcha Fortinbars qirol bo`lg`usi
Men ham ovozimni unga beraman
Unga batafsil aytgin bu mojaroni
Keyin esa jim, sukut!*

(o`ladi).

Demak, qirol Lir va qirol Gamlet fojealari, qismatlari bir xil. Har ikki qirolni ham o`z yaqinlari halok qilganlar. Toji-taxt, boylik uchun kishilar, hatto o`z qarindosh-urug`laridan ham voz kechar ekanlar.

V.Shekspir asarlari tarjimalari bilan tanishgan va ularni yaxshi o`rgangan o`zbek yozuvchilari ham o`z araslarida qirol Gamlet, qirol Lir obrazlariga o`xshash tiplarni yaratganlar. Tarjima asari deganda, albatta, har bir asar voqeasi sodir bo`lgan davr tarixiy, ijtimoiy hodisalarni yaxshi o`rgandan keyin sifatli tarjima asarlari paydo bo`ladi.

«Hozirga biron-bir adabiyotda tarjima tarixi bo`yicha fundamental tadqiqotlar yaratilgan emas. Holbuki, badiiy ijodning ko`p tomondan o`rganilmagan bu tipini tarixiy-adabiy jihatdan yoritmay turib, adabiyot tarixini o`rganish mukammal bo`lmaydi»¹.

Shekspir asarlaridek asarlar Yaratish, obrazlar tanlash o`sha asar davri ya`ni tarixiy-adabiy tomonlarini yaxshi o`rganganlari uchun M.Shayxzoda va Odil Yoqubovlar Sulton Ulug`bek (Samarqand hokimi) obrazini yaratishga muvaffaq bo`ldilar. Shoh Ulug`bek tarixiy fakt, Shekspir asarlari esa adabiy-badiiy faktlar. Tarixiy fakt adabiy to`qimalarda ifodalangan.

¹Левый Иржи. Искусство перевода, М., 1974, с.231.

Shoh Ulug`bek qismati, uning fojeaviy o`limi ham qirol Gamlet, qirol Lir taqdirlariga mushtarak. Uni ham fitnachilar, suyuqasdchilar o`ldiradilar, ularning hech biri o`z ajali bilan o`lmaydi.

Qalbimizda achinish hissining paydo bo`lish sababi shuki, fojea muallifi bosh qahramon sifatida Ulug`bekka nisbatan bizda ehtirom va hurmat tuyg`usini uyg`otadi. To`g`ri, Ulug`bek – podsho, u ham hamma podsholar qatori xalqqa ma`lum zulm o`tkazgan, jangu jadallar olib borgan. Uning davrida ham yurt butkul obod, xalq hayoti farovon bo`lib qolgan emas. Aksincha, Ulug`bekning Abdullatif oldida ojiz bo`lib qolgan sabablaridan biri bu oddiy xalq uning himoyasiga chiqmaganligida edi. Oddiy xalq podsholik, amrlik, qozilik oldida qo`rqoq, hali uyushmagan, bir-biri bilan sirdosh bo`lib ish ko`rish xayolida ham yo`q, oddiy xalq haddan tashqari ruhi tushgan, ojiz edi.

Sulton Ulug`bek faoliyatining ikkinchisi – uning ma`rifatparvarligidir, olim va fozil kishi bo`lganligidadir. Bunday nodir xislat temuriylarning aksariyatiga xos edi: Ulug`bek – sulton va munajim olim, Husayn Boyqaro – shoh va shoir, Bobur – imperator va buyuk shoir.

Ulug`bek Mirzo qirq yil taxt tebratgan va qilichi qo`lidan tushgan emas. Lekin asar qahramoni hukmronligi uchun emas, yulduzlar bilan til topishganidan, o`z qo`li bilan rasadxona yaratib, bir ming ikkita yulduzning joylashish o`rnini belgilab chiqqanligi, o`nlab fidoyi shogirdlar tayyorlaganidan ko`ksi faxrga to`ldi. U qilich kuchiga emas, ilm-ma`rifat kuchiga, dunyoni kuch emas, go`zallik o`zgartirishi mumkinligiga ishonadi.

Shoh Ulug`bekka fitna uyushtiriladi, kimlar buni bajaradi, xuddi shahzoda Gamlet onasi Gertruda suyuqastda qatnashganidek, Ulug`bek onasi Gavharshod ham bosh fitnachilardan bo`ladi, Ulug`bekning o`g`li Abdullatif, din peshvosi hisoblangan Xo`ja Ahror valilar qatnashadilar.

Gavharshod Ulug`bekka qarshi suyuqasd, fitna uyushtirish uchun Hirotdan Samarqandga keladi.

Abdullatif

*Men sultonga farzandmanu, u – sizga farzand.
Ammo bizga toju-taxtning taqdiri afzal.* (95-bet)

Gavharshod

*Tushunaman kichik Mirzo. Barcha gap ravshan
Tarbiyamni xo`b oqlabsiz... Men sizdan rozi. (sekin)
Bilasizmi? O`zaro sir... Nedir xaloyiq?
O`ylashimcha Temur toji sizga xo`p loyiq*

Abdullatif

*Oh, bibijon, aytganingiz kelsin yorabbim!
Qachon sulton tojini men qo`ysam boshimga,* (96-bet)

Gavharshod

*Ko`z cho`g`idek asrab boqdim Abdullatifni.
Dono, jasur, olijanob, fahmli, zakkiy,
Diyonatli, mo`min, mute, asl musulmon.
Shu talabni eslatgani keldim Hirotdan.*

Ha, shularga odatlangan Gavharshod begim. (99-bet)

Gavharshod, Abdullatif va Xo`ja Ahror fitna uyushtirmoqchi ekanlarini, ularning birlashib, Ulug`bekni og`darmoqchi ekanini Gavharshod so`zidan bilsa bo`ladi:

Gavharshod

...

*Yana davlat sohibasi bo`larman o`zim.
Xo`ja Ahror menga yozib yuborgan xatda
Ulug`bekning dinga xilof xulqin qoralar,
Qarang, mendan ko`mak kutar eshonning o`zi.*

Endi aniq bo`ldiki, Gavharshod, Abdullatif va Xo`ja Ahror til biriktirgan Ulug`bek dushmanlaridir.

Yana Gavharshod

*Ulug` Mirzo, bu saltanat Temo`rniki.
Unga voris Shohruh Mirzo bo`ldi, otangiz.
Otangizdan keyin Temur xonadonida
Yoshi ulug`, fikri to`lug` men – volidangiz.*

Demak, Gavharshod o`zini Amir Temurdan keyin Shohruh va undan keyingi avlod menman demoqchi. Temur saltanatida hozir mendan ustun kishi yo`q, hamma menga itoat qilar, degan maqsadda Ulug`bekka uqtirmoqchi bo`ladi, ammo Ulug`bek bu so`zlarga rad javobini beradi:

Ulug`bek

Ha, chindan ham sizni yaxshi bilmas ekanman.

*Onalikning haqi, ammo, bor bo`ynimizda.
Biroq, hurmat – ko`r-ko`rona itoat emas.
Taajubki, sizda shuncha zakovat boru,
Boshqa hamma xotinlarni pastga urasiz.
Axir siz ham ayollarning vakilasi-ku.
O`g`lingizman va o`paman qo`llaringizni,
Tiz cho`kmakka odamman huzuringizda.
Ammo, shu yurt sultoniman, hukmdoriman,
Bu o`lkaning taqdiroti menga havola.
Aralashmang bu davlatning ishlariga siz,
Hamma tadbir, buyruqlarga o`zim javobgar.
Siz – malika, biling, emas hokim! (99-100 - betlar)*

Ulug`bek bu o`rinda to`g`ri qaror qabul qilgan. O`z onasi ham uni davlat hokimligi, saltanatga maslahatchi rahbar bo`lishini xohlamaydi, chunki uning kirdikorlarini yuqoridagi monologi bilan Ulug`bek fosh qilib tashladi. Bu qarori bobosi Amir Temur fikriga mos edi. Ba`zi manbalarda Amir Temur o`z o`rniga kimni tayinlashda o`ylanib qoladi, lekin xotin kishi – Gavharshodni emas.

«Temurning vorislaridan baxti yo`q edi. Jahongir deb ot qo`ygan to`ng`ich o`g`li yigirma yoshga kirmasdanoq jangda halok bo`lgan, ikkinchi o`g`li Umar Shayx esa tog`da o`z yurtini himoya qilgan bir kurdning o`q-yoyidan o`lgan, faqat Mironshoh bilan Shohruh qolgan edi. Bo`larning ham biri aqldan ozgan Mironshoh, xasta, ikkinchisi esa Hirotda, odamlarning aytishicha, tarki dunyo qilib, riyokor ulamolar, shayxlar va darveshlarni atrofiga to`plab, tunu kun umrini machitda o`tkazar edi. U jangu jadallarga qatnashmas, davlat ishlariga aralashmas, hamma ishdan qo`lini yuvib, qo`ltig`iga urgan, Hirotda barcha ishni uning sevimli xotini, Ulug`bekning onasi Gavharshod boshqarar edi. Xo`sh, endi mamlakatga ayol kishini hukmdor qilib qoldirsinmi? Bu axmoqlik bo`ladi-ku!»¹.

Bobosi Amir Temur ham, Temurning jiyani hokim Ulug`bek ham ayol kishining taxtga egalik qilishiga, davlat ishlarini boshqarishga rozi emas edi. O`sha davr ijtimoiy-siyosiy ahvol, davlatni idora qilish usuli ayol kishining hokim bo`lishiga to`g`ri kelmas edi, chunki kecha-kunduz urush, u yerdan bu yerga qo`shinlar tortib yurish, erkak – hokimning ishi edi.

¹Голубев Г. Улугбек. Т. «Ёш гвардия», 1962, 22-бет.

Ikkinchidan, adolatli, xoksor, xudbin bo`lmagan davlat xaloyiq taqdirini o`ylaydigan kishi bo`lishi kerak edi. Gavharshod begim Temur avlodidan bo`lsa ham, yuqoridagi talablarga javob bermas edi, buni Ulug`bekning «siz onasiz, qo`lingizni o`pamiz, ammo davlat ishlariga aralashmang, buyurmang, maslahat bermang, siz – hokim emassiz», degan mazmundagi monologi Gavharshod kabi ayollarning davlat hokimligiga da`vosiga javobi edi.

Bunday holat shahzoda Gamletda ham bo`lgan edi. Onasi Gertrudaning amakisi Klavdiy bilan gap biriktirib, taxtga, baxtga intilishiga shahzoda Gamlet qarshi edi. Onasi faoli tufayli shahzoda Gamlet butun ayol zotini bu masalada qoralaydi.

Gamlet

...

O`lganiga ikki oy to`lgani ham yo`q.

Ana podshoh! Quyoshning yorqin shu`lasi.

Unga qiyos etilsa – bu past bir hayvon.

U onamni shunchalik sevar ediki,

Qizg`anardi chehrasin shamollardan ham.

Faryod sendan ey falak! Eslab ne qilay!

Onam shuncha mavtundi marhum otamga,

Chanqoqligi oshardi qoniqqan sayin.

Ammo bir oy o`tmasdan! ...Bas endi bu gap!

Oh xotinlar... nomingiz – bevafoqlikdir!

(Gamlet, 19-bet)

Samarqand shahri qamalga olingan, beboshlik hukmini surmoqda, Ulug`bek dushmanlari tobora podsho manziliga yaqinlashmoqda «Shunda Ulug`bek o`z yaqinlari (Shayxul-islom-ulamo, Abdurazzoq – tarixchi, Bek Arslon – Sardor, Ali Qushchi – Ulug`bek shogirdi, mahrami – yordamchisi, Sakkokiy – shoir, Devonbegi – Sulton ifodasi boshlig`i) bilan maslahatlashadi, ular fikrini olib, oxirgi qarorga kelishni o`z zimmasida qoldiradi».

Ulug`bek
Hammangizning ra`yingizni tingladim, do`stlar
Hammangizga astoyidil arzi-tashakkur! (172-bet)

Ulug`bek Amir Temur qabriga kelib, o`z ko`nglidagi gaplarini arz qilib aytadi.

Ulug`bek
Bobo Temur, omonating saqlayolmadik.
Avlodlarning chiqib qoldi g`oyat noqobil.
Bobo Temur, tirigingda o`zing va so`zing
Ulkanlikda sig`mas edi shu yer yuziga.
Endi nega maydalandi Temur urug`I (173-bet)
Temur arvohi
Sipohiylik rasmlarin qilmayin pisand,
Yulduzlarning qo`shiniga bo`lding farmondor.
Osmoniy o`lkalarni olmoqchi bo`lib,
Yerdagi naqd diyoringni boy berding qo`ldan. (174-175 - betlar)

Temur arvohidan bilib oladiki, Ulug`bekka qo`yilayotgan tashhis (difnoz) shuki, u ilm-ma`rifatga berilib, davlat ishlari bilan kam shug`ullanganlikda. Ikkinchidan, Xiroj, Xiroson tomonda uning onasi Gavharshod begim hokimiyatga talabgor edi, u o`z huquq va erkini saqlab qolish uchun sultonlikka Abdullatifni o`tkazmoqchi ekanini yuqoridagi monologlarda ko`rib o`tgan edik. Ulug`bek onasi Gavharshodni bir necha bor qaytarib tashlagandan keyin, u Yanada achinib, Abdullatif bilan xo`ja Ahrorning Samarqandga qo`shin tortib kelishini tezlashtiradi. Bir tomondan, saltanatning qo`ldan ketishi Ulug`bekning ilm-ma`rifatga ixlos qo`ygani ham biroz sabab bo`lgan bo`lsa, ikkinchidan, fitnachilarning uyushib tez hatti-harakatlari asosiy sabab bo`lgan.

Shahzoda Gamlet ham otasi qotilini aniqlashda otasi arvohi orqali ish ko`rgan edi. Shunga qarab shahzoda Gamlet o`z rejalarini amalga oshiradi.

Ulug`bek ham oldin o`z atrofi bilan maslahtlashadi, bobosi qabriga borib, uning arvohi orqali davlatni qo`ldan boy berganini bilib oldi. Endi hech qanday qon to`kish qilmasdan, vayronagarchilik qilmasdan taxtdan voz kechishga qaror qiladi, taxtni endi ushlab turolmaydi, nailoj.

Ulug`bek tomirida oqqan Temur qoni, hukmdorlik barcha bilan qalbidagi insonparvarlik va ma`rifat tinimsiz shiddatli to`qnashuvda Yashaydi. Bu ichki kurash unga azob beradi, yuragini ikkiga bo`ladi. Umr buyi ana shu ikki qutbni kelishtiraman, ularni bir-biriga xizmat qildiraman, deb harakat qildi, lekin bu harakatning behuda ekanligini umrining so`nggidagina sezadi.

*Ulug`bek
Amir Temur himmatidin Ulug`bek so`zim:
Birodarlar, eski do`stlar, og`ir bo`lingiz!
Balki, bunga kengash bergan janoblarga ham
Bu qarorim tuyo`lgusi nogoh balodek.
Men – taxtimdan voz kechmoqqa jazm etdim bugun. (179-bet)*

Qirol Lir o`z taxtini qizlariga o`z ixtiyori bilan taqsimlaydi, u atrof-muhit bilan maslahatlashmaydi, lekin kelgusida ahvoli qanday bo`lishini o`ylamay, avvalgidek izzat-hurmatda yashayman degan maqsadda o`z postidan qirollikdan voz kechadi. Unga sabab qirolning qariligi, davlatni boshqarishdek tashvishlardan uzoqroqda bo`lish edi.

Ulug`bekning taxtdan hokimiyatdan voz kechishi ixtiyoriy emas, u majbur bo`lib shu ishni qiladi, Ulug`bekning oliyjanoblighi shuki, xalq shunday ham ezilgan, qahatchilik, buning ustiga ularning yana urushga solish, yana qon to`kishdan saqlab qoldi, fitnachilar Abdullatif, Xo`ja Ahror, qozi Miskinlar guvohida Ulug`bek Amir Temur bobosidan merosi bo`lgan oltin tojni boshidan olib qo`yadi.

Ulug`bek Samarqanddan ketish uchun bir qishloq, Ota Mirofning hovlisida tunaydi. U yerda fitnachilar bergan xanjar bilan Ulug`bekni Abbos yaralaydi, o`ldiradi.

Ko`rib turibmizki, uch qirol, uch podsho o`limi bir xil ya`ni fitnachilar uyushmalari orqali amalga oshirilgan. Bu mushtaraklik asarlar voqealari sodir bo`lgan davr, makonlardagi sharoitlarning mushtarakligidir. XVI asr Shekspir davridagi voqealar XIV asr Movarounahrda ham bo`lib o`tadi. Shuning uchun Shekspirdan M. Shayxzoda va O. Yoqubov ta`sirlanib, o`z asarlarini bunyod etadi, bu mushtaraklik ijtimoiy tuzum voqealari o`zbek yozuvchilariga qo`l keladi.

1.2. Ingliz va o'zbek yozuvchilari asarlaridagi ijobiy obrazlar qismatining mushtarakligi

V.T.Belinskiy ta'biri bilan aytganda «Gamlet - dramatik shoirlar shohi boshidagi nurafshon toj o'rtasiga qadab qo'yilgan eng porloq gavhardir»¹.

Fojeaning bosh qahramoni Daniya qirolining o'g'li shahzoda Gamletdir. Otasining munofiqlona o'ldirishidan ko'p o'tmay, onasining motam kuni «oyoqqa kiygan boshmog'i» to'zimasdanoq otasi taxtini egallagan Klavdiyga tegib olishi Gamletdek shahzodani cheksiz azob girdobiga tashlaydi. Uning ko'ziga butun dunyo tor, bema'ni va tumtoq ko'rinadi.

Otasining qotili o'z amakisi Klavdiy ekanini (ota arvohi orqali) aniqlaganidan so'ng, shahzoda Gamletning qayg'usi yana oshadi. Ukaning akani o'ldirishi, uning ham taxti, ham baxtiga tajovuz qilish kabi benihoyat og'ir jinoyatga chidash mumkin emas edi. Shuning uchun Gamlet Klavdiyning jirkanch qiyofasi, munofiqligini fosh etib, undan qasos olish o'z zimmasiga tushganini anglaydi. V.G.Belinskiy aytganidek, endi unda «bolalik garmoniyasi» belgilari barham topadi. Kutilmaganda yuz bergan bu dahshatli voqealar uni adolatsizliklar va buzilgan mudhishga qarshi kurashga otlantiradi. U uzoq vaqt o'zi bilan, o'zidagi chigal, murakkab xayol va tushunchalar bilan kurash olib boradi. O'z boshiga tushgan g'am-g'ussa uni boshqalar baxtsizligini anglashga ham majbur etadi. Shaxsiy iztirob insoniyat qayg'usi oldida o'z ahamiyatini yo'qotadi. Aks holda, u badbaxt Klavdiydan allaqachon qasos olgan bo'lar edi. Lekin Gamlet shaxsiy o'ch olishdan oldin boshqa ko'p muhim masalalar ustida bosh qotirishi, ularning mag'zini chaqib ko'rishi kerak edi. Gamlet sust, faoliyatsizdek bo'lib ko'rinsa ham haqiqatda u passiv kishi emas. Tushunadigan keskin qarama-qarshiliklar, bir tomondan, otasining yovuzlarcha o'ldirilishi, ikkinchi tomondan,

¹Белинский В.Г.. Сбop. соч. Москва, 1953, Т.II, стр.255.

Klavdiy saroyiga bo'layotgan buzg'unchiliklar va boshqa qabohatlar uni jiddiy o'ylashga majbur etadi.

Gumanist Gamlet o'rta asr qasoschisiga ham yoki zamondoshlari Loert, Fortinbrasga ham sira o'xshamaydi. Ular qancha qon olish bilan cheklanadilar, lekin Gamlet haqoratlangan inson uchun o'ch olishni istaydi. Gamlet qotilni, garchi undan kuchli himoya vositalari bo'lsa ham, o'ldirish uchun imqoniyat topa olar edi. Masalan, Klavdiy ibodat qilayotgan vaqtda Gamlet o'z burchini bajarishi mumkin edi. Lekin u bunday qilmaydi. Chunki Gamlet qo'qisdan va munofiqona yo'l bilan emas, balki hech kimda shubha qildirmaydigan yo'l – ochiq kurash yo'li bilan qasos olishni, qotilni jinoyat ustida ushlab jazolashni istaydi. Klavdiyning jinoyatiga o'xshab ketadigan voqeani ko'rsatadigan «Sichqon qopqoni» (mousetrap) o'yinining sahnaga qo'yilishi Gamlet maqsadlarining amalga oshishiga imkon beradi. Qabih xiyonat ochiladi

Lucians

*Thy natural magic and dire property
On wholesome life usurp immediately.
(Pours poison into the sleeper's ear)*

Ophelia

The king rises

Poloniy

Give o'er the play

King

Give me some light, away! (pp. 176-177)

Lutsion (qirol jiYani)

Gekata ma'budasi tez mamnun bo'lsin.

Giyohlarda bor bo'lgan zahar va ziyon

Bu vujudni quritib yo'q qilsin shu on

(Uxlayotgan kishining qulog'iga zaharni quyib yuboradi).

Ofeliya

Uni qarang, qirol o'rnidan turdi

Poloniy

To'xtating tomoshani!

Qirol

Chirog' tuting, tashqariga chiqaring meni! (93-94 - betlar)

Tomosha sahnaga qo'yilganda qirol Klavdiy o'z rolini sezib qoladi, jinoyat ochilishidan xavfsiraydi, bu p'esa bizga yoqmadi, deb tomoshadan chiqib ketadilar.

Demak, Gamlet mazkur jinoyatni faqat ustida isbotlab, jinoyatchini aniqladi. Shuning uchun Gamletdek shahzodani olim, bilimdon, filosof, deb ham atashgan. Olimlar har bir voqeani fakt bilan isbotlaydi, isbotlanmasa u ilmiy ish hisoblanmaydi.

Biroq shundan so'ng ham Gamlet dadil harakat etolmaydi, Yana xayoliy azoblarga ko'miladi. Uning bu voqtdagi vaziyati mashhur «Hayot yoki o'lim» monologida ochiq aks etgan:

Hamlet

*To be, or not to be, that is the question:
Whether 'tis nobler in the mind to suffer
And makes us rather bear those ills we have,
Than fly to other that we know not of? (r.172)*

Gamlet

*Tirik qolmoq yo o'lmoq? Shudir masala!
Qaysi biri bulardan bizga munosib?
Noma'lum bir diyorga qochishdan ko'ra –
Bizga tanish baloga bo'lamiz rozi?... (77-78 - betlar)*

Shahzoda Gamlet juda qisilib qoladi. Otasining onasi va amakisi tomonidan o'ldirilishi va qirol saroyida bo'layotgan tartibsizliklarga chiday olmaydi, nima qilish kerak?, deydi o'zicha. Hammasini bir xanjarning tig'i bilan tamom qilish kerakmi? O'lib ketasan, shu bilan hayot tamom, lekin jamiyat tartibini kim to'g'rilaydi, o'lib ketganda, kim, qayerga borasiz, kim u yerdan qaytib kelibdi? Yo'q, noma'lum dunyoga borguncha, o'zimizga tanish olamga qaytamiz. Kishi o'zini-o'zi o'ldirmasligi kerak, oldindagi qarshiliklarni yengish uchun tirik qolib kurashmoq kerak, degan maqsadda mazkur monologini aytadi.

Gamlet shaxsiyati murakkab va ziddiyatli bo'lsa ham, lekin u bu savolga ijobiy javob berib, razolatga qarshi qo'zg'alish kerak, degan qarorga keladi.

Gamletni «devonalik niqobi» sirlarini anglagan fosiq xayol Klavdiy, boj undirish bahonasi bilan uni Angliyaga surgun qilib halok etishga urinish muvaffaqiyatsiz chiqqan, endi boshqacha nayrang ishlatishga o'tadi. Otasi va Ofeliyaning o'limiga Gamletni gunohkor deb ko'rsatib, Laertni unga qarshi undaydi (Laert Poloniy o'g'li, Ofeliya akasi). Gamlet qilichbozlik oldidan ishatilayotgan hiyla-nayrangni sezadi, endi u qat'iy janglardan va o'limdan ham qaytmaydi.

«Biz vahima va xurofotlardan baland turishimiz kerak, - deydi u do'sti Goratsiyga – chumchuq ham o'lsa, amri haq-la o'ladi. Agar to'lemizda bir ish hozir ro'yobga chiqish kerak ekan, demak, uni kechiktirib bo'lmaydi. Hozir bo'lishi kerak. Keyinroq bo'lmas ekan, demak, u ish bo'lmasa, baribir, nailoj bo'ladi. Shaylanib o'shani kutmoq kerak – masala ana shunda»¹.

Bundan ko'rinadiki, endi Gamletda na ikkilanish va na o'lim dahshati bor. U hamma vaqt dushmanga qarshi kurashga tayyor turadi. Laert bilan jang qilgan Gamlet o'ziga qarshi qaratilgan yangi xiyonatni angladi.

Zaharlangan tig' bilan og'ir yarador bo'lganida u tez harakat qilib, hamma jinoyatning sababchisi Klavdiyni qilich bilan urib o'ldiradi. Otasi uchun shaxsiy o'ch olish Klavdiy va uning buzilgan saroyidan o'ch olish kabi ijtimoiy konfliktgacha boradi.

Fojeali o'lim oldidan ham umidsizlikka tushmagan Gamlet Goratsioga vasiyat qilib, yuz bergan voqealar va butun haqiqatni odamlarga so'zlab berishni undan so'raydiki, bu bilan u haq ish uchun kurash hamisha eng zarur masala ekanini yana bir bor ta'kidlaydi.

Hamlet

O Villany! Ho! let the door be locked:

Treachery! seek it out

¹ В.Шекспир. Пьесалар. Т., 1960, 1640-165-бетлар.

Laertes

*It is here, Hamlet. Hamlet, thou art stain;
No medicine in the world can do thee good;*

,

Hamlet

*The point envenomed too! –
Then, venom to thy work (stabs the king)
Which have solicited – The rest is silence (dies) (p.203)*

Gamlet

*Xiyonat bor o`rtada! Aybdor kimdir?
Xoinni topmoq kerak.*

Laert

*Dalil qo`lingda?
Gamlet sen o`ldirilding, senga da`vo yo`q.*

Gamlet

*Ha... qilichga ham zahar surkalganmi, ha?!
Qani zaharli shamshir, joyingni topg`il! (qilich bilan qirolni
Yaralaydi)*

Unga batafsil aytgil bu mojaroni

Keyin esa jim, sukut! (o`ladi) (170-172 - betlar)

Tragediyada Gamlet Uyg`onish davrining yirik mutafakkiri sifatida namoyon bo`lib, chirigan feodal olami e`tiqodlariga qattiq zarba beradi «izga tushirish» ni o`z zimmasiga yuklatilgan burch deb biladi. Faqat qirol Klavdiyni o`ldirish bilan ish nihoyasiga etmasligini tushunadi, uning ko`ziga butun dunyo «unumsiz bir qoya» dek, ayniqsa «Daniya - zindon» bo`lib ko`rinar edi. «ha, buning ustiga – deydi Gamlet, - juda namunali bir zindon. U yerda behisob obxonalar, avaxtalar, gohlar borki, bulardan eng battarini Daniya deb ataydilar»¹.

¹ В.Шекспир. Пьесалар. Т., 1960, 59-бет.

Demak, Gamlet Uygʻonish ruhi bilan sugʻorilgan Shekspirning dramatik sohasi Yaratgan Yangi tipdagi kishi – adolat uchun kurashuvchi gumanist obrazidir.

Gamlet faqat jinoyatchini aniqlash va uni qasos olish uchungina intilmaydi. U saroy ahli egoizmi, monarx despotizmiga qarshi kurashish zarurligini ham anglaydi. Gamletning «Agar har kimning qilmishiga yarasha muomala qilinadigan boʻlsa, kishi tayoq yeyishdan qutila olar ekan»? – degan tanbehi, avvalo feodal absolyutizmini oʻzida mujassamlantirgan zolim Klavdiy va uning saroy ahillariga qarshi qaratilgandir.

Shunday oʻxshash tasvirlar «Mirzo Ulugʻbek» romanida ham uchraydi. Masalan, Bobo Kayfini Ulugʻbek zindondan ozod qilgan edi, hatto doim oʻzi bilan olib yuradigan, ichib yuradigan meshkakini ham toʻldirib Bobo Kayfiga beradilar. Lekin jar oxirida Xoʻja Ahror va Abdullatif doirasiga tushib qolganda ularga yoqmaydi, Xoʻja Ahror taklifiga asosan Abdullatif Bobo Kayfini yana zindonga soladi, shunda Bobo Kayfiy:

Zindonmi? Eh, u bizning oʻz xonamiz-ku...

Yoʻlni oʻzim xoʻp bilaman, ovora boʻlmang!

Ulugʻbek yoʻq, demak butun shahar zindan-da!

Emish-demish, emish-demish! Bay-bay-bay-bay

Buxoro quvvati islomi din ast,

Samarqand sayqali roʻyi zamin ast...

Bay-bay-bay-bay (197-bet)

Bobo Kayfiy mazkur baytni oʻtkir zaharxandalik va piching aralash gapiradi.

Shekspir insonning ijodkorlik kuchi va qobiliyatiga yuksak baho beradi. Gamlet tilidan u: Odamzod tabiatning naqadar ajoyib moʻjizasidir! Uning zehni naqadar olijanob, undagi qobiliyatlar nafaqat bepoyondir – deydi. Bu gapda Uygʻonish davri tipik kishisining insonga munosabati aks etgan.

Navbatdagi obrazimiz Otellodir. U oʻz jasorati bilan oq koʻngilli, oq tanli Dezdemonaning muhabbatini qozonadi. Otello botir, jasur sarkarda boʻlib,

davlatdan-davlatga sotilib yurgan, ko'p g'alabalari, qahramonliklari uchun u xalqlar o'rtasida bozori chaqqon tovarlardek qo'ldan-qo'lga o'tib yurgan. Uning nutqidan ham shu narsani bilib olish mumkinki, jangu jadallarda qatnashgan, tog'u-daralardan o'tgan botir inson bo'lgan. Buni u Dezdemona otasi Brabansio(senator) uyiga chaqirib suhbatlashganda so'zlab beradi. Brabansio qizimning boshini aylantirib, hiyla-nayrang ishlatib Otello uni olib ketdi, sharmanda bo'ldim, unga jazo chora ko'rishni davlat boshlig'i Dojdan iltimos qiladi. Otello bilan Dezdemona senatga chaqiriladi, Doj Otellodan qilgan gunohlarini aytishni talab qiladi, mana Otelloning senatdagi so'zi:

Othello

*Her father loved me; often invited me;
Still questioned me the story of my life,
From year to year; the battles, sieges, fortunes,
That I have passed,.....
This only is the witchcraft I have used, -
Here comes the lady, let her witness it. (p.383)*

Otello

*Qiz otasi meni sevar, chaqirar edi.
Hayotimda so'rar edi doim qissalar.
Hamma jangu jadal, qamal, harbiy yilma-yil
Ishoratni fahmladim, ishqimni aytdim.
Jafolarim hurmat-chun u meni sevdi. (196-197 - betlar)*

Otello qalbida shubha tug'ilib, Dezdemonaga ishonmay qo'ygan kezlarida ham, uning yoriga bo'lgan muhabbati va samimiyligi saqlanadi, Dezdemonaga azob berishni istamaydi. Chunki Otello tabiatan rashkchi emas, balki ochiq ko'ngilli inson edi. Uning Dezdemonaga bo'lgan shubhalari yagoning nayranglari tufayli paydo bo'ladi.

«Otello tabiatan rashkchi emas, - deb ta'kidlagan edi A.S.Pushkin, - aksincha u ishonuvchan»¹ dir. Otello rashk qilishga uncha moyil emasligini uning xarakteridan bilsa bo'ladi. Dezdemona ham yo'qotgan ro'molchasi haqida tashvishlanib so'zlaganda Otelloning bu xususiyatini fahmlash mumkin:

*Rozi edim oltin to'la hamyon yo'qotsam,
Yo'qolgan chakki bo'ldi, ishon EmiliYa.
Garchand mening mag'rur mavrim ishonch mahkam,
Rashkchilarning tuban fe'li unga begona,
Ammo bu ish bir oz shubha berishi mumkin.* (266-bet)

Brabanstoning qanchalik Otelloni yomonlar, davlat rahbariga – senat raisiga murojaat qilgani bilan Doj haqiqatni so'rab bilgandan keyin Otelloga jazo bermaydi, hatto uni maqtaydi:

Doj

*Shonli sin'or,
Jasoratning go'zalligin hech kim ololmas,
Qora emas – kuyovingiz porloq bir olmos* (201-bet)

Ushbu monologining inglizchasi shunday jaranglaydi:

Duke

*Good night to everyone. – And noble seignior
(to Borabantio)
If virtue no delighted beauty lack,
Your son-in-law is far more fair than black.* (p.384)

Otelloni, haqiqatan chin ko'ngilldan sevganini Dezdemona yashirmaydi, senatda ochiqchasiga gapiradi, hatto otasi Brabansio ham hech narsa deyo olmaydi, shunda Otello senat tomonidan beriladigan barcha jazolardan xolos bo'ladi:

Dezdemona

*My noble father,
I do perceive here a divided duty.
To you I am bound for life and education:
My life and education both do learn me
How to respect you: you are the lord of duty,
I am hitherto your daughter. But here is my husband
And so much duty as my mother showed
To you, preferring you before her father
So much I challenge that I may profess
Due to the Moor, my lord* (p.383)

¹Пушкин А.С. – Критик, М., 1950, стр.412

Dezdemona

Otajonim,
Qarshimdagi vazifam ikki.
Sizga bog`lar meni hayot hamda tarbiyam! –
Shu hayotning, tarbiyaning o`zi ham sizga
Chuqur hurmat saqlamoqni menga o`rgatdi.
Sizga qizmen, demak sizga hamisha qarzdor
Biroq yoddan chiqarmanki ortiq ko`rganday,
Erim mavrni ortiq ko`rish mening vazifam. (198-bet)

Dastlab Otello yovuz Yagoning ig`volariga ishonmaydi, lekin Yago keltirgan «dalillar» sodda mavr uchun yetarli bo`lib chiqadi. Chunki inson go`zalligining in`ikosi deb bilgan Dezdemonaning «vafosizligi» haqidagi xunuk gap har qanday xotinning bevafoqligiga qaraganda ham Otello uchun juda dahshatli tuyuladi. Undagi azob-rashk tashvishigina emas, balki xotining sofligiga bo`lgan ishonchini yo`qotish tufayli tug`ilgan qattiq qayg`u hamdir. Bu kutilmagan voqeadan g`azablangan Otello haq ish uchun o`ch olaman deb Dezdemonani fojeali ravishda halok etadi. Biroq u ko`p o`tmay katta xato qilganini ham anglaydi. Shundan so`ng yashash mumkin emasligini sezib, Dezdemonaning jasadida yonida o`zini o`ldiradi.

«Mirzo Ulug`bek» romanida ham senator Brabansiodek diniy arbob Sayid Obid Ulug`bek podshoga arz qilib keladi, qizi bir talaba yigit bilan qochib ketganmish, u yigitga jazo so`raydi Sayid Obid.

Sayid Obid

... *Madrasaning bir talabasi*
Mavjun ayblab u tentakni safsata bilan
Olib qochdi. Voasafo! Men sho`rim qurg`ur!
Bu qanday bir razolatni, men o`zim Sayid,
Muhtasiblik mansabida yursam poytaxtda,
O`zim dinga, diyonatga nazorat qilsam.
Qizim meni tashlab ketsa bitta darbadar
G`affor degan andijonlik kelgindi bilan.

...

Fitnakorga qattiq jazo so`rayman, Sulton! (29-bet)

O`sha davrda Movarounahrda ham erkinlik, ozodlik, tenglik kabi Uyg`onish davrining progressiv qonun-qoidolari paydo bo`la boshlagan edi, sevishganlar

erkin turmush qurishi mumkin edi, endi zo`rlab erga berish asta-sekin barham topayotgan edi. Bu masalada sulton Ulug`bek to`g`ri xulosa chiqaradi, agar o`zlari sevishib turmush qurgan bo`lsa, ularga ruxsat berib, yigitni jazolamaydi, ularga saodat tilaydi:

*Ulug`bek
Sayid Obid, qizingiz xohishi bilan
Tekkan bo`lsa, tag`in nega shu janjal – da`vo?
Bir qovushgan yuraqlarga ne lozim ig`vo?
Qo`ying, u qiz o`z ishqida topsin saodat.
G`affor degan yigit g`oyat xushaxloq, rostgo`y,
Qizingizga talqin etar bilim, ma`rifat! (30-bet)*

Demak, Shekspirdagi Doj (davlat rahbari) ham, M.Shayxzodagi sulton Ulug`bek ham ilg`or jamiyat tartibi tarafdorlaridir, yoshlari huquqini, erkini qo`llab-quvvatlashi va Brabansio, Sayid Obidlarning eskicha fikrlashlari – ham ingliz, ham o`zbek adabiyotida bir xil – o`xshash g`oyalardir.

Shahzoda Gamlet va Malika Kordeliyalar otalari uchun o`z dushmanlaridan o`ch olmoqchi, otalari uchun qayg`uradi, dushmanlarini o`ldirib, buzilgan jamiyatni tiklashmoqchi bo`ladilar. Otellodan Dezdemona otasi shikoyat qilib kelganda, davlat boshlig`i Doj holatni yaxshi o`rganib, yoshlar foydasiga hal qiladi, ya`ni Otello va Dezdemonalarning baxtli hayot kechirishi tarafdori bo`ladi. «Ulug`bek» romanida ham dindor Sayid Obid Sulton Ulug`bekka shikoyat qilib keladiki, bir andijonlik G`affor degan mullavacha bilan sevishib qolibdi. Ulug`bek ular sevishib turmush qo`rgan bo`lsalar, yaxshi bo`libdi, buni biz olqishlaymiz, deydi.

Endi «Qirol Lir» fojeasida ham Kordeliya ismli qizi otasi uchun g`amxo`rlik qiladi. Qirolning katta qizlari Goneril`ya va Reganalar ota mol-mulkiga, taxtiga ega bo`lsa ham, otasi qirollikdan ketgandan keyin, o`z va`dalarida turmaydi, otasiga yordamlashmay qo`yadi, otasi kasal bo`lib, xushidan ketganini Frantsiya gertsogiga turmushga chiqqan kichiq qizi Kordeliya Frantsiyadan tabib va qo`shin tortib keladi, otasini davolaydi, otasi xushiga kelib, kichiq qizi Kordeliyadan

kechirim so`raydi, uni mamlakatdan haydagani, meros qilib hech bermagani uchun. Mana Kordeliya va Lir so`zlari:

Cordelia

*O you kind gods,
Cure this great breach in his abused nature!
The untuned and jarring senses. O wind up
Of this child-changed father! (p.361)*

Kordeliya

*E, osmon qudratlari, siz shifo bering,
Alamlardan majruh bo`lgan uning qalbiga.
Qayg`ulardan go`daqlanib qolgan otamning
Hissiyotin qayta boshdan tartibga soling. (479-bet)*

Kordeliya tabibi, vrachi yordamida Lirni xushiga keltiradi, Kordeliyaning ko`p javrashlaridan keyin, iltimosidan so`ng Lir uni tanib, endi do`st kim, dushman kim ekanini anglab qizi Kordeliyadan kechirim so`raydi:

Lear

*You must bear with me:
Pray you now, forget and forgive; I am old and foolish.*

Lir

*Ammo men bilan
Yashamoqqa senda chidam bo`lishi zarur.
So`rovim shu: o`tgan gapni unut va kechir.
Men bir qari, esim jo`yib qo`ygan kishiman. (482-bet)*

P`esa, oxirida Lir qamoqqa olingan, og`ir ahvolda, qizi Kordeliya bilan asirga tushadi. Oldin Kordeliyani dushmanlar osib o`ldiradi. Keyin Lir ham o`ladi. Oxirgi payti Lirga ko`maklashib yurgan Kent Lirga o`zini tanitadi.

Vil`yam Shekspir p`esada faqat ijobiy xarakterlarning (Lir, Kordeliya) halok bo`lishi bilan birga, salbiy xarakterlarning ham (Goneril`ya, Regana) o`limlaridan xabar beradi, kitobxon, tomoshabin ko`ngli oz bo`lsa-da taskin oladi, dushmanlarning o`limidan quvonib, do`stlari o`limi qayg`usi biroz susayadi.

Umuman, «Qirol Lir» fojiasi qahramonlari bir-biriga qarama-qarshi tushgan ikki lagerga bo`linadilar. Ulardan birinchisi Kordeliya, Kent, Edgar, masxaravoz, so`ngra Lir va Gloster bo`lib, bu ezilgan va tahqirlangan odamlar, do`stlik, sadoqat va o`zaro yordam tuyg`ularini his etadigan kishilardir.

Ikkinchisi mol-dunyoga o`ch, xudbin, ma`naviy buzuc va shavqatsiz Goneril`ya, Regana, Kornuel va Edmundlardir.

Kamsitilgan va quvib yuborilgan farzandlar va xizmatchilar o`z sadoqatlaridan qaytmaydilar, ular yana qirol Lir va Glosterga yordam qo`lini cho`zadilar. Masalan, Kent kek saqlamay, o`z kiyimini o`zgartirib, darbadarlikda yurgan Lirga hamrohlik qiladi. Kordeliya Frantsiyadan askar tortib kelib, haqoratlangan ota huquqini tiklamoqchi bo`ladi. Lirning masxaravozi azaldan xo`rlanib kelganlardan bo`lib, uning obrazida xalq donoligi ifodalanadi. U Lirning nojo`ya harakatlarini, katta qizlarining adolatsizliklarini fosh etadi va unga nima qilish kerakligi haqida ham maslahat beradi. Xullas, u Lirning o`z xatosini tezroq anglab yetishiga sabab bo`ladi. Masxaravoz barcha qirolning davlatini ikki qiziga ulashib berib, o`zida hech narsa qoldirmagani, qo`lida endi hokimiyat-qudrat yo`qligini unga tushuntirish uchun ta`sirli so`zlar aytadi. Sen «raqamsiz nolning o`zisan. Men sengdan durustman, negaki, masxaravozman, senchi, hech nimasan».

Shekspir masxaravoz va Kent so`zlari orqali mamlakat amaldorlariga xalqning qarshi ekanligi, rahbarlik yo`llaridan omma norozi ekanini ko`rsatadi.

Tug`ilib kelayotgan kapitalistik munosabatlar, boylikka o`chlik kishilar o`rtasidagi eng kuchli aloqalar – qardoshlik, oila va birodarlik aloqalarini ham o`chirib tashlaydi. Shuning uchun insonparvarlik g`oyalarini tashuvchi ijobiy obrazlarni Shekspir dunyoparastlikdan xoli bo`lgan kishilar qilib ko`rsatadi. Bu jihatdan kamtar, dono, go`zal, sofko`ngil va oliyjanob, jasoratli qiz Kordeliya obrazi ayniqsa jozibalidir. Garchi u tragediya oxirida xalok bo`lsa ham, lekin Kordeliya himoya qilgan haq ish pirovardida tantana qiladi. Yovuz niyatli kishilar mag`lubiyatga uchraydilar. Bu asarning optimistik ruhidan dalolat beradi.

– O`zining barcha insoniy fazilatlari, oliyjanob intilishlari, odamzodning baxti-saodati yo`lidagi jonbozligi bilan Gamlet Daniyaga sig`maydi, - qora kuchlar tuzog`ida oxirgi damgacha kurashib halok bo`ladi, falakiyot ilmini o`rganishda mislsiz yutuqlarni qo`lga kiritgan, bu jabhada Yevropa fanini qariyb ikki asr ortda

qoldirgan Mirzo Ulug`bek Ko`ragoniy ham zamonga sig`madi – qoraguruhchilar amri, o`g`li Abdullatifning fatvosi, mutaasib Abbosning qo`li bilan qatl etildi.

1.3. Ingliz va o`zbek yozuvchilari asarlaridagi salbiy obrazlar qismatining mushtarakligi

Shekspirning “Otello va Dezdemona” asaridagi Yago obrazi nomard, hasadgo`y, pulga o`ch, shafqatsiz va surbet, mansabparast va qora niyatli shaxs, u egoistgina emas, o`zidan quyi mansabdagi kishilarga nisbatan surbet va uyayutsizdir. «Hamyonini pulga to`ldirishni yaxshi ko`radigan bu xot Rodrigoni laqillatib, uning bor boyligini shilib oladi».U harbiy kishi sifatida, Otello qo`l ostida ishlab, o`zini Otelloga sadoqatli soldat sifatida ko`rsatadi, so`ngra hiylanayrang ishlatadi, tuhmatlar qiladi, shunday yo`llar bilan do`stlarini ham, xotinini ham unga nisbatan xiyonat qilishda ayblaydi.

Yago kim bilan qanday munosabatda bo`lishni yaxshi biladi. Otello bilan muomalasida u shirinso`z, xushomadgo`y, Dezdemonaga nisbatan u pichingchi, Rodrigoni tahqirlashda dadil, o`z xotiniga nisbatan qo`pol va beordir. Lekin ochiq jangda u juda qo`rqoq, yashirin vositalarni ishga solishda esa usta va rahmsizdir. U o`zidan boshqalarni odam o`rnida ko`rmaydigan va hech kimga shafqat qilmaydigan, ilojsiz hollarda ham o`zini yo`qotmaydigan razil, pastkash, xudbin odamdir. Yago umumxalq, butun dunyo adabiyotida ustomon va makkor shaxsning eng mukammal tipik vakilidir.

Yago ishonuvchan Otelloni laqillatib, aldab, Dezdemonani buzuq xotin deb ko`rsatadi, Rodrigoni, Kassioni aldaydi. Kassio bilan Yago bir kecha birga yotganida go`yoki Kassio tushida Dezdemonani sevishini, buni sir tutishini aytganmish (262-bet). Dezdemona qo`lidagi gajim, qulupnay gul tiqilgan ro`molchani Kassioning soqol artganini ko`rdim (263-bet).

Otello jahli chiqadi, u arab emasmi, tez achchiqlanib, qonlari toshib, qizarib jahlga sinadi.

Othello

I'll tear her all to pieces.

Iago

Have you not something seen a handkerchief

Spotted with strawberries in your wife's hand? (p.402)

Otello

Xotinimni parcha-parcha qilib tashlayman.

Yago

Dezdemoni qo'lida hech qo'rganmidingiz

Keti gajim, qulupnay gul tiqilgan ro'molcha?

Otello Dezdemonadan yuzimni artay, deb ro'molchani talab qilib so'raydi, u boshqa ro'molchani beradi, Otello berganini qayta-qayta so'raydi. Lekin Dezdemoni uni yo'qotganini aytganda:

Othello

That handkerchief

Did an Egyptian to my mother give:

She was a charmer, and could almost read

The thoughts of people. She told her while she kept it

It would make her amiable, and subdue my father (p.403)

Otello

Bu ish chakki u ro'molcha onamdan qolgan

Unga bitta lo'li xotin keltirib bergan

O'zi juda jodugaru sehrigar ekan.

Odamlarning sir, asrorin ochishga usta,

Ro'molchani unga olib kelib borishda (268-269-betlar)

Otello mazkur so'zlarni ataylab aytayotirki, Dezdemonani ishonsin uchun. Asosiy maqsad, ro'molcha bahona Otello rashq o'tida yonayotir, qaysi yo'l bilan bo'lsa ham Dezdemonani jazolashdan iborat, Dezdemoni esa yo'qotgani uchun juda afsusda.

Desdemon

*Believe me, I had rather have lost my purse
Full of crusadoes. And but my noble Moor
Is true of mind, and made of no such baseness
As jealous creatures are, it were enough
To put him to ill thinking. (p.403)*

Dezdemon

*Rozi edim oltin to`la hamyon yo`qotsam,
Yo`qolgani chakki bo`ldi, ishon, Emiliya.
Garchand mening mag`rur mavrim ishonchi mahkam,
Rashkchilarning tuban fe`li unga begona,
Ammo bir oz shubha berishi mumkin. (266-bet)*

Dastlab Otello yovuz Yagoning ig`volariga ishonmaydi, lekin Yago keltirgan «dalillar» sodda mavr uchun etarli bo`lib chiqadi. Chunki inson go`zalligining in`ikosi deb bilgan Dezdemonaning «vafosizligi» haqidagi xunuk gap har qanday xotinning bevafofiga qaraganda ham Otello uchun juda dahshatli tuyuladi. Bu tuhmatlardan g`azablangan Otello haq ish uchun o`ch olaman deb Dezdemonani fojiali ravishda halok etadi. Otello o`z xatosini anglagach, o`zini ham o`ldiradi.

Bu fojialarga sababchi, albatta, razil, iflos tuhmatchi Yagodir. Yago obrazining prototiplari hamma jamiyatda bo`lgan, bizlarda bor, ehtiyot shart.

«Mirzo Ulug`bek»da Yagoga o`xshaganlardan biri mansabparast, ig`vogar, qotil Abdullatifdir. U buvisi ko`magida Samarqand sultonligini, podsholigini qo`lga olmoqchi bo`ladi. Avval Gavharshod begim Temurdan keyin, yoshi kattasi, aqli to`lasi men – volidang, deb Ulug`bekni uqtiradi.

Ulug`bek adolatli, haqgo`y podsho sifatida Samarqand hokimidek mas`uliYatli vazifa boshida to`rganini his qilib, onasi maslahatlarini olmaydi. Lekin onam sifatida hurmat qilaman, ammo davlat ishlariga aralashmang, deydi onasi Gavharshod begimga.

Gavharshod sekingina o`zlari kelishib, Abdullatifni taxtga ko`tarmoqchi bo`ladi, bunga Abdullatif jon dili bilan rozi bo`lib, onasiga o`z saxiyligidan va`dalar beradi.

Abdullatif

*Oh, bibijon, aytganingiz kelsin, yo rabbim!
Qachon sulton tojini men qo`ysam boshimga, (96-bet)*

Bu ig`volardan xabari bo`lgan Ulug`bek uni Samarqanddan Balx qo`rg`oniga, o`sha viloyatga hokim qilib yuboradi. Bu Ulug`bekning katta kamchiligi, xatosi edi. U erda hokim bo`lib, bosh rahbar, xo`jayin bo`lib ko`p ishlarni qilishga Abdullatif erishadi.

Ulug`bek Abdullatيفا mendan ruxsat olmay hech qaerga jilolmayсан, degan edi. Ammo, A`dulatif o`sha yerdan qo`shin to`plab Samarqandga keladi, uni qamal qiladi, Samarqand ahli tashqi muhitdan ajralib qoladi: och, yalang, aholining joniga tekkan payt edi. Hokimiyat shu zumda Abdullatif qo`liga o`tib qoladi. Ulug`bek armiyasi kam sonli bo`lgani uchun har qayerda yengiladi.

Ulug`bek

*Oh, tolesiz yurt!
Badnafaslarning fitnasidan quladi davlat!
Endi jangda shahid bo`lib bosh qo`ymoq a`lo!
Sardor, qani, uyushtiring qolgan lashkarni!
Hay, ontiga sodiq qolgan mardlardan kim bor? (159-bet)*

Hamma yaqinlari bilan maslahatlashib, bobosi Amir Temur qabriga borib sig`inadi va uning arvohi so`zlarini eshitib, Ulug`bek taxtdan iste`foga chiqmoqchi bo`ladi.

Ulug`bek

*Men – taxtimdan voz kechmoqqa jazm etdim bugun.
Soqit buling, og`ir buling, izzatli do`stlar!
Hech bir kimsa tug`ilmabdi boshda toj bilan
Temurbekdan og`ir meros bu qalpoq, xolos.
Bilamanki, shu kungacha temuriylardan
O`zi xohlab hech kim tojni tashlagan emas. (179-bet)*

Ulug`bek devoniga Abdullatif, xo`ja Axror, Qozi Miskin va bir necha imom va muftilar qabulxonaga keladilar, ularga taxtni topshirish oldidan Ulug`bek shartlar qo`yadi. Shartlarni Abdullatif guruhi qabul qilib, ularga rioya qilishga va`da beradilar.

Xo`ja Axror endi Abdullatifni qo`lga olishga kirishadi. U mening duoyi xayrim bilan podshohlikka o`tdingiz, deydi. Abdullatif ham ishonib, «Pirimning nafasi muboraklari bilan men erishgan shu saltanatning har fuqarosi va ko`zimning oqu qorasi hazratimga tasadduq», deydi.

Abdullatif qasam ichib, ahd qilib Ulug`bek shartlariga rozi bo`ldik, lekin hali na toj, na muhr bizning qo`limizda yo`q. Shuning uchun uni qamab qo`ysak, nima bo`ladi, deb xo`ja Axrordan maslahat so`raydi. Xo`ja Axror qamab qo`ysak, uning tarafdori ko`payib ketib, yana taxt talab qilishi mumkin.

Shuning uchun biz Ulug`bekning izini, nomini, o`zini yo`qotishimiz kerak, darrov bu ishga kirishamiz, deb Abdullatifni ko`ndiradi va Abbosni chaqirtirib, endi sen otang o`chini ol, deydi. Otang Sayid Obidni Ulug`bek o`ldirgan, deb uning qo`liga xanjar topshiradi. Abbos qo`liga Abdullatif, Xo`ja Axror va bir qancha kishilar qo`l qo`yib, muhrlangan farmoyishni topshiradi. Unda Ulug`bekdan Abbos otasi xunini olishi kerak. Shu kecha-kunduz Ulug`bekni gumdon qilishi shart edi.

Abdullatif

*Bu hukmni shafqat qilmay ijro etgaysan,
Men ularning orqasidan chopar yuborib,
Bir vaj bilan pastqam joyda to`xtattiraman.*

*Sen hukmni bemurosa amalga oshir.
Jo`nab borgin! Mana, senga xanjariy shoshiy.
Buni Toshkent ustalari toblab yasabdi.*

*Hatto filga uchi botsa cho`kdirar hamon
(Abbosga xanjar beradi)*

*Ammo o`sha bog`bon qizni sog`u-salomat
Bir chodraga o`rab olib, o`rdaga keltir.*

So`ngra esa... Jon senniki, jonon seniki. (194-bet)

Abbos Abdullatif aytganiday bajaradi, Ulug`bek yaralanadi, hayotdan ko`z yumadi. Ana qasamxo`rlarning, din peshvolarining, mansabparast Abdullatifning munofiqona ishlari, qotilliklari. Yago va Abdullatif tuproqlari bir joydan olingandek razil, ablahlardir, ular haqiqiy qotillardir.

Endi biz padarkush Abdullatif o`limini ham «Ulug`bek xazinasini» asarida uchratamiz. Bunday qotildan o`ch olmaslik, u jazosiz qolmasligi kerak edi. Buni Odil Yoqubov o`z asarida bayon etadi.

Shahzoda Abdullatif tush ko`radi. U katta ziyofatda, turli-tuman taomlar, may, mo`zika, yarim-yalang`och ayollar – bazm avjiga chiqqan. Abdullatif amir Jondorni qurib, o`rnidan turib ketarmish, uni ushlashni buyuurlarmish va qaylarda yurganini so`rarkan amir Jondor:

Sizga kiyik ovlab tog`larda yurgandim, uni yesangiz barcha xastaliklardan forig` buliyu, qushday yengil tortasiz, deydi. Yana tushida Abdullatif: xonaga dasturxon yopilgan katta oltin barkash ko`tarib, notanish bir navkar kirib kelarmish. Amir Jondor uning qo`lidan barkashni olib, shahzodaga o`zatarmish:

- Barcha dardingizga davo buladur, totib qo`ring, davlatpanoh! Shahzoda barkashni olib, dasturxonni ocharmish. Oltin barkashja «qongabuyalgan uning o`z boshiti tijayibytarmish!... Barkash qulidan tushib, qonga belangan boshi erga yumalab ketarmish...»¹.

Yana Odil Yoqubov yozadi: «Mavlono Koshiyning aytishicha, Mirzo Abdullatifni qatl qilgan fitnachilar shahzodaning boshini kesib, Mirzo Ulug`bek madrasasining darvozasiga osib qo`yishgan emish. Fitnachilar hibsda yotgan Shahzoda Mirzo Abdulloni taxtga ko`targan emish. Shaharlarda osoyishtalik emish... Ko`plar Registon maydoniga borib, mudhish manzarani tomosha qiluvchilar ham bor emish. Xullas, birovlar bu qatlu qirg`indan qo`rqib, uylarida pisib yotgan bo`lsa, birovlar behad xursand emish...»².

Ana kim aytmish, bu noraso dunyoda haq va adolat yo`q deb! Bor! Kimki, bu dunyoda yomonlik qilsa – xoh shoh bulsin, xoh gado – u jazosiz qolmaydi! Insonga aql va shuur shu maqsadda berilgankim, u bu teran haqiqatni tushunsin! Kimki bu haqiqatga tushunmay, adolatsizlik yo`lini tutar ekan, oxiri voy bo`lishi muqarrar!... Mana shahzoda! Toju-taxt va shon-shuhrat ishqida o`z padarini qatl

¹ Ёкубов О. Улуғбек хазинаси. Т., 1980, 333-бет

² Ёкубов О. Улуғбек хазинаси. Т., 1980, 346-бет

qilishdan ham toymagan edi. Allomalar sarvari yoqqan ilm mash'alini so'ndirib, Movarounahrni zulmat qo'yniga tashlagan edi. Oqibati ne bo'ldi? Ha! Bu foniyl dunyoda ham xalq va adolat bordur. Bundan mo`minlarga qatlu qirg'in keltirgan, mehr-shavkat o`rniga jabru jafo, ilmu ma`rifat o`rniga zulmat urug`ini sochgan hech bir kimsa intiqomsiz qolmaydi.

Voqealar tasviri oqibatida, masalan, «Gamlet» da Daniya zindon bo`lib ko`rinsa, «Mirzo Ulug`bek» da bosh qahramoni qatl etilgandan so`ng Samarqand ya`ni butun Movarounahr – zindonga aylanadi. Mana taxt talashish, molu dunyoga o`chlik, bir-biriga qasd qilish oqibatida jamiyat buziladi. Shuning uchun davlatni boshqarishda kuchli markaz, kuchli boshliq kerak ekan.

Endi biz Gertruda va Gavharshod begimlarning taxtga intilishi, ig`vo va fitnalariga biroz to`xtaymiz. Gertruda avvalgi qirol Gamlet xotini, malika. O`z eriga qasd qilgan qotillardan biri. Erining ukasi Klavdiy bilan kelishib, eri bog`chada uxlab yotganda, uning qulog`iga zahar quydirib o`ldirib qo`yganini bilamiz. Gertruda avvalgi eri ham qirol edi. Endi Klavdiy ham qirol bo`ldi, Klavdiy bir oz yosh edi, ana ayollar dunyosi, ham mol-dunyoga, ham er masalasini tanlaydi, asosiy maqsadi ko`pchilik xotinlarda shunday. Keyingi Gertruda shahzoda Gamlet Laert bilan qilichlashganda u suv so`radi, deb o`z o`g`liga xiyonat qiladi, suvga zahar solib Gamlet so`raganda berishini aytadi va shu jarayonda zaharlangan kosadagi suvni Gertruda o`zi ichib qo`yadi, qirol Klavdiy ham buni bilar edi, qirol ogohlantirsa ham bulmaydi.

King

Gertruda, do not drink.

Queen

I will, my lord: I pray you, pardon me.

King

It is the poisoned cup; it is too late. (p.202)

Qirol

Gertruda ichma sharobni.

Malika

Ichkim keldi. So`rayman, ijozat bering.

Qirol

(o`ziga-o`zi)

Bu qadah zaharlidir! Endi yo`q najot (168-bet)

Zahar solingan suvni Gertruda ichib, yiqiladi, o`ladi. Zahar solinganligini unutib qo`adi. Mana, Gertruda xonimning qilmishlari eriga qasd uyushtirib o`ldirdi, hatto o`g`li shahzoda Gamletning ham o`lishini tilaydi, shuning uchun zaharli suv unga tayyorlangan edi. Birovga qazilgan chohga o`zi Gertruda yiqiladi. Bunday xotinlar jahon adabiyotida xoin, ablah, iflos kishilar obrazini tashkil qiladi.

«Mipzo Ulug`bek» dagi Gavharshoj begim ham taxtga Ulug`bek o`g`li Abdullatifni qo`ymoqchi maqtaydi.

Gavharshod

Ko`z cho`g`idek asrab boqdim Abdullatifni.

Dono, jasur, olijanob, fahmli, zakkiy.

Diyonatli, mo`min, mute, asl musulmon.

Shu talabni eslatgani keldim Hirotidan.

Ha, shularga odatlagan Gavarshod begim. (99-bet)

Ulug`bek, onam bo`lganingiz uchun o`paman qo`lingizni, deydi lekin davlat ishlariga aralashmang, deb onasiga javob beradi.

Gavharshod begim boshqa fisqu-fujurlardan, ig`vo, tuhmatlardan ham qaytmaydi. Bog`bon qizi Firuzatagi past, nasli-nasabi yo`q qiz, Ali Qushchi, u faqat qush boqadi, shunday past kishilar atrofingizda hoziru nozir, deb Feruzani axloqsizlikda tuxmat qiladi.

Gavharshod

Yo`q, shart emas, ammo bor gaplar.

Bu dargohda kirgan bilan hamon duv-duv gap:

Firuzabbos, tag`in Abbos Firo`za...

Nega axir bu ikki nom aytilar birga?

Men aytmoqchi emas edim sizga shu sirni.

Balki mendan oldin bundan o`zingiz voqif.

Savolingiz javobidan gapirdim, xolis. (102-bet)

Ulug`bek bu gaplarga ishonmaydi, bo`lar faqat Firuzasha`niga g`iybat, deydi. Firo`zani ko`p yaxshi ko`radi, uning pokizaligiga ishonadi. Faqat qirol,

podshoh tomoniga bunday gap tarqalishini hisobga olib, unga taloq beradi, o`zi aytadi Ulug`bek: «Firo`zani sevib, sevib taloq xati yozaman». Sultonlar, podshohlar har qanday noxush xabarlardan xoli bo`lishi lozim, deydi. Oxirida Ulug`bek yana Firo`zani ko`rib, qayta nikoh o`qitaman deydi.

Ulug`bek

Tur, Firo`za, sening o`rning oyoqda emas,

Tojlardan ham aziz bo`lgan ko`z ustidadir.

Zotan sensiz bu diyordan ketarmidim men?

Senga taloq bergan edi sulton Ulug`bek,

Qayta nikoh o`qittirar Ulug`bek sayyoh (188-bet)

Shahzoda Shohruhdek sulton xotini, shahzoda Ulug`bek sulton onasi Gavharshod begim shuncha ig`vo, tuhmat qiladiki, ammo onasi bo`lsa ham Ulug`bek quloq solmaydi onasiga. Bekorga shunday shohlar xonadonidan bo`lgan Gavharshod begim ig`vochi, tuhmatkash, zoti past ayol obraziga aylanadi.

1.4. Ingliz va o`zbek yozuvchilari asarlaridagi nohaq tahqirlangan qahramonlarning taqdiri

Dezdemonna go`zal xulqli va chuqur insoniy fazilatlari bilan yorqin gavdalangan obrazlardan biridir. Dezdemonna irqiy qarashlarni pisand qilmaydi, qora mavrni, qora arabni sevishni yashirmaydi va u bilan jang maydoniga birga ketishga tayyor turadi. Jon talvasasida yotgan chog`ida ham eriga bo`lgan muhabbatidan qaytmaydi, hatto uning qatil yor timsolini mujassamlantirgan ayol obrazidir.

Yago boshqalar bilan do`stlashishdan qochadigan, ma`naviy buzuk bu shaxs o`zining qabih niyatlarini amalga oshirishda xilma-xil jirkanch vositalardan foydalanadi. Soldat niqobidagi bu riyokor o`zini Otelloga sadoqatli qilib ko`rsatishga muvaffaq bo`ladi, so`ngra hiyla-nayrang ishlatadi, tuhmatlar qiladi, shunday yo`llar bilan do`stlarini ham, xotinini ham unga nisbatan xiyonat qilishda

ayblaydi. Mana, iflos yagoning tuhmat bilan uydirma, yolg'on gaplari. Bu bilan shunday Otelloni ishontiradiki, endi uning g'azabi chiqmay qolmaydi. Yagoning xotini Emiliya edi, undan Yago qanday bulmasin, Otello Dezdemonaga sovg'a qilgan «ro'molcha»ni qo'lga tushir va menga ber, deydi. Emiliya u ro'molchani yo'ldan topib olib, eri Yagoga beradi. Dezdemona uni tushirib qoldirgan edi. Yago ifloslik qilib, Otelloni aynitish uchun fakt sifatida ro'molcha Kassioning qo'lida ekanini aytadi. Yago ro'molchani Kassioning hovlisiga tashlagan edi.

Kassioning muammosi boshqa narsa edi. U kechasi soqchilikda, navbatchilikda bo'lgan paytda vino ichib mast holda yuradi. Otello unga ko'p hushyor tur, degan edi. Buni ko'rib, Otello Kassioni vazifasidan ozod qiladi. Endi Kassio o'zini Dezdemonaga yaqin tutadi, undan Otelloni ko'ndirib o'zini ishga tiklashni yalinib so'raydi. Bu orada Kassio bilan Dezdemona mazkur muammo buyicha bir necha marta uchrashib suhbatlashadilar. Mana bu suhbatlarni Yago Otelloga boshqa tus berib, ishq-muhabbat haqida gaplashayotir, deydi.

Kassio ma'shuqasi (o'ynash ayoli) B'yankadan ro'molchadan nusxa ko'chirishni iltimos qiladi. Bu ro'molcha Kassioning bir sevgili xotini yoki buzuk, shalloqi ma'shuqalari tomonidan Kassionga berilgan, deb B'Yanka undan nusxa ko'chirmayman, deydi, rashq qiladi. Shunda Otello bu gapni eshitib, o'sha mening ro'molcham bo'lsa kerak, deb o'ylaydi.

Otello:

O'sha mening ro'molchammidi?

Yago

Qo'limni shartta o'zib tashlasalar ham mayliki, sizniki edi; uning sizning xotiningiz, tentak xotinni qancha behurmat qilishni qarang-a. Unga ro'molcha beribdi-yu, u ro'molchani o'zining ermagi, o'ynashiga topshiribdi.

Otello

Men uni parcha-parcha qilib tashlayman. Meni-Ya, meni go'sxo'r qildimi, mening oldimga poxol soldimi?

Yago

To`g`ri, bu ish juda uyat, juda chakki bo`lgan.

Otello

Tag`in mening ofitserim bilan-a? (285-287-betlar)

Endi Otello Yago xotini Emiliyadan so`raydi. Dezdemona biror marta biror kishi bilan yoki Kassio bilan birga o`tirib gaplashganmi, gaplashganda biror qilik, sho`xlik qilib o`tirganini ko`rmadingizmi, deb so`raydi.

Emiliya

*Xotin shunday pokizaki, tozaligiga
Jonimni ham garov qilib bera olaman.
Sizda boshqa firka bormi? Yo`q yanglishasiz
Bu aldamchi fikringizni chetga irg`iting!
Agar biror iflos sizga uqdirgan bo`lsa
Ilon kabi Xudo unga la`nat yog`dirsin! (293-bet)*

Otello yana ishonmaydi, Dezdemonani so`rayverib bezor qiladi, uni fohisha deb ataydi, Dezdemona pok qalbli, molu-dunyoga o`ch kishi emas, faqat bunday bema`ni nomga u loyiq emas edi.

Dezdemona

*Aytishga ham jirkanaman, «fohisha» so`zin
Agar dunyo oyligini boshimdan to`ksa,
Shu bergan ma`nodagi xotin bulmayman. (301-bet)*

Otello

Ont ichaman, ro`molchamni qo`lida ko`rdim.

Dezdemona

Uh, o`ldirmang, mayli meni quvlab yuboring!

Otello

O`lim fohishaga

Dezdemona

Shu kecha ham yashay qolay, erta o`ldiring (324-bet)

O`limdan kim qo`rqmaydi, kim jonidan to`ygan, hamma ham yashashni xohlaydi, bechora Dezdemona o`ldirmang, deb shuncha yalinsa ham Otello uni bug`ib o`ldiradi.

Dezdemona

Men gunohsiz o`lmoqdaman.

Emiliya

O`ldiruvchi kim?

Dezdemona

Hech kim emas. Yolg`iz o`zim. Xayr ortiq xayr

Marhamatim Otelloga salom, alvido. (o`ladi) (326-327-betlar)

Dezdemona yoriga shunchalik vafodorki, shunchalik yaxshi tarbiyalanganki, hech kimni gunohkor qilmaydi, hamma gunohni o`z buyniga oladi, hatto Otelloni qotil deyishga tili bormaydi.

Dezdemonaning enagasi (Dezdemonani tarbiyalagan ayol) Emiliya kelib qoladi, juda afsuslanib, Otelloni la`natlaydi.

Otello

U yolg`onchi jahannamning qa`riga ketdi.

Men o`ldirdim.

EmiliYa

Shunday esa, bu bir malak, siz qora shayton.

Otello

To`zuk yo`ldan chetga chiqib fohisha bo`ldi.

EmiliYa

Unga buhton qilyapsiz, mal`un, yaramas.

Otello

Oqin suvday, u aldamchi, riyokor edi (327-bet)

Otello esa ering Yago menga Dezdemonaning Kassio bilan bo`lganini, yotganin aytdi, men Kassioning qo`lida ro`molchamni ko`rdim, deydi. Ammo Emiliya ishonmaydi. Yago kelib qoladi. Eridan Emiliya hamma gapni so`raydi. Eri Yago Dezdemonani «fohisha» degani, Kassioning qo`lida ro`molchani ko`rganini Otello va Emiliya oldida aytadi, tan oladi. Endi esa Yago bilan xotini janjallashadi, Yago xotinini qilich bilan o`ldirmoqchi bo`ladi. Lekin Emiliya endi eriga quloq solmay, ro`molcha masalasini ochib tashlaydi, Emiliya vijdoni chidamaydi, u Dezdemonaga sodiq edi, joni achiganidan, qo`rganidan hamma gapni gapiradi, uni Otello ham eshitib turardi, Otello ro`molcha padarimdan onamga yodgorlik edi, deydi.

Shunday marvaridday go`zal, qalbi pok, sodiq Dezdemona Yagodek ifloslarning tuhmati qurboni bo`ldi, «tuhmat balongdan saqla!» degan gapning tagida ko`p ma`no bor ekan.

V. Shekspirning «Gamlet» fojiasida Ofeliya va Laert obrazlari shahzoda Gamletga dushman dunyoning yaxshi vakillari sifatida tasvirlanadi. Boshqacha hayot sharoitida, ehtimol, ular ijobiy fazilatlarga ega bo'lishlari mumkin edi; lekin El'sinor muhitida ularning yaxshi xayollari yo'qqa chiqadi va oxirida o'zlari halok bo'ladilar.

Poloniyni qizi Ofeliya Gamletni sevadi, lekin u ota va akasiga itoatkor, ularning aytganlaridan chetga chiqishga jur'at etolmaydigan sodda, sof dil bir qiz. Shuning uchun ham u Gamletning istak-orzularini tushunib etmaydi, oila urf-odatlarini ta'siridan qutulishga ojizlik qiladi. «Ayollardan eng baxtsiz» Ofeliya fiske fasod avj olgan feodal dunyosining qurboni sifatida halok bo'lgan qizlar obrazidir.

Gamlet o'zini jinnilikka solib yurishi va uning bu qabohatlarni otasi arvohi (xalq og'zidan, qiroli Gamlet Yaqinlaridan) bilib olgandan keyin Poloniya va uning qizi Ofeliyadan ham do'st, deb hisoblamay qo'yadi, u avval Ofeliyani yaxshi ko'rar edi, Ofeliya ham uni sevardi.

Gamletning qay holatda kelganini Ofeliya otasi Poloniya aytadi:

Ophelia

*My lord, as I was sewing in my closet,
Lord Hamlet, - with his doublet all unbraced;
Not hat upon his head; his stockings foul'd,
Ungartered, and down - gyved to his uncle;
Pale as his shirt; his knees knocking each other;
And with a look so piteous in purport,
As if he had been loosed out of hell,
To speak of horrors, - he come before me.*

Poloniya

Mad for thy love?

Ophelia

*My lord, I do not know;
But truly I do fear it* (p.163)

Poloniya endi bu gaplarni qiroliga borib aytamiz, agar aytmasang eng kutilmas balolar yuz berar undan. SHunda Ofeliya deydi:

Ophelia

*No, my good lord, but as you did command,
I did repel his letters, and denied*

His access to me. (p.163)

Ofeliya

Men ham –

*Kashta tikib o`tersam shahzoda Gamlet –
Kirib keldi: boshyalang, yoqalar ochiq,
Bog`ichsiz paypoqlari to`piqqa tushgan,
Syunday bezillaydiki, tizzalarining
Dir-dir titrab urishin eshitsa bulur
Shuncha ham dovdiragan, go`yo shu tobda –
Do`zaxning dahshatidan so`zlamoq uchun
Yer tagidan chiqqanday*

Poloniy

Balki, u sening –

Muhabbating ko`yida shaydo bo`libdir?

Ofeliya

Qaydam, balki!

Bunday so`zlarni Ofeliya otasiga aytmasligi kerak edi, uni, ya`ni Gamletni, yomonlab gapirdi-ku. Shuning uchun Ofeliya guruhi – Poloniy, Laert – hammasi Gamletni yomon ko`rib qoldilar. Ikkinchidan, Gamlet Ofeliyani chindan sevar edi. Biroq otasining xun qasosini amakisi Klavdiydan olishga qat`iy qaror bergani uchun o`z sevgisini bosib Ofeliya bilan xayrlashmoqchi bo`lgan. Gamletning g`alati qiliqlarini odamlar jinnilik deb tushunadilar. Gamlet Ofeliyani sevgani haqidagi xatni Poloniy malikaga, qirolga o`qib beradi:

Poloniy

*I have a daughter; have, while she is mine;
Who in her duty and obedience, mark,
Hath given me this now gather, and surmise.*

Reads

*– To the celestial, and my soul's idol, the most
beautified Ophelia», -
That's an ill phrase, a vile phrase; «beautified» is
a rile phrase, but you shall hear. Thus: -*

Reads

«In for excellent white bosom, these».

Queen

Came this from Hamlet to her?

Poloniy

Good madam, stay awhile; I will be faithful.

Reads

*«Doubt thon the stars are fire;
Doubt that the sun doth move;
Doubt truth to be a liar;
But never doubt I love
«O dear Ophelia, I am ill at these numbers; I have
not art to recqon my groans; but that I love thee best,
O most best, believe it Adieu!
Thine evermore, most dear lady, whilst this machine is to him,
Hamlet».*

(p.165)

Poloniy

*Bir qizim bor, chunki qiz o`zi – meniki.
U itoat vajhidan menga bergani
Sizlarga o`qib beray, Yaxshi tinglangiz.*

(o`qiydi)

*«Jonimning nigori, ilohi, sohibi jamol Ofeliyaga».
Bu ibora suyuq ibora «Sohibi jamol» ko`p chaynalgan ham bachkana
so`z.*

Xayr, narisini eshiting.

Mana:

(o`qiydi)

«Uning so`lum, yumshoq ko`ksiga bu...» va hokazo va hokazo.

Malika

Buni Gamlet yozganmi?

Poloniy

Bir oz sabr eting.

Men hammasini, batartib, o`qib beraman

(o`qiydi)

*«Nurga keltirma imon,
Ishonmagin hech kimga,
Haqiqatga qil gumon
Ishon mening sevgimga.*

Oh, azizim Ofeliya, men she`rbozlik hunari bilan chiqisholmayman.

*Ohu faryodin qofiyaga solishga ishqiboz emasman. Ammo, seni joni dilidan
sevganimga, go`zalim ishon. Xayr. Bebahom, jonim tanimdan judo
bulguncha butun borlig`i bilan seniki bulmish Gamlet». (52-53-betlar)*

Qirol Ofeliya bilan Gamlet bir-birini yaxshi ko`radimi, yo`qmi, uni tekshirib ko`radi. Poloniy ham, qirol yuborgan ikki kishi ham (Rozenkranya, Gil`derstern) Gamletning jinnilik holatini aniqlay olmaydilar. Qirol, malika va

Poloniy fikricha Gamlet Ofeliya tufayli jinni bo`ldi, deb hisoblaydilar, ular .
Gamlet bilan Ofeliyani uchrashtirmoqchi bo`ladilar. Shunda Gamlet:

Gamlet

Men, qachonlardir sizni sevar edim.

Ofeliya

Rostkam, shahzoda, men shunga ishonar edim.

Gamlet

*Bekorga ishonibsiz! Nadomat chekmagan kishi –
betavfiqlik hamma ishi. Men Sizni sevgan emasman.*

Ofeliya

Demak, badtar aldanibman (79-80-betlar)

Ofeliya umidini uzadi, endi qirol, malika va Poloniy sahna orqasidan poylaydi, Gamlet shivir-shivirni eshitgach, qilichi bilan qalamushni o`ldiraman, deb Poloniyni o`ldirib qo`yadi. Ofeliya yana otasi o`limi uchun achinadi, ikkinchi tomondan Gamletga ham kuyunadi, endi bu ham katta g`amda, uyda qoladi, bunday paytda aqldan ozish hech gap emas edi. Endi Ofeliya va uning akasi laert ham Gamletga qarshi kishilar bo`lib qoladi.

Ofeliya aqldan ozadi, daryo buyiga borib, majnuntolga osilib, suvga yiqiladi, g`arq bo`ladi. Buni malika Ofeliya akasi Laertga aytadi:

Malika

*Motam ustiga motam Laert, azizim,
Singlingiz, Ofeliya, suvga g`arq bo`ldi.*

Laert

Nima? Suvga? Qaerda? Bu – mumkin emas!

Ofeliya akasi Laert eshitadi, Ofeliyani dafn qilish marosimi, Laert Ofeliya yuzini ko`ray deb go`rga tushadi, orqasidan Gamlet ham tushadi. Ofeliyaning o`limiga sen sababchi, deb Laert Gamlet bilan yoqalashadi.

Gamlet

Ofeliyani shunday sevar edimki, qirq ming og`asi

Birgalashsa menchalik seva olmaydi.

Ayt-chi singling sha`nida ne qilmoqchisan (154-bet)

Demak, Ofeliya o`z ota-onalari, akalari doirasidan chiqolmaydi. Dezdemonadek harakat qilmaydi. Avval boshda Gamlet Ofeliyani sevar edi,

Ofeliya ham uni. Lekin Gamlet g'am-g'ussalar bilan boshi og'rib, o'zini jinnilardek tutgani va unga qo'yilgan qarshiliklar, ya'ni Poloniy, qirol, malika va bir necha kishilar Gamletni azoblash, o'zlariga buyin so'ndirish kabi harakatlarni qilgandan keyin, Gamlet ham Ofeliyadan yuz o'giradi. Ofeliya ham otasi, Gamletday sevgili yoridan aynitilgandan keyin u aqldan ozib, majnuntolga osilib suvga g'arq bo'ladi. Oxiri atrofdagilar shunday begunoh, pokiza qizning boshiga yetadilar

Ko'ramizki, «Gamlet»dagi juda ko'p narsalar: shaxs erkinligi, haq-huquqlari, mustabid hokimiyat keltirib chiqargan barcha fojialar, xususiyl mulkchilik hissining oilani, keng ma'noda esa butun jamiyatni chiritish illatiga taalluqli g'oyalar «Mirzo Ulug'bek» fojiasida ham mavjud.

«Mirzo Ulug'bek» fojiasida Dezdemonaga, Ofeliyaga o'xshagan ayollar qismatidan Firo'zada ham uchraydi. Sulton Ulug'bek ruhini tushirish, obro'siga putur etkazish uchun onasi Gavharshodbegim, o'g'li Abdullatif va din peshvosi bulmish Xo'ja Axrorlar ig'vo, fitna uyushtiradilar, Firuza nomiga tuhmatlar tashkil qiladi.

Ulug'bekning onasi Gavharshod Amir Temur taxtiga da'vogar bo'lib, Ulug'bekni ko'ndirmoqchi bo'ladi, ammo Ulug'bek ona bo'lsa ham uning gapiga kirmaydi, Samarqand sultoni menman, davlat, jamiyat, xalq uchun men javob beraman, deganlaridan keyin, Firo'zaning aybli ekaniga tuhmat qila boshlaydi. Mana avval eshitaylik Gavharshodbegim so'zini:

Gavharshod

*Ulug' Mirzo, bu saltanat Temurbekniki.
Unga voris Shohruh Mirzo bo'ldi, otangiz.
Otangizdan keyin temur xonadonida
Yoshi ulug', fikri to'lug' men – volidangiz.*

Ulug'bek

*O'g'lingizman va o'paman qo'llaringizni,
Tiz cho'zmakka omodaman ho'zo'ringizda
Ammo bu yurt sultoniman, hukmdoriman,
Bu o'lkaning taqdiroti menga havola.
Aralashmang bu davlatning ishlariga siz*

*Hamma tadbir, buyruqlarga o`zim javobgar
Siz – malika, biling, emas hokim! (100-bet)*

Gavharshod Hirotdan kelib, Samarqandda tartib-intizom buzilgan, bu erda Ulug`bek ilmiy ishlar bilan shug`ullanib, yoki o`z atrofiga Yaqin kishilarni yig`may, bulmag`ur zoti past kishilarni to`plagan. Masalan, Ali Qushchi, u qush boqib yuribdi, bog`bon qizi Firuza tagli-zotli qiz emas, deb Abdullatifni Samarqand sultoni lavozimiga ko`tarmoqchi bo`ladi:

*Gavharshod:
Bilasizmi? O`zaro sir... Ne der xaloyiq?
O`ylashimcha Temur toji sizga ko`p loyiq.
Abdullatif*

Oh, bibijon, aytganingiz kelsin, yo rabbim! (96-bet)

Endi bu gaplarga Ulug`bek rad javobini bergandan keyin Gavharshod, Abdullatif Ulug`bek sha`niga dog` tushirish uchun uning sevgili xotini Firo`zaga tuhmat uyushtiradilar.

*Gavharshod
Bu dargohga kirgan bilan hamon duv-duv gap:
Firo`zayu Abbos, tag`in Abbos Firo`za...
Nega axir bu ikki nom aytilar birga?
Ulug`bek*

Tag`in ig`vo, tag`in fasod, oh muttahamlar!

Ulug`bek Abdullatifni chaqirtirishni buyuradi, chunki Abbos Abdullatifning Yasouli edi. Abbosning qaerdaligini so`raydi Ulug`bek:

*Abdullatif
Haramdagi xonimlardan birin nomini
Go`yo sevgi tariqasida tilga olarmish
Ulug`bek*

Qaysi xonimning?

*Abdullatif
Firo`zaoy islmlarini aytib yig`larmish
Xizmatidan darhol bushatib, ketkazdim. (103-104-betlar)*

Ulug`bek chuqur o`yga botadi, u hayron, nahotki bu gap rost bo`lsa, degan o`ylarbilan:

*Ulug`bek
O`z onamga ehtiromim evaziga men
Ne eshitdim? Zug`um bilan ta`na, arazlar,
Bu ham mayli! Firuzaning sha`niga g`iybat?*

*Yoki uning aybi bormikan bunda!
Yoki osmon kitobini varaqlab ochib,
Sirlarini o`rganmoqchi bo`lganim uchun
Falak mendan qasos olish poyiga tushgan! (110-bet)*

Ulug`bek Firo`zaning o`zidan ham so`raydi. Abbosdan Ulug`bek xavotirlanadi, men keksayganman, qariman, deb Ulug`bek tan oladi, balki Firuzayoshroq Abbos bilan gaplashgandir, deb o`ylaydi. Lekin Firuzabuni bilmaganini, bir marta darsxonada Abdullatif bilan gaplashib, imo-ishora bilan meni ko`rsatib gaplashayotganini ko`rganini Ulug`bekka aytadi. Ulug`bek bu gapni menga aytmading-ku?, desa, ota-bola orasini qanday buzaman, Abdullatif onasi marhuma, men bo`lsam unga o`gay ona, deydi.

*Ulug`bek
Firo`za, o`zingni bos! Sen poqizasan!
Endi menga oshkorki, shu mojaroda
Bir zarra ham gunohing yo`q. Bu – nomard ish. (112-113-betlar)*

Yana Ulug`bek taraqqiyparvar ulamo Shayxulislomdan so`raydi, u Firo`zaning o`ta pokiza ekanini gapirib, bu gapim uchun men Qur`onga qo`l bosishga hozirman, sulton, deydi.

Ulug`bek har tomonlama Firo`zani surishtirib, uni pokiza ayol ekaniga ishonsa ham, unga taloq xati yuboradi, buning sababini Ulug`bek o`zi isbotlaydi:

*Ulug`bek
Sultonlarning nasabasi shu taxlit ekan,
Siyosatga qurbon ketar ularning qalbi.
Zero, hazrat, yaxshi biling va unutmangki,
SHoh xotini bo`lsa ham, mutlaq begunoh,
Uning nomi har xil gapdan, shubhadan, so`zdan
Xoli bo`lib, oliy bo`lib turmog`i lozim,
El og`zida chaynalmog`i baloyi azim
Firo`zani seva-seva taloq beraman. (116-bet)*

Saltanat taqdir taqozosi bilan Abdullatif qo`liga o`tadi, Ulug`bek endi atrofdagilar bilan maslahatlashib, qon to`kilmasin, ocharchilik bo`lmasin, deb tojni topshiradi. Shunda u Firo`zaga ko`ngil qo`ygan, usiz hayotini hayot hisoblamaydi.

*Firo`za
Hamma gapni bilaman, ustoz!
Hatto mozor uyigacha sizga yo`ldoshman*

Ulug`bek
Shuncha tuhmat va haqorat seni engmabdi,
Bir mansabsiz musofirga ko`ngil berasiz!
Firo`za
Siz dilimga nur berdingiz, umrimga ma`no
Dunyodagi insonlarni, hodislarni
Mening ko`zim ko`rar sizning ko`zingiz bilan.
Sulton nomi sizga keyin taqilgan unvon
Undan oldin Samarqandda, mening shahrimda
Bor edi-ku, axir yigit Mirzo Ulug`bek!
Toqqa qorlar yog`ib so`ngra erib boradi,
Ammo tog`ning cho`qqilari hamon turadi.

Ulug`bek
Tur, Firo`za, sening o`rning oyoqda emas,
Tojlardan ham aziz bo`lgan ko`z ustidadir.
Zotan, sensiz bu diyordan ketarmidim men?
Sengga taloq bergan edi sulton Ulug`bek,
Qayta nikoh o`qittirar Ulug`bek sayyoh
(xursand)

Ishoningki sodiq do`stlar, billoh, odamzod
Toj pokidan qutulganda vijdoni obod.
Ketdik, do`stlar! (188-bet)

Ammo Abdullatif-padarkush otasi Ulug`bekka qarshi, uning o`ldirilishi to`g`risidagi Farmonga imzo chekib, Abbosga beradi. Abbos, otang o`chini olasan, otangni Ulug`bek o`ldirgan, deb unga shamshir beradi. Ulug`bek Yaralanib halok bo`ladi, Firuza Ulug`bek jasadini quchoqlab, dodlab yig`laydi.

Firuza o`lmasa ham u o`lgandan battar bo`ldi, unga fohishalikda tuhmat uyushtirdilar, oxirida Ulug`bek bilan yashashga ahd qilganlaridan keyin, bunday baxtdan ham mahrum bo`ldi.

Shuning uchun aytamizki, Dezdemon, Ofeliya va Firo`zalar – tuhmat qurbonlari. Ular yosh bo`lib, yoshlik davrini surmadi, sevgili ayol bo`lib, ayollik davrini surmadilar, hayotda nima ko`rdilar, faqat tuhmat, qabihlik, fitna kabilar ularning umriga zavol bo`ldilar.

1-bob bo'yicha xulosa

1. Vil'yam Shekspir ijodi ko'p qirrali, uning asarlarini qancha o'rgansak, shuncha yangi qirralari, sohalari topilaveradi. Shuning uchun o'zbek adiblari Shekspir dahosidan o'rganib, o'z asarlarini bunyod qilganlar. Shekspir ijodi bizning zamonamiz uchun bitmas-tugallanmas zamonaviy badiiy xazinadir.

Vil'yam Shekspir va Maqsud Shayhzoda, Odil Yoqubovlar ijodida tanlash muammosining mushtarakligiga e'tiborni qaratsak, ko'p voqealar tasvirida bir xillikni ko'rish mumkin.

2. Buyuk Shekspir tajribasi o'zbek adabiy muhitiga tadbiq etishga imkon tug'diradigan mos material mavjud edi: ijtimoiy ma'nosi, fojeaviyligi, keskin tarixiy to'qnashuvlarga seroblighi, jahonshumul ilg'or ilmiy qarash bilan diniy fanatizm, xurofot va bid'atning to'qnashuviga doir Movarounahrda kechmish musibat voqealar ma'lum ediki, Shayxzoda va O.Yoqubovlar uchun Ulug'bek haqida asar yaratishga qulaylik tug'dirdi.

II BOB. Angliya va Mavorounahrdagi adabiy muhit

2.1. Ulug`bek davri adabiy muhiti

Bu davrda Markaziy Osiyo qadimgi Sug`d, Xorazm, Fargona, Usrushana, Chag`oniyon kabi o`lkalardan iborat bo`lib, G`arb bilan Shark mamlakatlarini bog`lovchi “Ipak yo`li” markazida joylashgan va madaniy jihatdan ancha rivojlangan mintaqani tashkil etar edi.

Bu davrda Markaziy Osiyo Xorazmiy va Fargoniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Ismoil Jurjoni, Marg`iloniy, Zamaxshariy, Mahmud Qoshgariy kabi ulkan olimlar yetilib chiqdi.

Adabiyot sohasida ham Markaziy Osiyo dunyo madaniyatida o`chmas iz qoldirgan nomlar bilan mashhur bo`ldi. Rudakiy, Daqiqiy, Yusuf Xos Hojib kabilar shular jumlasidandir. Badiiy adabiyotda fors, turk va arab tillarida ijod qilinib, manbalarda juda ko`p shoirlar haqida ma`lumotlar saqlangandir. Markaziy Osiyoda ilm-fan, madaniyat rivojida X asr oxiri XI asr boshida faoliyat ko`rsatgan Xorazmdagi shoh Ma`mun boshchiligidagi ilmiy jamoa-markaz muhim rol o`ynadi.

IX asrda maxsus islom ishlari shakllandi. Bu davrda ayrim mualliflar keltirgan ishlar tasnifida dunyoviy (an`anaviy) ilmlar bilan birga arab (islom) ilmlari ham qayd etiladi. Birinchisiga yunonlardan o`tgan falsafa, matematika, fizika va boshqa qator ilmlar kiritilgan bo`lsa, islom ilmlari sifatida kalon, hafis, fikh kabi ilmlar sanab o`tiladi. Movarounnahr bu davrda faqat dunyoviy ilmlarnigina emas, balki islom ilmlarining ham rivojlanish markaziga aylangan edi. Ismoil al-Buxoriy, at Termiziy, Motrudiy, Marg`iloniy, Kosoniy kabi allomalar bu sohada mashhur bo`ldilar.

Shuning uchun biz IX-XII asrlardagi Markaziy Osiyo madaniy yuksalishini Uyg`onish davri, aniqrog`i, ilk Uyg`onish davri deb atashga ham to`liq asosimiz bor. Bu davrning o`ziga xos xususiyatlari mavjud:

- Evropa mamlakatlaridan farqli o`laroq, mustaqillikka erishish va bu mintaqada mustaqil davlatlarning vujudga kelishi jarayoni bilan uzviy bog`liq dir;

- Bu davr madaniy yuksalishi haqida gap borar ekan, ma`naviyatga, Uyg`onish davri madaniyatiga xos quyidagi xarakterli tomonlarni qayd etish mumkin:

- Koinotning vujudga kelishi, boskichlari, olamning tuzilishi, moda va ruhning xususiyatlari kabi umumiy ilmiy falsaviy masalalarga qiziqish, ilm-fan, ma`rifat, ma`naviyatga intilish ijtimoiy rivojlanishning muhim me`zoniga aylanishi;

- Insonni, Koinotni yaratguchining eng oliy mahsuli deb baholash. Avvalo ilm, inson aqli tafakkurini ulug`lash, unga ishonch bildirish, targ`ib-tashviq etish, ularni yaratguchining eng ulug` va yuksak ijodi deb baholash, ma`rifat tarqatish, jamiyat, jamoani yaxshilikka eltish insonning muhim vazifasi deb bilish;

- Axloq, odob, muomalani inson tarbiyasining asosiy maqsadlaridan deb bilish, insonning adolat yuksalish, ma`naviyat, intilishiga yo`l ochish, imkoniyat yaratish, insonparvarlik, vatanga, odamlarga xizmat qilish, insonlar orasidagi do`stlik, o`zaro yordam, ko`maklashuvga chaqirish bu davr madaniyatining yetakchi jihatlaridandir.

- Komil inson rivojlangan davlatchilikda shakllanadi. Bunday davlatchilik esa aql va ilmga, o`zaro kelishuv, birlikka ega bo`lish natijasida amalga oshiriladi. Mustahkam davlatchilik turli ilm-fan tarmoqlarining rivojini ta`minlaydi.

- Mustahkam davlatchilik fozil jamoani vujudga keltira oladi;

- Bu davlat jamoaga rahbarlik, xokimlik qilayotgan shaxsning ma`rifatli, ilmli, axloqiy bo`lishi, jamoani kelishib boshqara olishiga bog`liqdir. Ma`rifatli shoh, jamoa yaratish, davlatchilikni mustaxkamlash bu davr ijtimoiy ta`limotlarining muhim xislatidir.

XIII asr boshida Markaziy Osiyo xalqlari Chingizxon boshliq mo`g`illar bosqiniga uchradi. Katta hududni egalladi, ikki yil jang qilib, shahar, madaniy boyliklarni yo`qotdi, olimu fozillarni o`ldirdi.

XIII asr boshida Markaziy Osiyo o`z mustaqilligini yo`qotdi, u mo`g`ullar tomonidan bosib olindi. Shuning uchun ham Uyg`onish davri deyishimizga sabab,

bunday jarayon – madaniy yuksalish Markaziy Osiyoda XIV-XV asrlarda Mo`g`ul mustamlakachiligidan qutulib, Amir Temur va Temuriylarning mustaqil davlati barpo etilishi bilan bog`liq holda yana bir bor yuz berganini ko`ramiz.

Xalq ommasining ajnabiy istilochilar hamda mahalliy ezuvchilarga qarshi ayovsiz kurashi, Markaziy Osiyoda mo`g`ullar hukmronligini ancha zaiflashtirdi. Shunday sharoitda Amir Temur (1336-1405) maydonga chiqdi, ijtimoiy jarayonda tezda ko`zga tashlandi va mamlakat hayotida juda kata rol o`ynadi.

Amir Temur tarqoq va uzoq urushlardan xonavayron bo`lgan Movarounnahr va Xuroson yerlarini mo`g`ullar mustamlakasidan ozod etib, Yagona, mustaqil va mustahkam davlatga birlashtirdi. Uning markazi etib Samarkand shahri tanlandi.

“XV asrda o`zbek tili va adabiyoti, she`riyati, buyuk shoir va mutaffakkir Alisher Navoiy timsolida o`zining yuqori cho`qqisiga ko`tarildi. Navoiy o`zbek adabiy tilining fazilatlarini har tomonlama ochib, asoslab berdi. Jomiy va Navoiydan tashqari, til muammolari bilan shug`ullangan xoja Jaloliddin Fazlulloh Abu-l-Laysiy, Abul-l-Qosim ibn Abu Bakr Laysiy Samarqandiy hamda Isomiddin Ibrohim ibn Muhammad ibn Arabshoh Isfaronniy kabi yirik olimlarning nomlarini keltirish mumkin.”¹

XIV-XV asrlarda mo`g`illar mustamlakatchiligiga qarshi kurashda Movarounnahr va Xuroson hududida yaxlit, yirik va mustahkam davlat qad ko`tardi. Bu yuksak davlat arbobi, sarkarda sohibqiron Amir Temur va Temuriylar faoliyati, harakati, siyosatining natijasidir.

XI-XII asrlar Movarounnahr va Xurosonda islom tarqalganiga endigina ikki-uch asr bo`lgan, u ma`naviyat hayotning turli sohalariga singib bormaqa edi. XIV-XV asrlarga kelib islom, shariat mustahkamlanishi bilan, tasavvur, ayniqsa, uning xalq hayotiga juda yaqin ko`rinishi – Naqshbandiya tariqatining ustun bo`lishi bilan ko`zga tashlanadi. Bu davr ma`naviy hayotida arab tiliga nisbatan turkiy va forsiy tilning roli kuchaydi. Hozirgi haqiqiy o`zbek tili va adabiyoti shu davrdan boshlandi.

¹ Маънавият юлдузлари. Масъул мухаррир академик М.М.Хайруллаев. Т., 2001, 12-бет.

“Lekin mazmun jihatdan har ikki davr ma`naviyatida, ya`ni umuman Uyg`onish davri ma`naviy-madaniy hayotida insoniy qadriyatlarning yuksak xislatlari – ilmga intilish, bilimni kuchaytirish, aqlni ulug`lash, insoniylik, ruhiy poklanish, axloqiy kamolotga erishuv, adolat, ijtimoiy yuksalish, barcha uchun baxt-saodat, do`stlik-birodarlik, komil jamoa va komil insonni yaratish kabi masalalar olg`a surildi. Ular muhim ilmiy tadqiqotlar, adabiyot, san`at, diniy asarlarning mazmunini tashkil etadi. Bu davrdagi olim, mutafakkir, donishmand, san`atkorlarning ko`pchiligi shu maqsad yo`lida ijod qildilar.

Amir Temur va Temuriylar davrida Movarounnahr va Xuroson gullab yashnagan davlatlardan edi.

Amir Temur ibn amir Tarag`ay 1336 yil 3 aprelda Kesh (Shaxrisabz) viloyatining Xo`ja Ilg`or qishlog`ida dunyoga kelgan. Uning otasi amir Muhammad Tarag`ay barlos ulusiga mansub beklardan, bahodir jangchi, ulamoyu fuzaloga ixlosmand, ilm ahliga homiy va ishtiyoqmand kishi bo`lgan.

Temurning o`g`illaridan Jahongir, Umarshohlar ham har xil janglarda halok bo`lgandan keyin, davlatni boshqarish Shohruh va Mironshohlarga topshirmasdan ko`p ko`ngil qo`ygan nevarasi (Jahongirning o`g`li) Muhammad Sultonni Samarqand hokimi qilib tayinladi. Mironshoh ichkilikbozlikka berilib, aqldan ozganini Temur eshitgach, unga qarshi yurish qiladi, chunki Mironshoh Samarqandga Amir Temur qaytgunga qadar hokim bo`ladi. Muhammad Sultonni ham ajal olib ketgandan keyin Amir Temur o`z taxtiga voris qilib Jahongirning ikkinchi o`g`li Pirmuhammadni qoldirmoqchi bo`ldi. O`g`li Mironshoh aqldan ozgan, Shohruh (Xirotda) davlat ishlari bilan shug`ullanmay qo`ygan, davlatni Shohruh holatini Ulug`bek onasi Gavharshod boshqarardi. Temur o`lgandan so`ng taxt uchun kurash 6 (olti) yil davom etdi. Oxiri toj-taxt Shohruh ko`liga o`tdi. Shohruh o`g`li Ulug`bekni Samarqand hokimi qilib tayinlaydi, o`zi Xirotni qumsab, u yerga ketadi. Akasi Mironshoh turkmanlar urushida o`lgan edi, jasadi Amir Temur yoniga qo`yiladi. Shunday qilib, Ulug`bek 1409 yili Movarounnahr

hukmdori bo`lib faoliyat ko`rsatadi. U taxtga o`tirganda 18 yoshda edi, 40 yil podsholik qiladi. O`z o`g`li Abdulatif padarkushlik qiladi, otasi boshini oldirtiradi.

O`z farzandidan mehr-u oqibat, qariganda hurmat va ehtirom ko`rish o`rniga uning taxtparastlik intilishlarining qurboni bo`lgan, qirq yil podsholik davrida olib borgan qanchalar jang-u jadallarda, chopqinlarda, olishuvlarda emas, o`z farzandi qo`lidan o`lim topgan buyuk inson fojiasi qalbni larzaga keltirmay qolmaydi.

Qallda achinish hissining paydo bo`lish sababi shundaki, fojia muallifi bosh qahramon sifatida Ulug`bekka nisbatan bizda ehtirom va hurmat tuyg`usini uyg`otadi. To`g`ri, Ulug`bek – podsho, u ham hamma podsholar qatori xalqqa ma`lum zulm o`tkazgan, jangu jadallar olib borgan. Uning davrida ham yurt butkul obod, xalq hayoti farovon bo`lib qolgan emas. Aksincha, Ulug`bekning Abdulatif oldida ojiz bo`lib qolgani sabablaridan biri – oddiy xalq uning himoyasiga chiqmaganligida, deb izohlaydi akademik V.V.Bartol`d.

Xo`sh, Ulug`bek shaxsida yozuvchini va bizni rom etgan xislat nima? Qaysi xizmatlari uchun Navoiydek buyuk zot u haqda:

Temurbek naslidan sulton Ulug`bek –

Ki olam kurmadi sulton aningdek... deb yozadi. Buning asosiy sabablaridan biri sulton Ulug`bek faoliyatining ikkinchi va biz uchun muhim qirrasi – uning ma`rifatparvar, olim va fozil kishi bo`lganligidadir. Bunday nodir xislat Temuriyzodalarning aksariyatiga xos edi: Ulug`bek shoir, Bobur – imperator va buyuk shoir va h.k. bir kishining qalbida ana shunday bir-biri bilan sig`ishmaydigan ikki qutbning mavjudligi ularning ko`pchiligini ma`naviy fojiaga olib kelgan edi.

Ulug`bek mirzo qirq yil taxt tebratgan va qilichi qo`lidan tushgan emas. Lekin asar qahramoni hukmdorligi uchun emas, yulduzlar bilan til topishganidan, o`z qo`li bilan rasadxona yaratib, bir ming ikkita yulduzning joylashish o`rnini belgilab chiqqanligi, o`nlab fidoyi shogirdlar tayyorlaganidan ko`ksi faxrga to`ldi. U qilich kuchiga emas, ilm-ma`rifat kuchiga, dunyoni qora kuch emas, go`zallik

o`zgartirishi mumkinligiga ishondi. Bu o`rinda Ulug`bekdan buyuk rus yozuvchisi Dostoevskiy “Красота спасет мир” degan g`oyani ko`chirib olgandek tuyuladi.

Ulug`bek ilmning qudratiga nechog`lik yuqori baho berganligini uning asar boshidagi monologlaridan, qolaversa, shogirdlari huzurida aytgan gaplaridan bilib olamiz.

Ulug`bek qonida oqqan Temur qoni, hukmdorlik burchi bilan qalbidagi insonparvarlik va ma`rifat tinimsiz shiddatli to`qnashuvda yashaydi. Bu ichki tuyg`u unga azob beradi, yuragini qoq ikkiga bo`ladi. Umr bo`yi ana shu ikki qutbni kelishtiraman deb harakat qildi, lekin bu harakatning behuda ekanligini umrining so`ngidagina sezdi. Bu jihatdan Ulug`bekning mahbus sarbardor – Hasan-Ohangar bilan munozarasi ayniqsa o`ziga xosdir. Ulug`bekning o`z ma`naviy inqirozini, fojiasini tushunib yetishi xuddi ana shu suhbatdan boshlanadi deyish mumkin.

Bir odam, mayli u podsho bo`lsa ham, “butun xalqning, insonlarning taqdiri mening qop`limda” deb da`vo qilishi noto`g`ri va xatarli ish.

*Tushunmayman, tushunmayman, shavkatli mirzo,
Taxt qanaka ma`rifatga poydevor bo`lg`ay?
Vaholangki, toj boshdagi fikrga qafas...*

Qarang, qanday dahshatli mushtaraklik: Ya`ni hukmdor go`yo erkin fikrlar qamalgan qafas! Va nihoyat, vulqon kabi portlovchi dahshatli xulosa:

*Istasangiz tiz cho`kayin oyog`ingizga,
Sizga, buyuk qalbli inson, buyuk munajjim!
Ammo sulton Ulug`bekka, sohibi tojga
Bosh egmayman, egolmayman, yo`k, egolmayman!*

Ya`ni, sizga olim sifatida tiz cho`kishga roziman, lekin sulton sifatida bosh egolmayman!

Turli xil vaziyatlarda Ulug`bekdagi mana shu ikkala qutb – olimlik va hukmdorlikning goh unisi, goh bunisi g`olib keladi.

Nobakor farzand Abulatif o`z padari-buzrukvoriga qarshi isyon ko`taradi. Mushkul ahvolda qolgan Ulug`bek ma`naiy madad so`rab bobosi Temur qabriga

keladi. Nima qilsin! Nahotki jangu jadalsiz, qon to`kmasdan yashab bo`lmasa? U bobosi arvohiga qarab nido qiladi:

*Bu kulfatli kunda bergin maslahat,
Tag`in lashkar, tag`in jangu Yarog-aslaha?
Oxiratga qadar shumi, sultonlar ishi?
Temuriylar manglayiga bitilgan shumi?*

Temur nevarasining mushkul ahvolda qolganligining ilm bilan bo`lib, qo`lidagi qilichni bo`shattirib qo`yganligida deb biladi va buning uchun Ulug`bekni koyiydi. Temur arvohining mana bu dahshatli so`zlariga quloq tutinga:

*...Ulug`bekni men ko`rgudek bo`laman hozir,
O`g`lim, sening irodangni yeb qo`ydi kitob.
Sipohiylik rasmlarin qilmayin pisand,
Yo`ldo`zlarning ko`shiniga bo`lding farmondor.
Osmoniy o`lkalarni olmoqchi bo`lib,
Yerdagi naqd diyoringni boy berding qo`ldan...*

Xuddi shu o`rinda Ulug`bekni boshqa Temuriylardan farqlab turadigan asosiy xislatni payqab qolamiz: uning qalbidagi ikkinchi qutb – insonparvarlik va ma`rifatparvar baralla ustuvor keladi:

*Tomirimda garchi yurar Temo`rning qoni
Ammo menda Temurbekning shaddodligi yo`q.
...Turkistonda garchi menga teng keladigan
Mergan yo`g`u, ammo urush ta`bimga yoqmas.*

Bunday tasvir oxir-pirovardida shunday falsaviy xulosaga olib keladiki, taxt, hukmdorlik, zo`ravonlik – bo`lar o`tkinchi hodisalar, ilm-ma`rifat esa abadiydir. Ulug`bek esa olim edi, o`zidan keyingi avlodga boy ma`naviy xazina meros qoldirdi. Bu me`ros abadiy bo`lganidek, Ulug`bekning nomi ham abadiydir.

“Mirzo Ulug`bek” fojiasida tarixiy material va yozuvchi badiiy to`qimasining munosabati ham diqqatga sazovor. Fojia asosida yotgan voqealar mohiyat e`tibori bilan haqiqiy tarixiydir. Ammo muallif Ulug`bek fojiasini har tomonlama yoritish maqsadida bir qator badiiy to`qimaga asoslangan qahramonlar

ham yaratdi. Jumladan, Ulug`bek, Abdulatif, Ali Qushchi, Jomiy, Sakkokiy, Sayid Obid, Gavharshodbegim kabilar haqiqiy tarixiy shaxslar bo`lsalar, Feruza, Piri Zindoniy, Berdiyor, Otamurod, Bobo Kayfiy kabilar esa yozuvchi fantaziyasining mahsuli bo`lib, to`qima qahramonlardir. Shayxzoda Ulug`bekni xalqqa yaqinlashtirib ko`rsatish maqsadida uning sevimli xotini sifatida oddiy bog`bon qizi Feruza, yaqin do`stlari sifatida oddiy xalq vakillari Berdiyor, Otamurod obrazlarini chizadi. Shuning uchun ham fojia so`ngida Ulug`bekning shu do`stlari uning o`limi uchun qotillardan o`ch olishadi.

“Mirzo Ulug`bek” fojiasi boshdan-oxir falsafiy ruh bilan yo`g`irilgan. Asar tili Ulug`bek davri ruhini yorqin aks ettiradi.

2.2. Shekspir davri adabiy muhiti

Uyg`onish harakati mamlakat madaniy hayotida chuqur o`zgarishlarni keltirib chiqardi. Aqliy va jismoniy mehnat faoliyati uchun katta imkoniyat yaratildi. Ilmiy va geografik kashfiyotlar natijasida dunyo chegaralari haqidagi tushunchalar kengayadi. Inson ongli o`rta asr diniy cherkov sxemastikasi va urf-odatlaridan xoli bo`la boradi. Dunyoviy madaniyat, fan va adabiyotning o`sishi uchun keng zamin yaratildi. Ilg`or mutafakkirlar davr talabiga javobni turmushning o`zidan, xalq ehtiyojlaridan axtaradilar.

Angliyada XI asr oxiri XVI asr boshlarida uyg`onish davri adabiy muhiti bo`ldi, u o`zining ta`sirini eski tuzumga o`tkazib, yangi gumanistik g`oyalar, dunyoqarashlar shakllana boshlaydi. Mamlakatda ko`p yillik feodal urushlar bo`lib, qadimgi dvoryan-zodagonlar yo`qoldi, ularning o`rnini yangi bir aralashgan dvoryanlar sanoat va savdo-sotiq ishlarini qo`lga oladi, bu esa Angliyada markazlashgan davlat o`rnatilishiga asos bo`ldi, qirollik hokimiyati progressiv davlat usuli, shakli bo`lib qoladi.

San`at va adabiyot gumanizm g`oyalarini yoyishga jangovor qurolga aylanadi. Yozuvchi va olimlar antik madaniyat tarixini o`rganishga kirishadilar. Garchi uyg`onish davri san`ati antik san`atdan o`zgacha sharoitda yaratilgan bo`lsa

ham, gumanistlar din aqidalarini uloqtirib, qadimgi grek va Rim madaniyatining hayotbaxsh an`analarini tiriltirishga urinidilar.

XVI asrda ijtimoiy hayotda katta o`zgarishlar bo`ladi, pul-tovar munosabatlari rivojlanishi bilan shahar aholisi dehqonlarning xonavayron bo`lishiga olib keladi, yerlari tortib olinib, sanoat tovarlari ishlab chiqaradigan ekinlar ekishga, sanoatni rivojlantirishga kirishadilar, natijala ba`zi norozichiliklar kelib chiqadi: Uot Tayler va Jon Boll boshchiligidagi dehqonlar qo`zg`olonini keltirib chiqaradilar.

Bunday ijtimoiy o`zgarishlar adabiyotda ham o`z ifodasini topadi, ya`ni mehnat qilib pul topish, birovlar hisobiga yashash emas, haqiqiy, adolatli jamiyatda to`g`ri mehnat qilib yashash kabi uyg`onish davri g`oyalari paydo bo`ladi. Masalan, XIV asrda yashab ijod etgan yozuvchi Vil`yam Lengland (1332-1400) o`zining “Qushchi Petr haqidagi xayol” nomli poemasini Yaratdi.

Poemaning markazida turgan obraz Idroq haqiqatni izlashga harakat qiladi, odamlar ko`p kishilardan so`rab, haqiqatning qayerdaligini bilolmaydilar. To`plangan olomon dalada turgan bir ko`nchi Petrdan so`raganlarida, u haqiqatning qayerdaligini bilishini aytadi. U ellik kishi o`rtasida bu olijanob xo`jayin – Haqiqat ixtiyorida ishlab, uning yerini haydab, ekin ekib, yig`ishtirib olayotgani, o`tloqda uning mollarini boqayotgani, uning yordami bilan xilma-xil hunarlarni o`rgangani va bunday mehnatdan sira ham zarar ko`rmayotganini aytib beradi va agar Haqiqat oldiga borishni istasalar, ularga eng yaqin va to`g`ri yo`lni ko`rsatishga tayyor ekanini bildiradi. Bu yo`l mehnat, kamtarlik va sabr-toqatdan iborat yo`ldir.

Poemada shoir oddiy qushchini haqiqat sari yo`l boshlovchi yagona kishi deb ko`rsatadi va qushchi Petr so`zlari vositasida umumiy mehnat g`oyasini ilgari suradi. Dehqon mehnati maqtaladi, jamiyatning sog`lomlashishi va yaxshi lanishining asosiy manbai mehnat ekanligi, ishga qobiliyatli barchaning mehnat qilishi zarurligini ta`kidlaydi. Demak, mehnat qilish, u orqali yashash, obro` orttirish, uni ulug``lashni olg`a suradi, bu esa uyg`onish davri uchun bir zamin edi.

Uygʻonish davriga asos soladigan yozuvchilarimizdan yana biri yirik gumanist Jefri Choser (1340-1400) edi. Choser ham Italiya yozuvchisi Dante kabi oʻz asarlarini oʻz ona tilida – ingliz tilida yaratadi. Uning koʻpgina sheʼrlari, asarlari mavjud.

Ingliz adabiyoti realizmiga asos solgan Choser “Kentberi hikoyalari”da Angliyadagi ijtimoiy tabaqalar hayotining tasvirini ilgorigidek mavhum obrazlar orqali emas, balki real turmush voqealari bilan bogʻliq ravishda keng aks ettiradi.

Asarda koʻp voqealar bilan birga dahshatli epizodlardan iborat hikoyalar ham bor. Cherkov yorligʻi bilan savdo qiluvchi ziyoratchi ochkoʻzlik va xasislik haqida hikoya aytib beradi. Bu hikoyada aytilishicha, uch doʻst oltin topib oladilar. Ulardan biri ovqat keltirgani ketadi, qolgan ikkisi uni oʻldirib, boyligni baravar taqsimlab olmoqchi boʻladi. Birinchisi esa oʻljani yakka oʻzi egallash maqsadida keltirgan ovqatiga zahar soladi. Natijada har uchasi ham nobud boʻladi.

Choser hikoya yaratishda diniy afsonalardan, ritsarʼ adabiyoti, allegorik epos, fablio (masal) va boshqa adabiy janrlardagi materiallardan keng foydalanadi. Asardagi sheʼrlar shakli va mazmun jihatidan oʻrta asr poeziyasi uslubida boʻlsa ham, lekin voqeaning birmuncha keng va real tasvirlanganligi, muallifning oddiy kishilarga xayrixohligi bilan Uygʻonish davri prinsiplariga (talab, qoidalariga) yaqinlashib boradi. Choserning poeziyasi Renessans realizmi uchun poydevor xizmatini oʻtaydi.¹

Bundan keyin Uygʻonish davri faktik materiallar boʻlgan “Robin Gud” haqidagi xalq balladalaridir. Unda ham Robin kambagʻal, pahlavon, uddaburo kishi boʻlib, oʻz guruhiga kambagʻal dehqonlar va kosiblarni toʻplaydi. Amaldagi davlat rahbarlariga, boylarga qarshi kurashadi, boylklarni tortib olib kambagʻal, beva-bechoralarga ulashadi. Bu esa gumanistik gʻoyadir. Hammani teng koʻrush, jamiyat boyligidan oddiy kishilar, mehnatkashlar ham manfaatdor boʻlishini istaydi. Mehnat taqsimotining adolatli, teng boʻlishini xohlaydi.

¹Каюмов О. Чет эл адабиёти тарихи. Т., “Укитувчи”, 1973, 173-бет.

Keyingi gumanist yozuvchi, davlat arbobi Tomas Mor (1478-1535) bo`ladi. U parlament a`zosi bo`la turib, Qirol Genrix VII ga sarmoya bilan yordam bermaslik va boshqa shunga mushtarak, ya`ni qirol reformalariga norozi bo`ladi, qirolning hatti-harakatiga qarshi chiqadi. Qirol huquqlari chegaralanmaganligidan foydalanib 1535 yil Tomas Morni o`ldirtiradi.

Tomas Mor ham oldingi Lengland, Robin Gud, Choserlar kabi haqiqatni ko`tarib chiqmoqchi bo`lgan yozuvchidir. U gumanist ijodchi, gumanist davlat rahbari bo`lgan. U laganbardorlik qilmaydi, xushomadgo`y yozuvchi bo`lmaydi, haqiqat oldida tik turadi, o`limdan ham qaytmaydi. Bu jihatdan Tomas Mor Uyg`onish davri gumanistlariga yaqin turadi.

“Uyg`onish dari Leonardo da Vinchi, Al`bert Dyurer, Jornado Bruno, Kopernik, Rable va Servantes kabi yirik mutafakkir va ulug` yozuvchilarni yuzaga keltirdi. Ular orasida eng hurmatli o`rinlardan birini, shubhasiz, jahon drammaturgiyasining buyuk namoyondasi Vil`yam Shekspir egallaydi.”¹

Uyg`onish davri tarixini, ijtimoty-siyosiy tuzumi va adabiy muhitini o`rganar ekanmiz, biz til materialini ham, filosofik leksikani ham o`rganishimiz lozim. O`z navbatida bu davr filosofik tafakkurlari ham katta ahamiyatga ega.

Shekspir fojialaridagi mazmun ham filologik, ham falsafiy fikrlardir. Ulardan ham lingvistik, ham adabiyotshunoslik, umuman, filologiyaga oid materiallarni ko`p topish mumkin. Ijtimoiy tuzum voqealari, falsafiy fikrlarga boy bo`lgan Shekspir hamma davrlarda, hamma xalqlar tomonidan o`qiladi, o`rganiladi.

Shekspir obrazlari o`z shaxsiy hayotlari uchun emas, balki butun jamiyat tartibini saqlash, butun jamiyat illatlarini tuzatishni o`z oldiga maqsad qilib qo`yadi. Shuning uchun Shekspir fojialari ijtimoiy-siyosiy voqealar bilan birga, falsafiy fikrlarga ham boy. Masalan, Shekspir talabi davlatga ilimli, adolatli, siyosiy tomondan savodli kishi rahbar bo`lsin, shunday xususiyatlarga ega emasmi, u rahbarlikni topshirsin.

¹ Каюмов О.. Чет эл адабиёти тарихи. Т., “Укитувчи”, 1973, 183-бет.

O`rta asr feodal zulmiga va boshqa har qanday yovuzliklarga qarshi kurash ruhi bilan yongan yozuvchi rivojlantirib borayotgan kapitalistik sharoit ham kishilarning ezgu umid-orzularini ro`yobga chuqarmayotganini ko`radi va tug`lib kelayotgan burjua munosabatlarga tanqidiy qaray boshlaydi. Shuning uchun yozuvchi “Gamlet”, “Otello”, “Qirol Lir” kabi fojialarni yozadi.

Shekspir o`z xronikalarida Angliyaning birlashishiga to`squinlik qilayotgan o`zboshimcha feodallarga qarshi qattiq qo`llik bilan kurash olib boruvchi kishilarni qo`llab, shaxsiy manfaatlarga berilib ketgan va davlatni boshqara olmaydigan darajada qobiliyatsiz qirollarni qoralaydi.

Monarxiyani feodal anarxiyaga qarshi qo`ygan Shekspir davlatga kuchli va adolatli xalqparvar qirol rahbarlik qilsin, agar mamlakatni idora qiluvchi hokim yuksak saviyali bo`lmasa, u zudlik bilan taxtdan tushurilishi kerak, degan fikrni yo`qlaydi.

Shuning uchun Shekspirni jahon o`rganadi. U jahon tillarining ko`piga ko`p yillardan buyon tarjima qilib kelinmoqda. Uni hozirgacha tarjima qiladilar. Masalan, uning asarlari O`zbekistonda 1934 yildan (Cho`lpon tarjima qilgan) to 1990 yillargacha (oxirgilarini buxorolik shoir Jamol Kamol tarjima qilgan) tarjima qilib kelinmoqda. Demak, o`zbek kitobxonlari hozirgacha buyuk dramaturg Shekspir ijodiga zo`r qiziqib kelmoqdalar.

Filologiya fanlari doktori M.Q.Baqoeva shunday yozadi:

“Ul`Yam Shekspir asarlarining o`zbek tiliga qayta-qayta va yil sayin ko`proq tarjima qilinishi o`zbek adabiyoti namoyandalarining bu buyuk iste`dod sohibining ijodiga qiziqishi hech qachon susaymaganligidan dalolat beradi.”¹

Shekspir faqat O`zbekistondagina emas, u butun jahonda hozirgacha o`girilmoqda, u o`rganilmoqda, hozirgi O`zbekiston uchun ham uning davlat rahbarligi sohasidagi falsafasi dolzarb bo`lib turibdi.

¹Бакоева М. Англия, АКШ адабиётидан узбек тилига шеърят таржима ва киёсий шеършунослик муаммолари. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. Т., 2004, 12-бет.

Shekspir hayot lazzatlari go`zal insoniy fazilatlar, otashin sevgi, vafoli do`stlik, ayollar huquqiy masalalarida uyg`onish davri bilan ifodalangan chuqur gumanistik g`oyalarni ilgari surgan ajoyib komediyalar yaratib, ularda pand-nasihatdan iborat feodal aristokratiya axloqiga kishining tabiiy his-tuyg`ularini qarshi qo`ydi.

“Kiyik qizning quyulishi” nomli komediyasida Shekspir o`rta asrlarda davom etib kelgan “yovuz ayol” haqidagi mavzuni qayta ishlab, yangi yo`nalish beradi. Katerina ismli qiz o`jarligi bilan atrofdagilarni hayratda qoldiradi. Otonasi ham, boshqalar ham unga ta`sir eta olmaydilar. Katerinaning “kiyikligi” uni o`rab olgan yaramas muhitning oqibati edi.

Shekspir tragediyalarida ko`ngilsiz hodisalarni tasvirlashda yozuvchi pessimistik kayfiyatga berilmaydi, aksincha turmushga ishonch tug`diradigan optimistik ibratli vositalar topadi. Bu narsa mavjud jamiyatda yangilikning eskilik ustidan tantana qilishini ko`rsatishda aniq namoyon bo`ladi.

Turmushni atroflicha o`rganib, inson xarakterining mohiyatini ochish, uning ko`p qirrali tomonlarini haqqoniy yoritish, inson intilishlarining tub sabablarini har taraflama aks ettirish Shekspir dramatik mahoratining asosini tashkil etadi. Dramaturg ba`zi yozuvchilar kabi tomoshabinga pand-nasihat qilishni asosiy maqsad qilib qo`ymaydi, balki uni voqelikni chuqur tushunish, yuz berayotgan hodisalardan tegishli xulosalar chuqarib olishga majbur qiladi.

Shekspir realizmining kuchi feodal tuzumi halokatini, paydo bo`layotgan burjua jamiyatining insonlar uchun fojiaiyeligini sezish hamda bu jamiyatning razolat va qabohatlarini hayotiy obrazlarda haqqoniy gavdalantirishdadir.

Shekspir oltin tamagirlik kishini yo`ldan ozdirishini alohida ta`kidlaydi. Chunonchi, uning qahramonlaridan Romeo dorifurushdan oltin barobariga zahar sotib olib: “Zaharni sen sotmading, balki men senga sotdim”, deb oltinning halok etuvchi ta`siri zaharnikidan ham kuchli ekanini tasdiqlaydi.

Turmushning achchiq-chuchugini o'z boshidan kechirgan va hukm surayotgan adolatsizlikni fosh qilib: “Gunohingni oltin bilan jilolantirsang, unga qonun nayzasi ham o'tmay sinadi”, dedi istehzo bilan kekxa Lir.

Shekspir tragediyalaridagi ko'pchilik salbiy obrazlar mol-dunyoga o'ch, shuxratparast, xudbin va hiylagar shaxslardir. Bular dastlabki kapital to'lash davrining vakillari Klavdiy, Yago va Makbetlar bo'lib, ular o'z shaxsiy manfaatlari yo'lida qonli jinoyatlardan ham qaytmaydilar. Bularga qarshi o'laroq Shekspir yuksak insoniy fazilatlarini o'zida mujassamlantirgan pok tabiatli Romeo, Gamlet, Otello obrazlarini madh qiladi.

“Shekspir yaratgan shaxslar, - deb yozadi Pushkin,- Mol'erdagi kabi biror ehtiros, biror qabohatning mohiyatini ifodalovchi tiplargina emas, balki bir talay his-tuyg'ular, ko'pgina qilmishlarni o'zida gavdalantirgan jonli odamlar sifatida mujassamlanadiki, muayyan sharoitlar ularning xilma-xil va ko'p qirrali xarakterlarini tomoshabin ko'z oldida rivojlantiradi.”¹

Qahramonlarning nutqi ularning jamiyatda tutgan o'rniga qarab belgilanadi. Masalan, Gamletning nutqi haqiqatni anglashga intilgan, har tomonlama bilimdon kishi – gumanistning asosiy xususiyatlarini yaqqol ko'rsatadigan kinoya va aforizmlarga boydir. Xarakterlarni individuallashtirish, dastlab ular nutqining o'ziga xos bo'yoqlarini topa bilishda aks etadi. Otello uchun mahbubasining badani – “qordan ham oq”, “marmardan silliq”, uyqudagi Dezdemon – ochilib turgan gul, uning o'ldirilishi – kun va oyning tutilishi bilan teng. Yagoning iboralari, tilidagi obrazlilik o'ziga xosdir. U atrofini o'rab olgan muhitni hayvonot-xonaga o'xshatadi. Yago leytenant Kassioni kamsitadi; sodiq xizmatchini – eshak, odamlarni – qarg'alar bilan taqqoslaydi. Yagoning gaplari qo'pol, Otelloning iboralari nozik, yoqimli va chuqur ma'nolidir.

¹ Пушкин-Критик. ГИХЛ, М., 1950, стр.412

2.3. Ingliz va o'zbek yozuvchilari ijodlarining mushtarakligi

Buyuk ingliz drammaturgining hozirgi o'zbek yozuvilari ijodiga hayotbaxsh ta'siri, ayniqsa, "Mirzo Ulug'bek" tarixiy fojiasida o'zining eng mukammal va mujassam ifodasini topdi. Tarixiy voqealar mislsiz Shekspirona badiiy talqini o'ziga xos, takrorlanmas Shayxzodaviy ziyraklik, mahorat bilan Ulug'bek haqidagi asarda tatbiq etildi. Ulug' Temuriy munajjimining hayoti va faoliyati haqidagi fojia bilan tanishar ekanmiz, ko'z o'ngimizda, dilimizda, shuurimizda Vil'yam Shekspir – Maqsud Shayxzoda – Ulug'bek siymosi, mahorati, dahosi gavdalana boshlaydi. Vil'm Shekspir o'z asarlarini tabiat bilan bog'liq holda, uning quchog'ida, maydonida tasvirlaydi, samo predmetlariga murojaat qiladi, umuman tabiatni eng avval tasvirlaydi. Gamlet bilan marhum qirolning arvohi tunda uchrashadilar. Daniyada sodir bo'lmish deb tasvirlangan voqealarning butun dahshati tun vahimasi bilan qo'shib, allaqanday chuqur ruhiy iztirob va sirlilikni yuzaga keltiradi. Vaqti nihoyatda chegaralangan qisqa muddatlik dahshatlik uchrashuv vahimasi, sirliligicha o'tayotgan tong esa, boshlangan el hamda xo'rozlarning qichqirig'i go'yo jo'r bo'ladi.

Qirol Lir taxti-tojidan voz kechganidan keyin, toshbag'ir, qattol qizlari Goneril'ya bilan Reganing quvg'ini ostida, o'z a'yonlari bilan dahshatu sahrolarda darbadar kezib yurarkan, uning shamol, jala, qyun, momoqalldiroqqa yuzlanib, ularni "ko'namak odamlarning naslini quritish"ga da'vat etishi nihoyatda ta'sirchan. Zabtiga olayotgan barcha tabiiy bo'yoq berishga, yanada chuqurlashtirishga xizmat qilayotganday tuyuladi. Insonning fe'l-atvori, qiyofasi, qiliq-harakatlarini tabiiy hodisalarga mushtarakligi ma'lum. Shamolning lunji-yu, tabiiy ofatlarning razil hokimlarga qarshi farmonbardor mulozimlarga nisbat berilishi Shekspirona o'ziga xos tasvirni keltirib chiqargan.

O'zbek yozuvchilari ana shu xislat-tasvirda tabiiy hodisalarning insoniyligi va insoniy hodisalarining tabiiyligi mahoratidan juda ustalik bilan foydalanadilar.

Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug`bek” tarixiy fojiasida ham, Odil Yoqubovning “Ulug`bek xazinasi” tarixiy romanida ham zaminu koinotga oid tabiiy hodisalar tasviriga keng o`rin berilgan. Bilamizki, oy, qo`yosh, yer kurrasi, yulduzlar boshqa asarlarda bo`lgani singari, shunchaki obraz yoki personajning xarakteri, ichki ruhiy dunyosi, kayfiyatini ifodalashga xizmat qiluvchi badiiy tasvir vositasigina emas, balki ulug` astronom faoliyatida ilmiy tekshirish ob`ektlari ham hisoblanadi. Qirq yillik mislsiz qaynoq faoliyati davomida buyuk munajjim o`z rasadxonasida bir mingu o`n sakkizta yulduzning holatini aniq belgilab bergan. Albatta, yuqorida nomlari eslatib o`tilgan asarlar astronomiya tarixiga oid ilmiy risola yoki monografiya emas, balki badiiy asar, binobarin, ularda ham barcha samoviy va zaminiy narsa va tushunchalar badiiy ma`noni ifodalashga xizmat qildirilgan. Lekin, baribir, bu samoviy-zaminiy, tabiiy-ijtimoiy hodisalar badiiy talqinga o`tganda favqulotda ajib, “o`zgacha”, g`oyatda ta`sirchan ma`no kasb etadi.

Ulug`bek monologida olim – shoir – hokim – inson siymosi mujassamlangan: olimning o`z mehnatidan mamnunligi, Oy – Ulug`bek “uchrashuvi”da allomaning shoirona tuyg`ulari, hukmfarmalik xudbinligidan noroziligi va insoniy g`ururga da`vat g`oyat ustalik bilan omuxta qilingan. Oyning “beli bukikligi ” Ulug`bek saltanatining o`sha vaqtdagi holati, inqiroziga ishora; to`rt-besh kundan so`ng Oyning “belini rostlab, qomatini to`g`rilashi” Ulug`bekning ezgulikka umidvorligini anglatadi. Bundan tashqari, allomaning Oyga “oq yo`l” tilab “oy borginu omon qaytgin” deyishi yerning tabiiy yo`ldoshi bilan do`stona, samimiy munosabatini ajib bir tarzda ifodalaydi. Oy, Ulug`bekning nazarida, faqat yerning tabiiy yo`ldoshigina emas, balki insonning munis hamrohi, yuksaklik timsolidir. Umuman, asarning boshidan oxirigacha ana shu yuksaklik bilan tubanlik birgalikda va o`zaro kurash holatida olib tasvirlanadi. “Sultonlar o`rtasida donishmand, donishmandlar tepasida sultonlik” mavqeini egallagan Ulug`bekning lirik-dolg`ali monologida ham yuksaklik va tubanlik bir-biriga ajoyib tarzda zid qo`yib tasvirlangan:

*“Esimdadir, bir kun ustoz qozizodaning
Qo`llaridan o`pganimni ko`rganda bobom,
Menga tanbeh berib – o`g`lim! – degan edi u.
Erkak qo`lin, Aflotun ham bo`lsa u kishi,
Shaxzodalar o`pmog`i butkul nojo`ya,
Dunyo sening oyog`ing ostini o`pmog`in lozim!”*

Biroq bobosi Amir Temo`rning bu amrini dono nabira o`z qabrida bamisoli “chechaklarning kurtaklariga kuz cho`lidan esib kelgan ilk shamol” deb baholarkan, uning o`z xulosasi va e`tiqodi shunday:

*Insonlarga aytibturdim: boqqin samoga,
Qancha toza va musaffo, farahbaxsh zebo.
Ey odamzod, ibrat olgan yulduzlardan sen
Xayrihohlik va balandlik xislatlarida,
Shaltoqlarda ag`anamagin, ko`taril, yuksal,
So`qir baxtdan ko`rar ko`zli baxtsizlik afzal.*

Bu tarzda gi yuksaklik va tubanlik, adolat va manfurlik, vijdon va razolat to`knashuvlariga Vil`yam Shekspirda benazir tasvir manzaralarini ko`plab uchratamiz. Bular: Olijanob shaxzoda Gamlet bilan uning manfur muhiti (“Gamlet”), qora mavr – oq ko`ngiljangchi, mard Otello, uning vafodor, sadoqatli, pok rafiqasi Dezdemona bilan olchok, munofiq, abrax Yago (“Otello”), soddadil, insonparvar, saxiy qirol Lir bilan uning riyokor, oqibatsiz, sotqin qizlari Goneril`ya, Regana va ularning atroflaridagi ko`pchilik kishilar (“Qirol Lir”).

Samoviy mavjudodlar: oy, yulduzlar sayyoralar turkumi: Dubbi Akbar, Somon yo`li va xokazolar Odil Yoqubovning “Ulug`bek xazinasi” romanida ham uchrab turadi.

Ulug`bekning momosi Saroymulk xonim tasavvurotida esa yulduzlar tirik va farahli, ular “Xudoning farishtalaridur”, farishtalar esa “Mehribon bo`ladir”. “Ulug`bek xazinasi”ning e`tiborga loyiq yana bir jihati borki, o`sha-o`sha hilol, o`sha-o`sha Zuhro. Nihon, Hulkar va hokazo ming-minglab sanoqsiz yulduzlar har bir obraz va personajga, ularning ayni holatdagi ruhiy kechinmalari, tuyg`usi, kayfiyatlariga qarab, turli-tuman “qiyofada” gavdalanidilar. Masalan, Ulug`bek saltanati inqirozga uchrab, koraguruhchi mutaassib ruhoniylar g`olib kelarkan, yurt da parokandalik, tushkunlik, umidsizlik avj olganida, bobosi Salohiddin

zargarning xonadoni hur fikrli oqila qiz Xurshida bonuning idrokida bir zindon bo`lib ko`rinidi, “masjid gumbaziga qadalgan kumush hilolday bir tilim Oy(ning) ... zaif shu`lasida” hamma narsa g`arib ko`rinur, “Yalang`och daraxtlar yo`lun gadolarday dildirab qolganday” tuyulardi unga.

Mushtaraklik bir yozuvchining boshqa bir adib ilgari surgan g`oyani ijodiy rivojlantirib, yangi adabiy konseptsiya yaratishga sabab bo`lgani ham, bir qalamkashning boshqa bir ijodkor asari yoki asarlariga yuzaki taqlid qilishini ham anglatishi mumkin. Vil`yam Shekspir asarlarining o`zbek yozuvchilari ta`siri shunda namoyon bo`ladiki, uning ulkan tajribasi bizning adiblarimiz uchun mahorat saboqlarini yetkazuvchi kattakon ijodiy maktab vazifasini o`tadi.

Shekspir an`analarining davom ettirilishini Maqsud Shayxzoda ijodiga tatbiqan aytiladigan bo`lsa, bu ikki o`rtadagi mushtarakliklardan sira ham cho`chimaslik kerak. Shekspir asarlaridagi ko`p detallar, voqealar “Mirzo Ulug`bek”da ham tez-tez uchrab turadi.

Ingliz drammaturgining Shayxzoda ijodiga barakali ta`siri uch manba va vosita – Shekspir tajribasi, mahorat sirlarini o`rganish, asarning qardosh ozarbayjon tiliga qilingan tarjimalari bilan yaqindan tanishish, ikkita tragediyasini (“Gamlet” va “Romeo va Jul`etta”) o`zbek tiliga o`girish orqali yuz berdi. Shu bilan birga, bu ta`sir badiiy ijodning deyarli barcha koordinatlarida o`z aksini topdi. Asar konfliktini talqin etish, obrazlar xarakterlarini yaratish va ochish, shuncha mos ravishda ularning tili va uslubiga tarixiy milliy ishlov berish, hayotda voqe bo`lgan real tarixiy faktlar bilan adabiy to`qima namunalarini qo`shib, yaratilayotgan san`at asariga yaxlitlik bag`ishlashda ustoz-shogird – Shekspir-Shayxzoda hamkorligi bo`rtib turadi.

“Mirzo Ulug`bek”da Ulug`bek – Firuza munosabati “Gamlet”da shaxzoda – Ofeliya, “Otello”da mavr Dezdemonna munosabatlariga o`xshab ketadi. Shayxzoda yaratgan fojiada ham bosh qahramon Firuzaning halolligi, pokligi, samimiyati uchun jon-dilidan sevadi, lekin Daniya shaxzodasi singari, hayotdagi bosh maslagi va matlabi uchun o`z mahbubasini beixtiyor qurbon beradi: rad etilgan Ofeliya

halok bo`ladi, Shayxzodada esa Samarqand sultoni Firuzaning tamoman gunohsiz ekanligini bilsa-da, o`z qalb do`stini “seva-seva”, unga dabdurustdan... taloq xati jo`natadi. Chunki Ulug`bek tarafida ham, uning mavqeidan qaraganda, juda asosli dalil bor: garchi Firuza nohaq malomatga qolgan bo`lsa-da, shohning nomi har qanday shubhadan, fisqu-fujurdan xoli bo`lishi kerak.

Yago Dezdemonaga manfura tuhmat qilar ekan, Otello bora-bora qattiq shubhaga tushadi. Onasi Gavharshod bilan o`g`li Abdulatif ham, til biriktirib bo`lsa kerak, Ulug`bekka Firuzani “buzuqlikda” ayblab, qabih tuhmat qilar ekanlar, u ham dastlab chorasiz bo`lib qoladi, shubhaga tushadi va suyukli xotinidan haqiqatni ehtiyotkorona surishtira boshlaydi. Lekin shuni aytish kerakki, Ulug`bek shubha ichra yonsa-da, Otello singari hissiyot va jazavaga berilmaydi, balki Gamlet singari, chuqur mulohaza bilan ish ko`radi: “Mulohaza muhabbatdan chiqdi ustunroq”, - deya iqrar bo`ladi u Shayxulislomga. Hatto makkor volida riyokor o`g`il Firuzaga ko`ra bila malomat toshlarini otsalar-da, Ulug`bek shubhalanib qolganida, Gamlet singari, xotinlar “dastidan” dod deydi, lekin hatto: shunday og`ir iztirob ichida ham, aybni qizga to`nkamaydi, balki o`zining yoshi ulg`ayib qolganidan ko`radi.

“Gamlet”dagi Gertruda bilan “Mirzo Ulug`bek”dagi Gavharshod o`rtasida ko`z ilg`amas yaqinlik bor. “Nikohda qilingan ahdu paymonni qimorboz garoviga aylantirib”, qirolga zahar berib o`ldirishda qatnashgan hamda ko`p o`tmay o`zining qotil qayn ukasiga erga chiqib olgan Gertruda hokimiyatga intilib, uni qo`lda saqlab qolish uchun keyinchalik har qanday razillik, fisq-fasod va qurbonliklardan ham o`zini tiya olmaydi. Gavharshod begim-chi? U ham hukmfarmo, hokimiyatga intiluvchi o`ktam, tadbirkor ayol, o`g`li Ulug`bekka tik qarab, dangal deydi:

*Ulug` Mirzo, bu saltanat Temurbekniki,
Unga voris Shohrux Mirzo bo`ldi, otangiz.
Otangizdan keyin Temur xonadonida
Yoshi ulug`, fikri to`lug`lik – validangiz.*

Gavharshod zimdan fitna yuritadi. Temuriylar odatiga ko`ra, uning tarbiyasida o`sib ulg`aygan nabiralari – Temuriy shahzodalar noahil, toj-taxt uchun o`z og`a-inisi, qardoshi, hatto padarini ham ayamaydigan qurbon etishdan hazar qilmaydigan, muhoriba ishqibozlari, toshbag`ir xunxo`r kishilar bo`lib yetishadilar. Gertruda bilan Gavharshod, Yago bilan Abdullatiflar garchi boshqa-boshqa din kishilari, tamomila bo`lak asr va milliy muhit vakillari bo`lsalar-da, ammo ular bir toifadagi mushtarak tiplar bo`lib, bir-birlarini tarjimasiz ham tushuna oladilar.

Zamonasining illatlarini fosh etishda Vil`yam Sjekspir turli-tuman vositalardan keng foydalanadi: kishilarni g`ayri odatiy yoki g`ayri normal ruhiy holatga soladi. Masalan, Gamlet o`zini telbalarday tutadi (atrofdagilarning uni “devona” deb uylashlariga ishontiruvchi poyma-poy gaplar, jag`dor pichinglar, antika qiliqlar qiladi). “Qirol Lir”dagi masxarali gaplari, lukmalari, izohlarida “masxaravozlik”dan kura chuqur hayot haqiqati, mulohazalarida sayoz odamlar uchun yashirin, sirli temir mantiq bor. “Mirzo Ulug`bek”da ham bunday “yordamchi” vositalardan juda mohirona foydalanilgan (Bobo Kayfiy, Qalandarlar). “Daniya - zindon”, - deydi Gamlet, “Ulug`bek yuk, demak butun shahar zindon-da”, - deydi Bobo Kayfiy. Shu o`rinda xibsga xitob qilingan Bobo Kayfiy “Zindonmi? Eh, u bizning o`z xonamiz-ku...?”, - deb o`z “ixtiyori” bilan u yoqqa ravona bo`larkan, aftoda chol tilida quyidagi mashhur:

Buxoro kuvvati islomi din ast,

*Samarqand sayqali ro`yi zamin ast...* - bayti ham o`tkir zaharxandalik va piching aralash jaranglaydi.

“Otello” – “Mirzo Ulug`bek” qiyosida qiz qochish manzarasi Brabantsio – Doj – Dezdemonna – Otello Sayid Obid – Ulug`bek – Shayxulislom munosabatlarida ochib silsilasida ham berilgan. Qizig`i shundaki, Dezdemonaning o`z otasi bexabar qolib, uning ixtiyoridan tashkari Otelloga turmushga chiqish voqeasi avval keskin boshlanib, so`ngra qizning irodasi, Brabantsioning noiloj ko`nishi va Dojning oqilona tasallisi bilan “tugaydi”. Bunda keyingi sohalarda endi Brabantsio chol qatnashmaydi. Lekin o`quvchi (tomoshabin) shuurida bu voqea qissaning so`ngigacha go`yo “davom etadi”. To`g`ri, Dezdemonna bilan Otelloning

jasur, sadoqatli amri va irodasi tantana qiladi. Ammo, oxir-oqibat Brabantsioning bashorati, nadomatlar bo`lsinki, to`g`ri bo`lib chiqadi:

So`z so`zligicha qola berar, ishonmayman, bas.

Quloq oru ichgan bilan tuzalmas.

Munofiq Yago tufayli Otello Dezdemoni hayoti fojia bilan tugaydi: Har ikkalasi ham irqiy hasad va mash`um bo`hton qurboni bo`ladilar.

“Mirzo Ulug`bek”da ham qizning “xuddi shunday” qochish manzarasi tamomila boshqa maqsadga, o`zgacha syujet yo`nalishi va kompazitsion qurilishga, bo`lakcha yechim hamda falsafiy xulosalarga xizmat qildirilgan. Bu yerda ham diniy-irqiy g`araz, xusumat va bundan kelib chiqadigan tajovuz ishtirok etadi, ammo bo`larning chirkin tig`i Gaffor bilan qizga emas, balki Ulug`bekning o`ziga qarshi qaratiladi. (Sayid Obid o`g`li Abbos orqali Ulug`bek-Firuzaning ma`sum hayotiga kasd qiladi).

Vil`yam Shekspir ko`pchilik tragediyalarida, jumladan, “Qirol Lir”da feodalizm sharoitida sinfiy tengsizlik, ijtimoiy zulm, irqiy va milliy istibdod hukmronlik qilgan bir vaziyatda oilaning inqirozga yuz tutishi, uning a`zolari o`rtasidagi munosabatlarning buzilishi juda katta falokatlarga olib kelishi mumkinligini tasvirladi.

“Gamlet”da Klavdiy – ukasi Gertruda – shahzoda hamda Poloniy – Laert – Ofeliya, “Otello”da Mavr – Dezdemoni, Yago – Emiliya, “Qirol Lir”da Lir – Goneril`Ya, Regana – Kordeliya va boshqa obrazlar Sharkda Uyg`onish davrining kech pallasi, rivojlangan feodalizm tuzumi davrini qalamga olgan Maqsud Shayxzoda ham bu haqiqatni (boz ustiga, haqiqatda sodir bo`lgan ma`lum voqeani) chetlab o`ta olmas edi.

O`z onalarining qilmishlaridan tug`yonga kelgan Gamlet deydi:

Butun dunyo o`zining harakatida –

Naqadar tinch, be`mani va tumtoq ekan!

Mirzo Ulug`bek deydi:

Hup g`alati zamonda Yashar ekanman

.....

Qalbimdagi haroratni insonga bo`lib,

Evaziga olmoqdaman sovuq g`arazlar.
O`z qizlari – “urg`ochi arslonlar” Goneril`ya bilan Regenaning yovuzligidan darg`azab bo`lgan Lir kuyinadi:

Nima qilsin, o`z gunohi: Sakko qush kabi
Shu qizlarni tug`ib qo`ygan uning o`zi-ku.
Makkora va buzg`unchi volida Gavharshod, murtar o`g`il Abdullatif dastidan Mirzo Ulug`bek hayron, lol, sarson:

Meni tuqqan ona bundok: Mendan tug`ilgan –
O`g`il undoq! Ey, kajraftor falak, uyalgil!
Yagoning tuhmat hamda vasvasalari tuzog`iga ilinib qolgan Otello sodir bo`layotgan voqealarga sabab izlaydi:

Ishqim uchun osmon menga bermoqda jazo.

O`z validasi va farzandi sevikli xotini Firuzaning sha`niga bunchalik qattol tuhmat qilayotganlarining boisini anglayolmagan Mirzo Ulug`bekday bir donishmand ham barmog`ini tishlaydi:

...Firuzaning sha`niga tuhmat:
Yoki uning biron aybi bormikan bunda!
Yoki osmon kitobini varaqlab ochib,
Sirlarini o`rganmoqchi bo`lganim uchun
Falak mendan qasos olish payiga tushgan!

Maqsud Shayxzoda o`zining ustoz Shekspir ijodxonasidan ko`p ta`lim oldi. So`z san`atining mu`jizakor kuchidan foydalanib, insoniyat baxti-saodati yo`lida eskirmay, oxiri to`kilmay, hormay-tolmay xizmat qilayotgan salmoqdor gap aytish taomilini Shayxzoda Shekspirdan qabul qildi.

“Gamlet” tragediyasida konflikt zamona nosozligidan o`zini “telbalikka” solgan mutafakkir shahzoda bilan bevafo onasi Gertruda, otasining toji, taxtu-baxti va malikasini o`g`irlagan amakisi, ularning atrofidagi saroy ahillari o`rtasidagi ziddiyat, nifoq, u chalasi, intiqom hissidan iborat emas. Bular barchasi konfliktning zohiriy (ichki), sababiy va mundarijaviy tomonlaridir. Uning botiniy (tashki) mohiyati, shundan kelib chiqadigan mazmun esa Daniyani zindonga aylantirgan mavjud tuzum va tartibotlar, inson mohiyatini razillashtirishga sabab bo`luvchi

saroy muhiti, xudbinlik, sotqinlik, munofiqlik, riyokorlik, tubanlik, olchoqlikdan chuqur norozilik hamda ularga qarshi kurashni taqozo etadi.

“Mirzo Ulug`bek”da konflikt tarixan asoslangan va o`tmish achchiq hayot haqiqati tomonidan tasdiqlangan bo`lib, zamona nosozligini ifodalagani holda, mutaassiblik bilan hur fikrlilik, parokandalik bilan iqtisodiy, milliy-territorial va ilmiy birlashish, yaqinlashish g`oyasi xotin-qizlarga munosabat, milliy, diniy, xurofiy, irqiy muammolar xususidagi islom aqidalari bilan o`z davriga nisbatan g`oyat ilg`or ilmiy va ijtimoiy qarashni o`zida aks ettiradi.

Ko`rib turibmizki, “Gamlet”dagi juda ko`p narsalar: shaxs erkinligi, haq-huquqlari, mustabid hokimiyat keltirib chiqargan barcha fojialar, xususiyl mulkchilik hissining oilani, keng ma`noda esa butun jamiyatni chiritish illatiga taalluqli g`oyalar “Mirzo Ulug`bek” fojiasida ham mavjud. Konfliktning allaqancha belgi va alomatlarigacha; ota-bolaning sodiqligi (Klavdiy – Gamlet; Shohruh Mirzo – Ulug`bek Mirzo), ona-bola o`rtasidagi ixtilof (Gertruda – Gamlet; Gavharshod – Ulug`bek), yigit bilan qizning sof sevgisi, er-xotinning birbiriga sadoqat (Gamlet – Ofeliya; Ulug`bek – Firuza), buzrukvor padar (bobo) arvohi (ruhi) bilan o`z ilg`or dunyoqarashi tufayli charxi qatraftor inqiroziga uchragan farzandi (nabira)ning uchrashuvi (bahslashuvi, xojatbarorlik) va hokazolar. Biroq mazkur ikki asarning umumiy modellaridagi tipologik mushtarakliklar, syujet – kompozitsion chizik va yunalishlardagi yaqinlik monandliklar muhoyasa qilinayotgan fojialardan keyingisining badiiy-kontseptual mustaqilligi, mohiyatan o`zgachaligi va originalligiga rahna solmaydi. Zotan, “Mirzo Ulug`bek”da “Gamlet”da bo`lmagan ko`p narsalar ham bor, buning ustiga, Shayxzoda qissasining Shekspir tragediyasidagi mushtarak jihatlarida ham tamomila yangi ma`no, yangicha talqin va yangicha xulosalar muhayyodir.

- “Gamlet” tragediyasining bosh qahramonida asarda yuzaga keltirgan maxsus vaziyat tufayli, intiqom hissi kuchli va bunday ruhiy omil asarning boshidan oxirigacha o`zluksiz davom etadi; “Mirzo Ulug`bek”da esa qatl etilgan buyuk Mirzo uchun intiqom olishni tasvirlashga kelganda...fojia tugaydi

(Ulug`bek umrining so`nggi yillari, nihoYasi va qotildan o`ch olish manzaralari Odil Yokubov romanida “davom ettirilgan”);

- “Gamlet”da tasvirlangan voqealar “Daniya- zindon” davriga to`g`ri kelsa, “Mirzo Ulug`bek”da bosh qahramon qatl etilgandan so`ng Samarqand (to`g`rirog`i, butun Movarounnahr) – zindonga aylanadi;

- “Gamlet”da Shaxzodaning “o`lim yoki qolish” (to be or not to be) haqidagi mashhur monologida mavh bo`lgandan so`ng “noma`lum dunyo”ga jo`nash xavfi, bu sirli “diyor”ni hech kim ko`rib qaytmaganligi (demak, uning borligi yoki yo`qligiga hech kim kafil bo`lolmasligi)dan tug`ilgan holat kishilarni jur`atsiz qilib qo`yganligi, xuddi shu omil ularni “tirikchilikning ziri-borida hansirab yurmaklikka” majbur etadi.

“Mirzo Ulug`bek”da esa o`limga munosabat bunday:

Men hech qanday tahlikadan hayikmayman, yo`q,

Men o`limni xokim emas, kul deb sanayman.

Uni falak ovchisining ko`ppagi deyman.

Ana shu g`oyat optimistik tezis Ulug`bekning barcha sa`y-harakatlari va faoliyatining asosini tashkil etadi;

- Daniya shaxzodasining ideali insonning diyonatli va sof muhabbat egasi bo`lishi, pokligi, ozodligi, rostgo`yligi, haqqoniyligiga erishishdir. Bu yo`ldagi barcha to`siqlarni yengishda u har qanday qurbonlar berishga, hatto qalb kimyosi hisoblanmish Ofeliyadan mahrum bo`lishga ham rozi. O`z idealiga erishish yo`lidagi Mirzo Ulug`bekning dasturi uning o`z mavqeiga, o`z tarixiy sharoit, salohiyat va gardaniga yuklatilgan jahonshumul mas`uliyati hamda burchiga bobasta mosdir.

Uning e`tiqodi:

Quyosh biru, dunyo biru, insoniyat bir.

Yana:

Zamon o`tar, vahshat bitar, yomonlik ketar,

O`zgaradi dunyomizda dinlar, millatlar,

O`zgaradi millatlarda tillar, odatlar,

Ammo fanning shavqatiga cho`kmaydi g`ubor;

- O`zining barcha insoniy fazilatlari, olijanob intilishlari, odamzodning baxt-saodati yo`lidagi jonbozligi bilan Gamlet Daniyaga sig`maydi, - qora kuchlar tuzog`ida oxirgi odamgacha kurashib halok bo`ladi;

- Falakiyot ilmini o`rganishda mislsiz yutuqlarni qo`lga kiritgan, bu jabhada yevropa fanini qariyib ikki asr ortda qoldirgan Mirzo Ulug`bek Qurag`oniy ham zamonga sig`maydi – Qoraguruhchilar amri, o`g`li Abdullatifning fatvosi, mutaasib Abbosning qo`li bilan qatl etiladi.

Ulug`bek madrasasiga Hindiston, Xuroson, Qashqar, Ashtarxon, Bag`dod, Ozarboyjon va dunyoning boshqa el-yurtlaridan kelib tahsil ko`rgan talabalar bilan xayrlashish marosimida ilmu ma`rifat homiysi hisoblanmish Mirzo ularga yuzlanib deydi:

*To`qson olim, yuz talaba huzurida u
Ko`p bama`ni, serfazilat kalomlar aytdi.
Ammo...uning hikmatomuz kalomlarini
Faqat bir men, birda Qozizodadan o`zga
Hech bir kimsa tushunmadi! Shu uchun sizlar
Hazar eting takallufdan, g`aliz so`zlardan.*

Qozizoda Rumiyning ma`ruzasi romanda aytilgan. Hech kim tushunmagan. Chunki uning tili “jaydari” (o`sha zamon – o`sha maqon uchun tushunarli bo`lmagan so`zlardan tashkil topmagan, balki riyoziyot (matematika), ilmi nujum (astronomiya), ilm al-xiyol (mexanika) fanlariga aloqador abstrakt ilmiy dalillar, mantiqiy kategoriYalar, teorema, isbot, aksioma, ta`rif, qoidalardan iborat nutq bo`lgan. Fikr, albatta, o`z favrining istilohlari, bizningcha aytganda, terminalogiYasi bilan bayon qilinganligi o`z-o`zidan aniq.

Prof. G`.Salomov shunday yozadi<sup>1</sup>: “Ayni bir narsaga ikki xil nazariya, uni ikki xil tushunish va shunga ko`ra ikki xil ijodiy bunyodkorlik prinsipi shu tariqa qaror topgan. Albatta, M.Shayxzoda ham, O.Yoqubov ham bayon, tasvir va uslubning soddaligi hamda murakkabligi nisbiy tushuncha: ularning har ikkalasida murakkab narsa va hodisalarning mohiyatini soddalashtirib tushuntirish, oddiy bo`lib ko`ringan narsalarni esa murakkab tasvirlashni ko`ramiz. Lekin

1. Саломов Г. уша асар. 184-бет

me'yorni saqlashda, qisman janr taqozosi bilan bo'lsa kerak, M.Shayxzodaning tasviriy maromida ko'proq soddalik, O.Yoqubov uslubida esa nisbatan xiyla murakkablik ko'zga tashlanadi."

O'zbek Dramasining katta yutug'i "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida Ulug'bek hayotining so'nggi ikki yili tasvirlanadi. Asarning asosiy konflikti Ulug'bek boshchiligidagi ma'rifatparvar progressiv kuchlar bilan Ahror rahbarligidagi reaksiyon kuchlar o'rtasidagi azaliy kurash darajasiga ko'tarildi.

Shayxzoda shu kurash jarayonini to'la va chuqur tasvirlab, o'sha davr feodal tuzumi ustidan hukm chiqardi. Ulug'bekning fojiasini ijtimoiy tuzumdagi ziddiyatdan izlaydi. Shoh olimni, olim shohni inkor etadigan zamonda o'z shaxsida ham olimni, ham shohni birlashtirmoqchi bo'lgan insonning fojiasini ko'rsatdi.

"Mirzo Ulug'bek" tragediyasida Shekspir an'alaridan foydalanagan bo'lsa-da, voqealar va harakatlar zaminidagi tragizmning ijtimoiy mohiyatini atroflicha ochish borasida bu asar Shekspir tragediyalaridan keskin farq qiladi.

Shayxzoda ulug' o'zbek olimi Abu Rayxon Beruniy haqida dramatik asar yaratishga kirishgan edi. Lekin asar nihoyasiga yetmay chala qolgan. Shayxzoda Alisher Navoiy ijodi haqida bir necha yil tadqiqot ishlarini olib bordi va bir qator yirik ilmiy maqolalar, monografiyalar ("Navoiyda lirik qahramonning xarakteristikasiga doir", 1947, "Ustozning san'atxonasida", to'rt maqola, 1965-1966, "G'azal mulkingning sultoni", 1960) kabilarni Yaratdi. Uning Bobir, Muqimiy, Furqat va boshqa ijodi haqidagi ilmiy tadqiqotlari ham diqqatga sazovor. Shayxzoda A.S.Pushkinning "Motsart va Sal'yeri" drammasini, N.A.Nekrasov she'rlarini, "Juda soz" poemalarini, Sh.Rustaveli, Nizomiy, Bayron, Gyote, Esxil, Ezop va boshqalarning ayrim asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi.¹

1. Узбек совет энциклопедияси. Том 12, Т., 1979, 641-642-бетлар.

2-bob bo'yicha xulosa

1. Shekspir bilan M.Shayxzodalar asarlarining bunyod etilishi davri: birinchisi – 1600 yil, ikkinchisi – 1964 yil. Demak, M.Shayxzoda asari «Gamlet»ga nisbatan 364 yil keyin yozildi. Boshqacha aytganda, Shekspir asarlari biz o'zbeklar uchun chet el adabiyoti namunalari o'laroq, adabiy-tarixiy obida sanalsa, o'zbek yozuvchilari asarlari – vatan adabiyoti yodgorligi sifatida, tariziy mavzuda yozilgan zamonaviy original asarlardir.

2. Biz o'zimizning ilmiy ishimizga, ko'proq Maqsud Shayxzodaning «Mirzo Ulug'bek» asariga tayandik. Shu bilan birga, Odil Yoqubovning «Ulug'bek xazinasi» romanidan ham foydalandik.

3. Shekspirning qirol Gamleti, qirol Liri va M.Shayxzodaning sulton Ulug'bek taqdiriy qismlari deyarli bir xil. Qirol Gamletni ham o'z atrofida, yaqinlari (xotini Gertruda, Qirol ukasi Klavdiy) o'ldiradi. Qirol Lirni ham padarkush qizlari Goneril'ya va Reganalar azoblab o'ldiradilar. Sulton Ulug'bek ham o'z farzandi Abdullatif farmoni bilan o'ldiriladi. Demak, uch qirollarning qismlari bir xil. U qirollar xizmatini nazarga olmaslik, inson, hokim-rahbar hurmatini, padar qiymatini e'zozlamadilar, ularning dushmanlari o'z yaqinlari, o'zlarining kushandalari bo'lib chiqdi.

UMUMIY XULOSALAR

1. Vil`yam Shekspir va Maqsud Shayxzoda, Odil Yoqubovlar ijodida tanlash muammosining mushtarakligiga e`tiborni qaratsak, ko`p voqealar tasvirida bir xillikni ko`rish mumkin.

2. Buyuk Shekspir tajribasi o`zbek adabiy muhitiga tadbiq etishga imkon tug`diradigan mos material mavjud edi: ijtimoiy ma`nosi, fojeaviyligi, keskin tarixiy to`qnashuvlarga seroblighi, jahonshumul ilg`or ilmiy qarash bilan diniy fanatizm, xurofot va bid`atning to`qnashuviga doir Movarounahrda kechmish musibat voqealar ma`lum ediki, Shayxzoda va O.Yoqubovlar uchun Ulug`bek haqida asar yaratishga qulaylik tug`dirdi. «Qirol Lir»dagi farzandlarning o`z padari buzrukvoriga qarshi borishi ham – bularning barchasi muhayyo edi. Boshqacha aytganda, XVI asr ingliz dramaturgi bo`lgan narsalarning deyarli barchasi XIV asr Movarounnahr zaminida real tarixiy qonli voqealar sifatida bo`lib o`tgan edi.

3. Vil`yam Shekspir fojialarida ham, Maqsud Shayxzoda va Odil Yoqubovlarning asarlarida ham tipik obrazlar, tipik voqealar sifatida qirollar, sultonlar, hokimlar, davlat rahbarlari hatti-harakati tasvirlanadi. O`zbek yozuvchilari Shekspir fojialariga o`zlarining asarlarini moslashtiradi. Zotan Shekspir davrida oddiy xalqlar obrazini yaratish ancha noqulay edi. Oddiy xalqlar hali bir shaklga, bir tipga, bir qolipga solinmagan edilar.

4. Vil`yam Shekspir fojialarining o`zbek yozuvchilari ijodiga ta`siri shunda namoyon bo`ladiki, uning ulkan tajribasi bizning adiblarimiz uchun mahorat saboqlarini yetkazuvchi katta ijodiy maktab vazifasini o`tadi.

Ingliz dramaturgi an`analarining davom ettirilishini Maqsud Shayxzoda va Odil Yoqubov ijodiga tatbiqan aytadigan bo`lsa, bu ikki o`rtadagi o`xshashliklardan tortinmaslik mumkin. Chunki ingliz dramaturgi asarlaridagi voqealar, tasvirlar «Mirzo Ulug`bek»da va «Ulug`bek xazinasini» da ham uchrar ekan.

a) Bu M.Shayxzodaning V.Shekspirga «o`xshash»ga bo`lgan havasmandligidan, unga taqlid qilishga mayli borligi, shuncha intilishidan hosil bo`lmagan, balki XIV asr Movarounnahrning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy buyuk ingliz mutafakkiri tasvirlagan narsalarga aynan o`xshash voqealar aynan sodir bo`lganligi kelib chiqqan. Bu esa Shekspir asarlarining qanchalik hayotiylikidan dalolat beradi;

b) Shekspir – Shayxzoda – Yoqubov talqinlaridagi mushtaraklikni biz shuning uchun ham o`xshash toifaga kiritamizki, ingliz shoirining estetik iedali, adabiy-falsafiy kontseptsiyasi o`zbek shoiriga o`zi yashagan zaminda kechmish «shu taxlit» voqealarga qarashga turtki bergan.

5. Shekspir bilan M.Shayxzodalar asarlarining bunyod etilishi davri: birinchisi – 1600 yil, ikkinchisi – 1964 yil. Demak, M.Shayxzoda asari «Gamlet»ga nisbatan 364 yil keyin yozildi. Boshqacha aytganda, Shekspir asarlari biz o`zbeklar uchun chet el adabiyoti namunalari o`laroq, adabiy-tarixiy obida sanalsa, o`zbek yozuvchilari asarlari – vatan adabiyoti yodgorligi sifatida, tarixiy mavzuda yozilgan zamonaviy original asarlardir. Biz o`zimizning ilmiy ishimizga, ko`proq Maqsud Shayxzodaning «Mirzo Ulug`bek» asariga tayandik. Shu bilan birga, Odil Yoqubovning «Ulug`bek xazinasi» romanidan ham foydalandik.

6. Shekspirning qirol Gamleti, qirol Liri va M.Shayxzodaning sulton Ulug`bek taqdiriy qismlari deyarli bir xil. Qirol Gamletni ham o`z atrofida, yaqinlari (xotini Gertruda, Qirol ukasi Klavdiy) o`ldiradi. Qirol Lirni ham padarkush qizlari Goneril`ya va Reganalar azoblab o`ldiradilar. Sulton Ulug`bek ham o`z farzandi Abdullatif farmoni bilan o`ldiriladi. Demak, uch qirollarning qismlari bir xil. U qirollar xizmatini nazarga olmaslik, inson, hokim-rahbar hurmatini, padar qiymatini e`zozlamadilar, ularning dushmanlari o`z yaqinlari, o`zlarining kushandalari bo`lib chiqdi.

7. «Mirzo Ulug`bek»da Ulug`bek – Firuza munosabati «Gamlet»dagi Shahzoda – Ofeliya, «Otello»da Mavr – Dezdemona munosabatlariga o`xshab ketadi. M.Shayxzoda yaratgan bosh qahramon Firuzaning halolligi, pokligi,

samimiyati uchun jon-dilidan Ulug`bek sevadi, lekin Daniya shahzodasi singari hayotidagi bosh maslagi va matlabi uchun o`z mahbubasini beixtiyor qurbon beradi: rad etilgan Ofeliya halok bo`ladi; Shayxzodada esa Samarqand sultoni Firuzaning tamoman gunohsiz ekanligini bilsa-da, o`z qalb do`stini «seva-seva», unga taloq xati jo`natadi. Chunki Ulug`bek tarafida ham, uning mavqeidan qaraganda juda asosli dalil bor. Garchi Firuza nohaq malomatga, tuhmatga qolgan bo`lsa-da, shohning nomi har qanday shubhadan, fisq-fujurdan xoli bo`lishi kerak.

8. Yago dezdemonaga manfurona tuhmat qilar ekan, Otello qattiq shubhaga tushadi, jazavasi chiqadi, qo`pollik qiladi. Ulug`bek onasi Gavharshod bilan o`g`li Abdullatif ham, til biriktirib, Ulug`bekka Firuzani «buzuqlik»da ayblaydi. Ulug`bek Otello singari birdan jahлга minmaydi, Gamletdek, ya`ni olimlarga xos usul bilan isbotlashga kirishadi, ko`p kishilardan so`rab biladi. Lekin aybni hech qachon Firuzaga qo`ymaydi, balki o`zining yoshi ulg`ayib qolganidan ko`radi.

9. «Gamlet»dagi Gertruda va «Mirzo Ulug`bek»dagi Gavharshod o`rtasida yaqinlik mavjud. Nikohda qilingan ahdu paymonni qimorboz garoviga aylantirib, qirolga zahar berib o`ldirishda qatnashgan xatida ko`p o`tmay qotil qayin ukasiga erga chiqib olgan Gertruda hokimiyatga intilib, uni qo`lda saqlab qolish uchun keyinchalik har qanday razillik, fisq-fasod va qurbonlardan ham o`zini tiya olmaydi. Gavharshod zimdan fitna yuritadi. Temuriylar odatiga ko`ra, uning tarbiyasida o`sib ulg`aygan nabiralari – Temuriy shahzodalar noahil, toj-taxt uchun o`z og`asi, inisi, qardoshi, hatto padarini ayamaydigan xunxo`r kishilar bo`lib yetishadi. Gertruda bilan Gavharshod, Yago bilan Abdullatiflar garchi boshqa-boshqa davr kishilari, tamomila bulak asr va milliy muhit vakillari bo`lsalar-da, ammo ular bir toifadagi mushtarak tiplar bo`lib, bir-birlarini «imo-ishora»dan tushunadigan kishilardir.

10. O`z zamonasi illatlarini fosh qilishda Shekspir turli vositalardan foydalanadi: Gamlet o`zini «devona»ga soladi, «Qirol Lir»dagi masxaravoz luqma, izohlarida pichingdan ko`ra chuqur hayot harakati bor. «Daniya – zindon», deydi Gamlet. «Mirzo Ulug`bek»da Bobo Kayfiy «butun shahar zindonda!». Shu o`rinda

hibsga hukm qilingan Bobo Kayfiy «Zindonmi? Eh u bizning o`z xonamiz-ku? – deydi. Ulug`bek qilingandan keyin Samarqand – zindon, deb ataydilar.

11. «Otello» - «Mirzo Ulug`bek» qiyofasida qiz qochish manzarasi Brabantsio – Doj – Dezdemonna – Otello silsilasida hamda Sayid Obid – Ulug`bek – Shayxulislom munosabatlarida ochib berilgan. Davlat rahbari – Doj sevishganlar taqdirini ijobiy baholaydi. «Mirzo Ulug`bek»da ham qizning qochishi voqeasi sodir bo`ladi. Dindor Sayid Obid qizi talaba G`affor bilan sevishib yuradi. Bu yerda ham diniy-irqiy g`araz bo`ladi. Bo`larga ham qirol Ulug`bek jazo bermaydi, G`afforni yaxshi talaba, deb maqtaydi, ular sevishgan bo`lsa, rozimiz, deb oq fотиha beradi.

12. Asarlardagi bosh qahramonlar, ya`ni Otello, Dezdemonna munofiq Yago tufayli qurbon bo`ladilar. «Mirzo Ulug`bek»da esa Sayyid Obid o`g`li Abbos orqali Ulug`bek-Firo`zaning mas`um hayotiga qasd qiladi.

13. Shahzoda Gamlet, Otello, qirol Lir qizi Kordeliya va Ulug`beklar ijobiy obrazlar bo`lib, ular hayot, jamiyat tartibi uchun kurashib, or uchun, yaqinlariga sodiqligi tufayli halok bo`ldilar.

14. Qarama-qarshilik – rivojlanish usuli, deganlaridek, asarlarda bosh obrazlarga qarshi qo`yiladigan Yago, Abdullatif, Gertruda va Gavharshod begimlar ig`ovgar, mansabparast, berahm, shafqatsizlar obrazidir. Ular ham Shekspirda, ham M.Shayxzodadalar ijodlarida topila uchraydilar.

15. Shekspirda ham, Maqsud Shayxzodada ham kelajakka yaxshi niyat bilan qarash holatlari uchraydi,. V.Shekspir fojialarida va Maqsud Shayxzoda va Odil Yoqubovlarning Ulug`bek haqidagi asarlaridagi ba`zi mushtarak tasvirlarni qisqacha bayon etdik. Ular biz ko`rsatgan bandlardangina iborat emas, ularni qiyoslab o`rganilsa, yana ko`p mushtarak sohalar chiqishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997.
2. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». Toshkent, 1997.
3. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М., «Советская Энциклопедия», 1969.
4. Aznaurova E.S. Do'stlik ko'prigi. «O'zbekiston madaniyati» gazetasi, 1964 yil, 26 fevral'.
5. Azizov Q., Qayumov O. CHet el adabiyoti tarixi. Toshkent, «O'qituvchi» nashriyoti, 1987.
6. Aliev S. Литературные связи и узбекская литература. Т., «Fan», 1975.
7. Александр Дима. Принципы сравнительного литературоведение. М., «прогресс», 1977.
8. Аникин Т.В. История англиской литературы. М., 1975.
9. Белинский Т. Sobranie sochineniy. М., 1953, tom II.
10. Baldensperger F. and others. Bibliography of comparative literature. Chapes Hill, 1950.
11. Baqoeva M.K. Ingliz va Amerika adabiyotidan o'zbek tiliga she'riy tarjima tarakqiyoti. Т., «Fan», 1995.
12. Baqoeva M.K. Angliya, AQSH adabiyotidan o'zbek tiliga she'riy tarjima va qiyosiy tarjimashunoslik muammlari. Filologiya fanlari ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgna dissertatsiya avtoreferati. Т., 2004.
13. Голубев Г. Улугбек. Т., «Yosh gvardiya», 1962.
14. Gulyamova D. Dramaturgiya Shekspira v O'zbekistane. Nomz.diss.avtoreferati. Т., 1971.
15. Yoqubov Odil. Ulug'bek hazinasi. Т., 1980.
16. Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение проблемы литературных влияние. М., «InvestiYa», ANSSR, 1936.
17. Жирмунский В.М. Литературные отношения востока и запада как проблема сравнительного литературоведения. Ленинградский университет – 1964.
18. Ibragimova R.A. CHet el adabiyoti o'zbek tilida. (BibliografiYa). Т., 1969.
19. Иржи Левий Исскуство перевода. М., 1974.
20. Конран Н.И. Вопросы о литературных связях М., «IzvestiYa» ANSSR, 1957.
21. Конранд Н.И. Запад и востог. М., 1972.
22. Козинтцев Г.М. Наш современник –Шексир. М.-Л., 1962.
23. Kessel L.M. Gyote i Zapadno-Vostochniy divan. М., «Nauka», 1973.

24. Ломидзе Г.Н. Интернациональный пафос советской литературы. М., «Сов писател`», 1970.
25. Ма`naviyat yulduzlari. Akademik M.M.Xayrullaev tahriri ostida. T., 2001.
26. Морозов М.М. Язык и стиль Шекспира. М., ГИХЛ, 1954.
27. Neupokoeva I.G. VzaimosvYazi i vzaimodeystviYa natsional`nix literatur. M., «Nauka», 1963.
28. Neupokoeva I.G. Problemi vzaimodeystviYa sovremennix literatur. M., «Nauka», 1963.
29. Pushkin A.S. Kritik. M., ГИХЛ, 1950.
30. Pulatov YU. O`zbekistonda chet el adabiyotini o`rganishga doir. T., «O`qituvchi», 1975.
31. Possnet H.M. Comparative literature, London, 1886.
32. Salomov G`. Til va tarjima. T., «Fan», 1966.
33. Salomov G`. Tarjima tashvishlari. T., 1983.
34. Sultonov I.A. Nekotorie voprosi izucheniYa istorii o`zbekskoy sovetskoy literaturi. T., AN O`zSSR, 1958.
35. Sulaymonova X. Shekspir O`zbekistonda. T., 1978.
36. Salomov G`, Komilov N. Do`stlik ko`priklari. T., G`.G`ulom namidagi adabiyot va san`at nashriyoti, 1979.
37. Turdiev SH. Adabiy aloqalar tarixidan. «sharq yo`ldo`zi» jurnali, 1965, № 1.
38. Типология и взаимно всвязи средневековых литература востока и запада. М., «Наука», 1974.
39. Hojiahmedov A. Adabiyotlarimiz hamoqrligi tarixidan. T., «Fan», 1966.
40. SHaripov J. Tarjima tarixi ocherki. T., «Fan», 1965.
41. Shayxzoda Maqsud. Mirzo Ulug`bek. T., «O`qituvchi», 1994.
42. Shermuhamedov S., Mirzaev S. Adabiy do`stligimiz sahifalari. T., 1975.
43. Shekspir Vil`yam. P`esalar. T., 1960.
44. Shakespeare William. Tragedies. New Lenark, 2006.
45. Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. T., «O`qituvchi», 1973.
46. O`zbek adabiyoti. Darslik-majmua. T., «O`qituvchi», 1997.
47. www.ziyo.uz
48. www.wikipedia.com